Och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasi, allyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan, Sirdaryoning I va II qayir usti terrasasi tuproqlaridagi gumus moddasini fraksiyaviy tarkiblari tuproq tipchalariga bog‘liq holda farqlanadi.

Sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda umumiy C miqdori gumus miqdoriga mos holda yuqori qatlamlarida 0,961-0,915%, pastki qatlamlarida biroz yuqori 0,821-1,157 % ni, eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda yuqoridan pastga tomon kamayib borib 1,014-0,346 % ni tashkil etadi.

Bu tuproqlarda asosan kalsiy bilan bog‘langan va tuproqni kalsiysizlantirilganda ajraladigan gumin va fulvokislotalar guruhidagi 2-fraksiya miqdori ustunlik qilib, sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda 10,7-14,7% va 11,1-17,9%, eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda profil bo‘ylab bir xilda 20,2-21,1 % va 12,4-23,3 % ni tashkil etadi.

Har ikkala tuproq tipchalarida ham erkin holdagi va harakatchan bir yarim oksidlar bilan mustahkam bog‘lanmagan 1-fraksiya gumin va fulvokislotalar miqdori yuqori emasligi va ular gumin kislotalari bo‘yicha 1,9-5,6 % va 3,7-4,4 % ni, fulvokislotalari bo‘yicha 0,5-1,4 % va 1,1-1,4 % -ni, 1a –agressiv fulvokislotalar bilan birga bog‘langan qismida 2,0-4,5 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Tuproqni loyli (il) fraksiyasi hamda turg‘un bir yarim oksidlar bilan mustahkam bog‘langan gumin va fulvokislotalar miqdori ushbu tuproqlarda yaqin bo‘lib, 2-fraksiya kalsiy bilan bog‘langan gumus kislotalaridan keyingi o‘rinda turadi. Bunda gumus kislotalari orasida 3-fraksiya fulvokislota miqdori gumin kislota miqdoridan sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarida 3,9-2,5 va eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda 2,4-3,6 barobar ko‘p ekanligi aniqlandi. Bu esa, tuproqni loyli fraksiyalari va bir yarim oksidlar bilan mustahkam bog‘langan gumin kislotalari miqdori shunday bog‘langan fulvokislotalardan 1,1-2,5 baravar kamligini va gumin kislotalari ko‘proq, “gumin” moddasi tarkibiga kirib, tuproqda gumus moddasini turg‘unligini ta’minlaydi, degan xulosaga kelish mumkin.

1-jadval

Toshkent vohasi gidromorf tuproqlar gumusining guruhiy va fraksiyaviy tarkibi, %

Kesma № Tuproq nomi	Qatlam, sm	Organik uglerod	Gumin kislotalar				Fulvokislotalar					Cgk+Cfk	Cgk / Cfk	Gidrolizlan-maydigan qoldiq
			1	2	3	Yig‘indi	1a	1	2	3	Yig‘indi			
Chirchiq daryosining I-II terrasalari, tosh-shag‘alli, allyuvial va Qorasuv daryosining I-terrasasi, allyuvial-prolyuvial yotqiziqlarda tashkil topgan														
15. Sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi allyuvial	0-27	1,624	3,0	22,3	7,9	33,2	1,7	3,4	15,2	10,2	30,4	63,7	1,1	36,3
	27-46	1,176	2,0	15,4	7,4	24,8	2,0	2,2	14,7	14,2	33,0	57,8	0,8	42,2
	56-71	0,614	2,8	10,5	6,0	19,3	3,3	5,7	9,7	14,7	33,4	52,7	0,6	47,3
19. Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial	0-26	1,264	2,3	13,6	6,4	22,3	1,8	4,7	6,4	9,4	22,3	44,6	1,0	55,4
	26-45	0,926	2,2	10,4	5,9	18,5	2,1	1,7	15,9	13,5	33,2	51,7	0,6	48,3
	45-69	0,627	2,6	12,2	6,6	21,4	2,7	0,9	10,6	22,2	36,3	57,7	0,6	42,3
	69-87	0,409	4,1	14,6	6,7	25,4	3,8	0,5	8,4	25,1	37,7	63,2	0,7	36,8
Och tusli bo‘z tuproqlar minataqasi, allyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan, Sirdaryoning I va II qayir usti terrasasi.														
20. Sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi allyuvial	0-29	0,961	5,6	14,7	3,8	24,2	3,6	1,4	11,1	5,1	21,3	45,4	1,1	54,6
	29-51	0,915	2,5	12,5	4,3	19,3	2,1	0,5	15,9	6,2	24,8	44,1	0,8	55,9
	51-62	0,821	2,4	14,0	5,3	21,7	2,2	0,6	17,9	7,2	28,0	49,7	0,8	50,3
	62-84	1,157	1,9	10,7	5,8	18,4	1,5	1,4	13,6	9,6	26,1	44,5	0,7	55,5
21. Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial	0-33	1,014	4,4	21,1	4,0	29,5	1,9	1,4	12,4	8,7	24,5	54,0	1,2	46,0
	33-64	0,766	3,8	20,9	4,0	28,7	2,2	1,3	17,9	10,2	31,7	60,3	0,9	39,7
	64-89	0,632	3,7	20,6	4,8	29,1	2,0	1,1	23,3	4,4	30,8	59,9	0,9	40,1
	89-103	0,346	4,3	20,2	6,1	30,6	4,5	1,2	18,9	11,2	35,8	66,3	0,9	33,7
Gijigen daryosining I-II qayir usti terrasasi, lyossli va allyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan														
2. Sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi allyuvial	0-18	1,060	4,1	15,6	13,3	33,0	2,7	5,8	2,4	18,3	29,2	62,2	1,1	37,8
	18-48	0,936	6,6	13,8	13,1	33,5	3,3	5,6	3,8	16,4	29,0	62,6	1,2	37,4
	48-75	0,677	8,5	15,8	12,7	37,0	4,2	7,6	3,3	16,5	31,5	68,5	1,2	31,5
1. Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial	0-35	0,984	2,3	18,2	4,7	25,2	2,3	8,4	6,6	6,8	24,0	49,2	1,0	50,8
	35-55	0,938	2,4	10,6	5,4	18,4	3,5	6,9	5,8	5,5	21,6	40,0	0,9	60,0
	55-76	0,875	3,1	13,5	4,1	20,7	4,3	7,0	4,6	4,5	20,4	41,1	1,0	58,9
	76-84	0,416	5,6	17,9	6,5	30,0	6,8	7,4	7,0	7,2	28,4	58,4	1,1	41,6

Ushbu tuproqlarda gidrolizlanadigan gumus kislotalari miqdori sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarida 44,1-49,7%, eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda 54,0-66,4% bo‘lib, gidrolizlanmaydigan qoldiq – gumin moddasi miqdori mos ravishda 50,3-55,9 % va 33,7-46,0 % -ni tashkil etadi.

Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda qatlamlar bo‘yicha sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarga nisbatan gidrolizlanmaydigan modda (gumin) miqdori 1,2-2,0 baravar kam ekanligi aniqlandi. Gumin kislotasini fulvokislotasiga nisbati Cgk:Cfk har ikkala tuproqni haydov qatlamida 1,1-1,2 va ostki qatlamlarida 0,7-0,9 bo‘lib, ushbu tuproqlarning yuqori qatlamlari tasnif bo‘yicha fulvatli-gumatli (1,0-1,5), ostki qatlamlari gumatli-fulvatli (0,75-1,0) va fulvatli (0,5-0,75) tipga mansubligi aniqlandi. Bunday qonuniyat, ya’ni gidromorf tuproqlarning yuqori qatlamlarida Cgk:Cfk nisbati 1 dan yuqoriligi, ya’ni fulvatli-gumatli bo‘lishligi ijobiy ko‘rsatgich hisoblanib va bunday tuproqlarda gumifikatsiya jarayonlari mineralizatsiyadan ustun bo‘lishi hisobiga, ularda gumus miqdorini ortib borishi, gumusning sifatini yaxshilab borishidan dalolat beradi.

Navbatdagi geomorfologik rayon – Gijigen daryosining I-II qayir usti terrasasi, lyossli va allyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda (kesma-2) umumiy C miqdori 1,060-0,677%, eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda (kesma-1) uning miqdori 0,984-0,416% ni tashkil qiladi. Ushbu tuproqlarning gumusini fraksiyaviy tarkibiga ko‘ra, 2-fraksiya kalsiy bilan mustahkam bog‘langan gumin kislotalar guruhi ustunlik qilgan va sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda 13,8-15,8% -ni, eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda 10,6-18,2% ni tashkil qilgan. Ushbu tuproqlarda fulvokislotalar miqdori 2,4-3,8% va 4,6-7,0% bo‘lib, gumin kislotalardan 1,2-2,5 barovar kamligi aniqlandi.

Yuqoridagi tavsiflangan geomorfologik rayonlardagidek, ushbu tuproqlarda ham eng kam miqdor gumin va fulvokislotalar erkin holdagi va harakatchan bir yarim oksidlar bilan mustahkam bog‘lanmagan 1-fraksiyasiga to‘g‘ri keladi. Sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda ushbu guruh gumin kislotalari 4,1-8,5 %, eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarida 2,3-5,6% ni, fulvokislotalar bo‘yicha ushbu tuproqlarda mos ravishda 5,6-7,6% va 6,9-8,4% -ni, 1a-agressiv fulvokislotalar bilan birga 8,5-11,8% va 10,4-14,2 % ni tashkil qiladi.

Ushbu 1-fraksiyasi gumin kislotalari va fulvokislotalar miqdori avvalgi geomorfologik rayon – och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasi Sirdaryoning shunday sharoitida shakllangan sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi va eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlaridan 1,2-2,0 barovar yuqori bo‘lib, buning sababi sug‘orish muddatining davomiyligi, geomorfologiyasi, ona jinsi kabi bir qator ko‘rsatgichlarga bog‘liqligi bilan izohlanadi.

Avvalgi geomorfologik rayonlardagi sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi va eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlardagidek ushbu regionda shunday sharoitda shakllangan tuproqlarda ham Ca bilan bog‘langan 2-fraksiya gumus kislotalaridek, 3-fraksiya tuproqni loyli farksiyalari va bir yarim oksidlar bilan mustahkam bog‘langan gumin va fulvokislotalar keyingi o‘rinda bo‘lishligi kuzatildi. Ushbu 3-fraksiya gumus kislotalari orasida sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarida gumin kislotalari 12,7-13,3 % va eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda 4,1-6,5 % ni, fulvokislotalari 16,4-18,3% va 4,5-7,2% ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatgichlar sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarga nisbatan 3-fraksiya gumin kislotalari va fulvokislotalari 2,0-2,8 va 2,5-3,7 barovar ortiq ekanligi kuzatildi.

Ushbu tuproqlarda gidrolizlanadigan gumus kislotalari miqdori sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda 62,2-68,5% va eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi

allyuvial tuproqlarida 40,0-58,4% bo‘lib, gidrolizlanmaydigan qoldiq – gumin moddasi miqdori ushbu tuproqlarda mos ravishda 31,5-37,8 % va 41,6-60,0 % ni tashkil etdi.

Sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda gidrolizlanmaydigan modda miqdoridan gidrolizlanadigan modda miqdori 1,6-2,2 barobar ko‘p bo‘lib, eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda gidrolizlanmaydigan moddalar miqdori gidrolizlanadigan moddalar miqdoridan 1,4-1,5 baravar yuqori, ayrim qatlamlarda deyarli tengligi aniqlandi.


Tuproqlarda Cgk/Cfk ni nisbatiga ko‘ra, sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda fulvokislotaga nisbatan gumin kislotasi 1,1-1,2 barobar yuqori bo‘lib, eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda shu ko‘rsatgichlar 0,9-1,1 bo‘lib, ularda gumifikatsiya jarayonlari biroz pastligini ko‘rsatadi. Umuman olganda ushbu tuproqlarning genetik gorizontlari fulvatli-gumatli, gumatli-fulvatli tipga mansubligi aniqlandi.

Labil (harakatchan) gumus moddalari

Tuproq organik moddasida gumusni harakatchan (labil) qismi o‘simliklar uchun ahamiyatli bo‘lib, uni tuproq unumdorligining muhim ko‘rsatgichi deb hisoblash mumkin [5; -47-b.].

Labil gumus moddalariga kiritiladi: tuproq gumusini guruhiy va fraksiyaviy tarkibini I.V.Tyurin usuli bilan bajarilgan tuproqdagi organik birikmalar guruhlarining nospesifik organik moddalar, gumin moddalarining ayrim qismi (tuproqni 0,05 n NCl yoki 0,1 n H_2SO_4 bilan ishlanganda ajraladigani) hamda erkin gumin kislotalari va harakatchan bir yarim oksidlar bilan bog‘langanlari (tuproqni 0,1 n NaOH bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri ishlov berilganida ajraladigan qismi) kiradi. Shuningdek tuproqni ketma-ket ammoniy karbonat tuzi bilan ishlov berilganda hamda 0,1 n natriy pirofosfat so‘rimida ajraladigan spesifik va ayrim nospesifik gumus kislotalarini kiritish mumkin (6; -121-b).

Ushbu gidromorf tuproqlarda harakatchan gumus kislotalardan 1a-fraksiya, 0,1 n. N_2SO_4 da eriydigan va bir yarim valentli oksidlar bilan bog‘langan fulvokislotalar miqdori tuproqlarda yuqori qatlamidan pastki qatlamlar tomon oshib borib, yuqori ulush miqdori (2,08-6,77 %) eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda kuzatildi (1-rasm).



1-Rasm. Gidromorf tuproqlarda harakatchan (labil) gumus kislotalari miqdori, %

Gumus kislota fraksiyasidagi 0,1 n H_2SO_4 kislotali so‘rimdan ajratib olinadigan 1a fulvokislota miqdori ushbu tuproqlarni genetik qatlamlari bo‘yicha yuqoridan quyi tomon ortib borish tendensiyasi kuzatilib, sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda 1,74-4,45 %, eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda

1,45-6,77 % tashkil qiladi.

Yuqoridagi ishqoriy so‘rimdagi harakatchan gumin va fulvokislotalar miqdori sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda 2,04-8,49 % va 3,30-11,76 % bo‘lib, yuqori bo‘lgan ko‘rsatgichlar quyi qatlamlarda kuzatildi. Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda ularning miqdori 2,25-5,63 % va 2,77-14,19 % ni tashkil qiladi.

Bu tuproqlarda gumin va fulvokislotalar nisbatiga ko‘ra, sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda 0,31-0,76 ko‘rsatgichi bilan fulvokislotalar ustunlik qiladi. Buning sababi, ushbu sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarning yuqori qatlamlarida yuqori ko‘rsatgichda gidromorfizm jarayonlari sodir bo‘lishi hisobiga gumusni mineralizatsiyasi kamayib, gumifikatsiyani ortishi va yangi gumin kislotalari to‘planib borishi bilan izohlanadi.

Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda ushbu nisbat 0,35-0,98; 1,12-0,68 va 0,22-0,28 bo‘lib, katta ko‘rsatgichlarda farqlangan. Buning sababi, sug‘orish davomiyligiga hamda qatlam chuqurligiga bog‘liq holda ularning miqdori kamayib borishi kuzatildi. Har ikkala tuproq tiplarida ham ularning yuqori qatlamlarida Cgk:Cfk nisbati 1,0 dan yuqori bo‘lishi ijobiy ko‘rsatgich bo‘lib, o‘simliklarni yangi gumus moddalari bilan ta’minlashda ahamiyatli hisoblanadi.

Tuproqlarning gumusli holati va unumdorlikdagi ahamiyati

Tuproqlarni gumusli holatini har tomonlama o‘rganish orqali tuproq organik qismi shakllaridan bir yoki ayrim guruhini qishloq xo‘jaligi ekinlarini o‘siishi, rivojlanishi, hosildorligiga ta’sirini o‘rganish natijasida bonitorovkani diagnostik belgisi (test) sifatida qo‘llashga doir ilmiy hamda, amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan yechimni hal qilish mumkin bo‘ladi. Buning uchun turli sharoitlarda ko‘p sonli o‘tkazilgan statsionar va dala tadqiqotlari olib borilishini taqozo etadi (5; -47-b).

Tuproqlar harakterli xususiyatlarini shakllanishi, hamda moddalarning turli xildagi transformatsiyasi (o‘zgarishi), migratsiyasi, akkumulyatsiyasi va o‘simliklar oziqlanishida uning organik moddasi muhim ahamiyatga ega. Shuni ta’kidlash kerakki, barcha turdagi organik moddalar, ya’ni chirimagan organik qoldiqlar, detritlar, gumus moddalarining ayrim guruhlari tuproq paydo bo‘lishida, unumdorligida va o‘simliklar oziqlanishida muhim, ammo turlicha ahamiyatga ega (6; -121-b).

Tuproq qatlamlarining gumusli holatini ko‘rsatib beradigan, tuproq gumusining asosiy ko‘rsatgichlarini va ularning kattaliklarini aniqlaydigan tasnifning bo‘lishi tuproq organik moddasiga doir ma’lumotlarni umumlashtirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bunday ko‘rsatgichlar to‘plami sifatida M.M. Toshqo‘ziyev (5; -47-b) tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy ko‘rsatmalardan hamda M.M.Toshqo‘ziyev, N.I.Shadiyeva tasnifidan (7; 15-24-b) foydalangan holda o‘rganilgan tuproqlarni gumusli holati tahlil qilindi.

Toshkent vohasi – gidromorf tuproqlarining gumusli holati tuproq mintaqasi va tipchalari bo‘yicha, tarkibida organik moddalar miqdoriga bog‘liq holda turli darajada ekanligi kuzatildi.


Vohani tipik bo‘z tuproqlar mintaqasida tarqalgan gidromorf tuproqlarni haydalma (A) qatlamidagi gumus miqdori, sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarida yuqori va o‘rtachadan yuqori 2,80-1,82 % bo‘lib, eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlar gumus miqdori 2,18-1,96 % bilan yuqori va o‘rtachadan yuqori bo‘lgan ko‘rsatgichlarda kuzatildi. Och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasi tuproqlari biroz farqlangan holda, har ikkala tuproq tipchalari bo‘yicha haydov qatlamida gumus miqdori 1,65 % va 1,75 % bo‘lib, o‘rtachadan yuqori hisoblanadi.

Tipik bo‘z tuproqlar mintaqasida sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi va eskidagan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarni gumus miqdoriga mos holda, 0-30 sm li qatlamida gumus zahirasi

yuqori (109,82 t/ga), o‘rtachadan yuqori (69,23 t/ga) va 78,15-66,65 t/ga zahira bilan o‘rtachadan yuqori hisoblangan bo‘lsa, shu tuproqlarni 0-100 sm li bo‘lgan qatlamida gumus zahirasi yuqori (217,37 t/ga), o‘rtacha (111,67 t/ga) va yuqori (178,19-176,31 t/ga) ko‘rsatgichda ekanligi aniqlangan (7; 15-24-b).

Och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasi sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi va eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarni 0-30 sm li qatlamida gumus zahirasi 66,15 t/ga va 72,37 t/ga ni, tasnif ko‘rsatgichi o‘rtachadan yuqori, 1 m li qatlamida 235,41 t/ga va 186,49 t/ga ni, tasnif ko‘rsatgichiga ko‘ra yuqori ekani aniqlandi.

Ushbu gidromorf tuproqlarda organik moddaning gumifikatsiya darajasi tuproq tipchalari bo‘yicha farqlangan holda, tipik bo‘z tuproqlar mintaqasi sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda o‘rtacha (20,44%) va yuqori (31,03 %) hamda eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda kuchsiz (17,72%) va o‘rtacha (27,64%) bo‘lgan. Och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasi sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi va eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda 25,18 % va 29,09 % ko‘rsatgichi bilan o‘rtacha ko‘rsatgichga to‘g‘ri keladi.



2-Rasm. Toshkent vohasi sug‘oriladigan gidromorf tuproqlarni gumusli holati

Gumus fraksiyalari tahlillari gumin va fulvokislotalar nisbati asosida gumus tipi – tipik bo‘z tuproqlar mintaqasida sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi va eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarni yuqori qatlamlarini nisbati (1,0-1,1) bilan har ikkala tuproqlar fulvatli-gumatli, 1 m li bo‘lgan qatlamida (0,5-1,2) nisbat bilan tuproqlar fulvatli-gumatli, fulvatli hamda och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasi har ikkala tuproqlarni yuqori qatlami fulvatli-gumatli (1,1-1,2), 1 m li bo‘lgan qatlamida sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda fulvatli (0,6), eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarda gumatli-fulvatli (0,9) tipiga mansub ekanligi aniqlandi.

Ushbu tipik bo‘z hamda och tusli bo‘z tuproqlar mintaqalarida tarqalgan gidromorf tuproq tipi, tipchalari bo‘yicha erkin gumin kislotalari ulushi, har ikkala tuproq tipchalarida ulushi 8,5-12,4% bo‘lib, o‘ta past va juda past hamda miqdori 15,0-23,3% bo‘lib, past va juda past hisoblanadi.

FK - 1a (Cfk - 1a) fraksiya miqdorlari tipik bo‘z tuproqlar mintaqasi sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi va eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi allyuvial tuproqlarida fraksiya miqdorlari bo‘yicha farqlanib (5,7-9,10% va 10,8-10,3%), tasnif bo‘yicha bir xilda o‘rtacha ekanligi aniqlandi. Ushbu gumusli holat ko‘rsatgichlari bo‘yicha fraksiya miqdori och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasi gidromorf tuproq tipchalarida yuqori (16,2%) va o‘rtacha (7,7%) darajada hisoblanadi.

Tipik bo‘z tuproqlar mintaqasi sug‘oriladigan botqoq-o‘tloqi tuproqlarda Ca bilan bog‘langan hamda mineral qism bilan mustahkam bog‘langan GK ulushi yuqori (67,2%) va o‘rtacha (41,2%) hamda yuqori (23,9%) va juda yuqori (45,4%) bo‘lib, eskidan sug‘oriladigan tuproqlar bo‘yicha gumin kislotasi ulushi yuqori (78,9%) va juda yuqori (81,4%) hamda o‘rtacha (10,8-10,1%) darajada ekanligi kuzatildi.

Och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasi gidromorf tuproq tip, tipchalarida (botqoq-o‘tloqi va o‘tloqi allyuvial) Ca bilan bog‘langan gumin kislotalar ulushi yuqori (60,9% va 78,1%), mineral qism bilan mustahkam bog‘langan gumin kislota ulushi o‘rtacha va past (15,8% va 6,9%) darajada ekanligi aniqlandi. Gumusni azot bilan ta’minlanganligi S:N ko‘ra, tipik bo‘z hamda och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasi gidromorf tuproq tipchalari (botqoq-o‘tloqi va o‘tloqi allyuvial) bo‘yicha past, yuqori va o‘rtacha, yuqori (11,2-7,0 va 10,8-7,4) hamda har ikkala tuproq tipchalari yuqori (7,2 va 6,5) darajada ta’minlangan gidromorf tuproqlar hisoblanadi.

Tuproq gumusini ekologik ahamiyati, gumus tarkibi, gumusli holatini tasniflash masalalari tahlili natijalari asosida tuproqlarni ekologik holatini tasniflash.

Gumus hosil bo‘lishi, uning tabiatiga to‘xtalganda, masalani nafaqat biokimyoviy, tomonlari bilan chegaralanib qolmasligi kerak – uning eng muhim ekologik ahamiyatli tomonlari mavjud bo‘lib, u nafaqat gumusni o‘zi nima degan savolga javob berib qolmasdan, nimaga va nima sababli Yer quruqligi (qobig‘i) ni eng ustki qismida hosil bo‘ladi va gumus to‘planib borishini ko‘rsatib beradi.

Quyida tuproqlarda milliy manbalarga tayangan holda gumusni ekologik ahamiyatiga qisqacha to‘xtalmoqchimiz. Tuproqdagi organik moddalar tuproqda kechadigan turli jarayonlarda, unumdorligida va o‘simliklarning oziqlanishida xilma-xil rol o‘ynaydi. Gumus tarkibida o‘simliklar uchun zarur deyarli barcha elementlar uglerod, kislorod, azot, fosfor, kalsiy, magniy, oltingugurt, temir singarilar borligi ma’lum. O‘simlik va jonivorlarning nobud bo‘lgan qoldiqlarining parchalanish jarayonlarida ulardagi oziq moddalar asta-sekin ajralib chiqadi va shuning uchun ham ular yuvilib ketmay, tuproq qatlamlarida mustahkam ushlanib turiladi.

Gumus tuproqning issiqlik va suv-fizik xossalariga ijobiy ta’sir etadi. Chirindi tuproqning mineral zarrachalarini bir-biriga mustahkam biriktirib, uni donador strukturali xolatga keltiradi. Strukturali tuproqlar suvni yaxshi o‘tkazib, kam bug‘lantiradi, unda havo yetarli va temperatura rejimi ham qulay bo‘ladi.

V.A.Kovda tuproqdagi organik moddalar va unda to‘planadigan energiyaning tuproqda kechadigan jarayonlarda hamda biosferaning barqarorligidagi rolini ta’kidlaydi. V.A.Kovda tuproqning gumusli qatlamini planetaning alohida energetik qobig‘i - gumosfera deb hisoblaydi. Uning ko‘rsatishicha, tuproqda to‘planadigan o‘simlik qoldiqlarining 1 g quruq moddasida taxminan 17-21 kJ miqdorida energiya to‘plangan bo‘ladi.

S.A.Aliyev ma’lumoticha, 1 g gumin kislotasida 18-22 kJ, 1 g fulvokislotada 19 kJ., 1 g lipidlarda taxminan 35,5 kJ energiya to‘planadi.

Organik moddalari 4-6 foiz va gumus zahirasi o‘rtacha (200-400 t/ga) bo‘lgan tuproqlarning 1 gektarida 20-30 t antratsitdagiga teng keladigan energiya saqlanadi.

Organik moddalar muhim ekologik

ahamiyatga ega bo‘lib, kimyoviy o‘g‘itlar qo‘llanilganda hosil bo‘ladigan ko‘pgina salbiy oqibatlarni kamaytiradi, ularning oshiqcha qismini ushlab qoladi va yuvilishdan saqlaydi, zararli birikmalarni neytrallaydi. Tuproqning biologik aktivligi undagi organik moddalar bilan bevosita bog‘liq. Gumusi ko‘p bo‘lgan tuproqlarda mikroorganizmlar va umurtqasiz jonivorlarning turlari nihoyatda xilma-xil.

Tuproq gumusli holatini optimal miqdorlarini aniqlashda bir qancha ko‘rsatgichlar hisobga olinadi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar: organik moddaning miqdori, uning zahirasi, uni azot bilan boyitilganligi (C:N), gumus tipi (Cgk / Cfk), ushbu ko‘rsatgichlarni variyatsiyalanishi tuproqlarni gumusli holati tuproq unumdorligini muhim ko‘rsatigchlari bo‘lib, ular biosfera komponetlarini turg‘unligini ko‘rsatadi. Ularning ayrim ko‘rsatgichlari atrof-muhitni monitoring ob’ekti bo‘lib xizmat qiladi.

Tuproqlarni ekologik holatini baholashda rus olimi V.V.Yermakov (2018) tomonidan taklif etilgan biokimyoviy mezonlar bo‘yicha tuproqlarni ekologik holatini baholashga doir tasnifidan foydalangan holda, Respublika tuproqlari gumusli holati ko‘rsatgichlari asosida ekologik holatini tasniflash bo‘yicha takliflar kiritildi (3-5-jadvallar).

2-jadval

Biokimyoviy mezonlar bo‘yicha tuproqlarni ekologik holatini baholash (V.V.Yermakov, 2018)

Ko‘rsatgichlar		Ekologik halokatli	O‘ta ekologik halokatli	Nisbatan qoniqarli holat
C:N nisbati	Tuproqda	<4	4-8	8-20
	O‘simlikda	<4	4-8>	8-12

3-jadval

Respublika tuproqlari gumusli holati ko‘rsatgichlari asosida ekologik holatini tasniflash (M.M.Toshqo‘ziev, .O.G.Karabekov, 2025)

Ko‘rsatgichlar		Ekologik halokatli holat	O‘ta ekologik havfli holat	O‘rtacha ekologik havfli holat	Past ekologik holat	Qoniqarli ekologik holat
C:N nisbati	Tuproqda	<5	5-8	8-11	11-14	>14

4-jadval

Respublika tuproqlari suvda eriydigan gumus miqdori ko‘rsatgichlari asosida ekologik holatini tasniflash (M.M.Toshqo‘ziev, .O.G.Karabekov, 2025)

Ko‘rsatgichlar		Qoniqarli ekologik holat	Past ekologik holat	O‘rtacha ekologik holat	Ekologik havfli holat	Ekologik xalokatli holat
Suvda eriydigan gumus miqdori	Tuproqda	0-200	201-300	301-400	401-500	>500

5-jadval

Respublika tuproqlari 1a agressiv fulvokislota ko‘rsatgichlari asosida ekologik holatini tasniflash (M.M.Toshqo‘ziev, .O.G.Karabekov, 2025)

Ko‘rsatgichlar		Qoniqarli ekologik holat	Past ekologik holat	O‘rtacha ekologik holat	Ekologik havfli holat	Ekologik xalokatli holat
1a Fulvo kislota	Tuproqda	1-3	3-5	5-8	8-12	>12

Xulosalar

Toshkent vohasi gidromorf tuproqlari gumusining guruhiy va fraksiyaviy tarkibi tuproqlarning genetik qatlamlari bo‘yicha gumus miqdorini taqsimlanishiga, geomorfologik rayonlarning tuproq hosil qiluvchi ona jinsi hamda tuproq tipi va tipchalariga bog‘liq holda gumin va fulvokislotalari gumus moddasini 2-fraksiyalari hamda 3-fraksiyalari ustunlik qilib, tuproqlar fulvatli-gumatli, gumatli-fulvatli va fulvatli tipga mansubligi aniqlandi.

Tuproq tarkibidagi o‘simliklar uchun zarur bo‘lgan harakatchan shakldagi gumus kislotalari gumus miqdor ko‘rsatgichlari o‘rtacha va o‘rtachadan yuqori bo‘lgan tuproqlarda fulvokislotalar miqdori yuqori bo‘lsa, yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lganlarida gumin kislotalarga boy ekanligi kuzatildi.

Respublika tuproqlari gumusli holati ko‘rsatgichlari ma’lumotlari asosida, ularni ekologik holati bo‘yicha quyidagi 3 ta guruhga tasniflandi: C:N nisbati, 1a agressiv fulvokislotalari hamda suvda eriydigan gumus miqdori.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shadiyeva N.I. Vertikal zonallikda tarqalgan tuproqlarning gumusli holati, gumus moddalarining shakllanish mexanizimini tadqiq etish (Turkiston tog‘ tizmasi misolida). Dissertatsiya, b.f.d. – Toshkent, 2018, – 207-b.

2. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах// Союз НИХИ, – Ташкент 1963, – с. – 270-274.

3. Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии. ЎзПИТИ, 1977. – С. – 214

4. Аринушкина Е.В. Руководства по химичекскому анализу почв / – М.: МГУ, 1970 – С. – 487

5. Toshqo‘ziyev M.M. Tuproqda umumiy gumus va xarakatchan gumus moddalari miqdoridan uning unumdorligi ko‘rsatgichi sifatida foydalanishga doir uslubiy ko‘rsatmalar. – Toshkent, 2006. – 47 b.

6. Shadiyeva N.I. Tog‘ yonbag‘ri eroziyalangan lalmi va sug‘oriladigan tuproqlarining gumusli holati, xossalari, unumdorligi (Shimoliy Turkiston va G‘arbiy Chotqol tuproqlari misolida). Dissertatsiya b.f.n. – Toshkent 2009, – 121-b.

7. Ташкузиев М.М., Шадиева Н.И. Система показателей гумусного состояния почв центральноазиатского региона, использование ее критериев в решении вопросов гумуссобразования и плодородии почв / «Казахский НИИ почвоведения и агрохимии им. У.У. Успанова» Ж: Почвоведение и агрохимия, № 3, – Алматы, 2020. – С. – 15-24.

8. Ермаков В.В., Тютиков С.Ф., Сафанов В.А. Биогеохимическая индикация микроэлементозов / Отв.ред Т.И. Моисенко. – Москва, 2018. – 386.

631.4

ПОЧВЕННО-ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ ИНДИКАТОРЫ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА (ГЛОБАЛЬНЫЙ И РЕГИОНАЛЬНЫЙ АСПЕКТЫ)

Апарин Б.Ф.[1,2], Сухачева Е.Ю.[*]
Пятина Е.В.[2], Кузьмина А.А.[**]

[*]Санкт-Петербургский государственный университет;
[**]Центральный музей почвоведения им. В.В. Докучаева — филиал ФГБНУ ФИЦ «Почвенный и институт имени В.В. Докучаева»

Аннотация. В статье рассматриваются почвенно-экологические индикаторы для оценки глобальных и региональных изменений климата. Подчеркивается центральная роль почв в мониторинге экосистем благодаря их буферности и способности сохранять следы долговременных воздействий. На основе многолетних данных с полигонов почвенно-экологического мониторинга в таежной, лесостепной и степной зонах России выявлена устойчивая тенденция к росту среднегодовой температуры. В качестве индикаторов климатических сдвигов предложены типоморфные, твердофазные и биогенные признаки почв, отклонения которых от нормы отражают изменения факторов почвообразования.

Ключевые слова: почва, изменение климата, почвенно-экологический мониторинг, почвенные индикаторы.

Средняя температура Земли в 2024 году впервые превысила доиндустриальный уровень на 1,55 °С, что вызвало рост общемировой озабоченности глобальным изменением климата и его последствиями. В связи с этим особую актуальность приобретают исследования почвенных индикаторов. Почвы в системе долговременного мониторинга экосистем занимают центральное положение [1].

· В почвах замыкаются геохимические, энергетические и вещественные потоки в экосистемах.

· Почва – это «долгоживущая» компонента экосистем, своеобразная память ландшафта.

· Почвы – консервативные системы. Они, благодаря высокой буферности, функционально устойчивы к кратковременным антропогенным воздейст-виям и колебаниям климата. После прекращения антропогенного воздействия при постоянстве климатической нормы почвы могут возвращаться в исходное состояние, при этом восста-навливается биоценоз.

· Почвы – полифункциональные природные тела, обеспечивающие стабильное состояние экосистем и их биоразнообразие.

Влияние климатических изменений на процессы почвообразования было отмечено еще В.В. Докучаевым и отражено в законе всеобщей функциональной связи элементов в природе. При решении вопросов прогнозирования изменения функций почв, при разных сценариях климата данный закон можно представить в виде следующего выражения:

$$\Delta П = f(ММ, \Delta Кл, ЭС) \cdot \Delta T$$

где ΔП – изменение параметров и функций почвы; ММ – минеральная матрица почвы; ΔКл – изменение климата; ЭС – экосистема; ΔТ – прогнозируемый период времени.

Из формулы видно, что климат оказывает на почвенные параметры

как прямое, так и опосредованное действие. Непосредственное влияние климата на почвы проявляется в изменении элементов энергетического баланса почвообразования, водного и теплового режимов, а также векторов перемещения продуктов органо-минеральных взаимодействий. Устойчивое изменение климатических параметров влечет за собой преобразование растительного покрова и параметров биологического круговорота веществ в экосистеме. Это, в свою очередь, оказывает прямое воздействие на почвы и почвенный покров.

Процесс почвообразования представляет собой сложную иерархическую систему профиле- и горизонтообразующих, элементарных почвенных процессов, а также процессов индивидуальной природы (биологических, физических, химических и механических). Различия между разноуровневыми процессами реализуются в характерном времени проявления и в соответствующей форме организации органо-минерального вещества почвы (профиль, горизонт, морфоны и другие твердофазные признаки). Причем для каждого отдельного генетического типа почв на всем периоде развития от онтогенеза до климаксной стадии свойственна определенная климатическая норма почвообразования, которая характеризуется среднемноголетними значениями температуры и осадков, суммой положительных температур, периодом биологической активности и коэффициентом увлажнения [2].

При достижении климаксного состояния и установления устойчивого равновесия с естественными факторами почвообразования почва приобретает строго определённый комплекс типоморфных признаков, проявляющихся в морфогенетическом типе строения, органо-гумусовом, солевом, агрегатном и кальциевом, кислотно-щелочном профилях, а также в твердофазных новообразованиях. Отклонение свойств почв от типоморфных характеристик является следствием изменений естественных факторов почвообразования, в первую очередь, среднемноголетней суммы температур и осадков, что позволяет рассматривать эти отклонения как индикаторы изменений климата. Скорость ответной реакции на изменение климата у почвенных индикаторов различная и обусловлена характерным временем процессов их формирующих.

По некоторым данным [4] в результате климатических изменений в последние десять тысяч лет на территории России трижды происходило смещение природных зон на сотни километров на север и юг. Поэтому исследование почвенных индикаторов необходимо проводить в разных природных зонах на полигонах почвенно-экологического мониторинга (ППЭМ), а сами исследования должны носить долгосрочный характер. При этом, почвенные индикаторы должны отвечать следующим требованиям:

1) иметь хорошо диагностируемые количественные (качественные) критерии, соответствующие конкретным факторам и типам почвообразования;

2) известное «характерное время» формирования маркирующих признаков (индикаторов);

3) соответствие строго определенным почвенным процессам, вызывающим изменения в почве.

Такие исследования проводятся нами в трех природных зонах: таежной зоне, Ленинградская область – ППЭМ «Лисино» (дерново-подзолистые, торфянисто-подзолистые почвы и др.), лесостепной зоне, Воронежская область – ППЭМ «Каменная степь» (черноземы типичные), и степной зоне, Волгоградская область – ППЭМ «Белые пруды» (черноземы южные) и ППЭМ «Козловский» (черноземы обыкновенные).

В каждой зоне проанализированы

данные многолетней изменчивости среднегодовой температуры воздуха и среднегодовой суммы осадков за более чем 100-летний период, полученные на ближайших к полигонам метеостанциях (Рис. 1).

Климат – колебательная циклическая система, в которой многолетний ход осадков и температуры подвержены закономерным изменениям, определяемым солнечной радиацией и циркуляционными процессами в атмосфере. Кривые многолетней изменчивости климатических параметров могут быть разделены на серии, представляющие собой последовательности идущих подряд лет, значения которых отклоняются от средней многолетней величины в меньшую или большую сторону. Полученные серии могут быть объединены в циклы различной продолжительности.




Рисунок 1. Многолетняя изменчивость температуры воздуха (слева) и годовой суммы осадков (справа) за период с 1900 г. по 2023 г. в различных природных зонах

Для многолетней изменчивости среднегодовой температуры воздуха для всех представленных природных зон характерно преобладание коротких серий, продолжительностью в среднем 1-4 года. Причем, теплые (с температурами выше многолетней средней) и холодные (с температурами ниже многолетней средней) серии в различных областях перекрываются. Отмечается еще одна общая тенденция – стойкое превышение многолетней среднегодовой температуры, начиная с 1998 года. Таким образом, можно сделать вывод о том, что тенденции многолетней изменчивости среднегодовых температур воздуха носят интразональный характер и имеет явный тренд к повышению.

Многолетняя изменчивость годовой суммы осадков также подвержена циклическим колебаниям (Рис.1), однако

четких закономерностей и общих трендов между различными природными зонами выявить не удалось.

Наличие закономерных циклических изменений метеоэлементов еще не означает, что происходит изменение траектории развития почвообразовательных процессов. На профилеобразующие процессы в первую очередь оказывает влияние однонаправленное устойчивое отклонение параметров от климатической нормы, которую получают осреднением климатологических данных, рассчитанных для последовательных 30-летних периодов, завершающихся годом, кончающимся нулем [3].

Сравнение климатических норм в ряду наблюдений с 1901 до 2020 гг. (Табл. 1) выявило тенденцию к увеличению климатической нормы среднегодовой температуры воздуха. Причем, увеличение климатической нормы за 30-летний период с 1991 по 2020 годы по сравнению с климатической нормой периода с 1901 по -1930 годы во всех природных зонах составило более 1,5 °С.

Таблица 1

Изменение климатической нормы среднегодовой температуры воздуха и годовой суммы осадков за период с 1900 г. по 2023 г. в различных природных зонах

Период, годы	Средняя многолетняя температуравоздуха, °С	Средняя многолетняя сумма осадков, мм
Таежная природная зона, ППЭМ «Лисино», Ленинградская область		
1901-1930	3,6	595
1931-1960	3,9	610
1961-1990	4,0	636
1991-2020	5,5	669
Лесостепная природная зона, ППЭМ «Каменная степь», Воронежская область		
1901-1930	5,2	496
1931-1960	5,6	436
1961-1990	6,0	507
1991-2020	7,3	508
Степная природная зона, ППЭМ «Белые пруды» и ППЭМ «Козловский», Волгоградская область		
1901-1930	5,8	439
1931-1960	5,7	407
1961-1990	6,4	457
1991-2020	7,5	438

В качестве индикаторов изменения климата использовали генетические типоморфные признаки почв, соответствующие климатической норме почвообразования, типу профилеобразующего процесса и типу экосистемы. Для мониторинга применялись 3 типа почвенных индикаторов: типоморфные, твердофазные и биогенные.

К типоморфным относятся морфогенетический профиль (морфологические параметры и твердофазные признаки), физические профили (плотность сложения, порозность, агрегатный и гранулометрический составы, гидрологический профиль), органо-гумусовый (гумусовый) профиль (Рис.2), химические профили (кислотно-щелочной, кальциевый, солевой, ППК, элементный состав).




Рисунок 2. Динамика содержания гумуса в пахотных почвах ППЭМ «Козловский»

К биогенным относятся растительный покров, биологическое разнообразие и таксономический состав, структура сообществ макропедофауны, микробиологическая и трофическая активность почвенной биоты (рис.3).

Материалы средне- (70 лет) и долгосрочных (более 120 лет) исследований типоморфных характеристик почв на полигонах почвенно-экологического мониторинга, данные по фауне и флоре, а также многолетней изменчивости климатических параметров позволяют определить тренды долгосрочного изменения почв под влиянием изменения климата.




Рисунок 3. Трофическая структура макрофауны почв ППЭМ «Козловский» (ПК) и ППЭМ «Белые Пруды» (ПБП)

Список использованных литературы:

1. Апарин Б.Ф., Бабиков Б.В., Касаткина Г.А., Минагреева Е.В., Сухачева Е.Ю., Тетюхин С.В. Полигоны почвенно-экологического мониторинга лесных экосистем таежной зоны. СПб.:Лань. 2022 – 140 с.

2. Апарин Б.Ф. Эволюционные модели плодородия почв. – СПб.: Издательство СПбГУ, 1997. – 292 с.

3. Руководящие указания ВМО по расчету климатических норм. – Всемирная метеорологическая организация. – №1203. – 2017. – С. 18-21.

4. Функционирование почв в меняющихся условиях окружающей среды / Терехова В.А., Шоба С.А. (отв. ред.) М.: ГЕОС, 2015. –164 с.

UO‘K: 631.4

SURXONDARYO VILOYATI SUG‘ORILADIGAN, LALMI VA YAYLOV TUPROQLARI, MONITORING TADQIQOTLARIDA ANIQLANGAN SALBIY HOLATLARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI

Ismonov Abduvaxob Jo‘rayevich,
bo‘lim mudiri, b.f.n.,
e-mail: abduvahob60@mail.ru
Kattayeva Gulnoza Norqulovna,
katta ilmiy xodim v.b., b.f.f.d.,
e-mail: gulnozakattaeva@ mail.ru
Mamajanova O‘ktamxon Xasanbayevna,
b.f.f.d (PhD). k.i.x.,
e-mail: mamajanova-1783@mail.ru

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Annotatsiya. Maqolada 2024-yili viloyatni sug‘oriladigan, lalmi va yaylov tuproqlarida o‘tkazilgan monitoring tadqiqotlarida aniqlangan holatlar bayon etilgan. Unga ko‘ra, viloyat tuproqlarda kechayotgan holatlar ya’ni, lalmi tuproqlar turli darajada eroziyasiga uchragan haydalma yerlar maydoni viloyat bo‘yicha 84,5% tashkil etib, sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarni qatlamlaridagi gumus miqdori o‘rtacha 0,20-1,20%, harakatchan kaliy 67-223 mg/kg va fosfor 5,2-20,2 mg/kg, lalmi to‘q tusli bo‘z tuproqlarning haydov qatlamida gumus miqdori o‘rtacha 1,0-1,23%, harakatchan fosfor o‘rtacha 6,39-19,72 mg/kg, harakatchan kaliy esa 48-194 mg/kg tashkil etganligi aniqlandi. Ayrim hududdagi tuproq qoplamlarida tahlikali jarayonlar vujudga kelganligi aniqlandi. Tuproq degradatsiya jarayonlari, viloyat tuproq qoplamlarida eng ko‘p uchraydigan salbiy holatlardan hisoblanishi kuzatildi.

Kalit so‘zlar: sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar, lalmi to‘q tusli bo‘z va tipik bo‘z tuproqlar, eroziya, yemirilish.

Аннотация. В статье описаны состояния, выявленные в ходе мониторинговых исследований, проведенных в 2024 году на орошаемых, залежных и пастбищных почвах региона. По нему ситуация с почвами региона, то есть площадь пахотных земель с различной степенью эрудированные пашенные почв составляет 84,5% области, а количество гумуса в слоях орошаемых луговых почв среднее содержание подвижного калия составляет 0,20-1,20%, подвижного калия 67-223 мг/кг и фосфора 5,2-20,2 мг/кг, среднее содержание гумуса 1,0-1,23%, подвижного фосфора 6,39-19,72 мг/кг и подвижного калия 48-194 мг/кг. Установлено, что в почвенном покрове некоторых регионов проявились опасные процессы. Отмечено, что процессы деградации почв являются одним из наиболее распространенных негативных явлений в почвенном покрове региона.

Ключевые слова: орошаемые луговые почвы, сухие темно-серые и типичные серые почвы, эрозия, размыв.

Annotation. This article describes conditions identified during monitoring studies conducted in 2024 on irrigated, fallow, and pasture soils in the region. According to it, the situation with the soils of the region, that is, the area of arable land with varying degrees of erudite arable soils is 84.5% of the region, and the amount of humus in the layers of irrigated meadow soils, the average content of mobile potassium is 0.20-1.20%, mobile potassium 67-223 mg/kg and phosphorus 5.2-20.2 mg/kg, average humus content 1.0-1.23%, mobile phosphorus 6.39-19.72 mg/kg and mobile potassium 48-194 mg/kg. It was established that dangerous processes have appeared in the soil cover of some regions. It has been noted that soil degradation processes are one of the most widespread negative phenomena affecting the region's soil cover.

Key words: irrigated meadow soils, dry dark gray and typical gray soils, erosion, washout.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 23-dekabrdagi 496-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, Respublikaning barcha qishloq xo‘jaligiga yaroqli yerlarida tuproq monitoring tadqiqot izlanishlari bajarilmoqda. Tuproq monitoringi tadqiqotlarini o‘tkazishning asosiy vazifalari, tuproqda kechayotgan barcha jarayonlarni rejimli kuzatuvlar asosida yuritish, tashkil etish orqali uni antropogen va boshqa omillar ta’sirida kechayotgan o‘zgarishini aniqlash, uning tuproq unumdorligiga ta’sirini o‘rganish, salbiy jarayonlarni belgilash va uni bartaraf etish chora tadbirlarini ishlab chiqishdan iborat [1].

O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi «tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit muhofazasini ta’minlash tizimini takomillashtirish» [2] hamda qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan.

Tadqiqot uslublari asosini, Respublikamizda nashr etilgan “Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo‘yicha yo‘riqnoma” [3], shuningdek, qiyosiy-geokimyoviy, laboratoriya-analitik hamda ma’lumotlarni matematik-statistik tahlili uslublari tashkil etadi. Dala sharoitida qo‘yilgan asosiy kesmalarda tuproq profilining morfologik tuzilishi va asosiy belgilari o‘rganildi, laboratoriya-analitik tadqiqotlar uchun tuproq va grunt suvlaridan namunalar olindi. Analitik tadqiqotlar O‘zPITI ning “Paxta maydonlarida tuproqlarning agrofizikaviy, agrokimyoviy va mikrobiologik xossalarini o‘rganish uslublari” [4], TAITIda ishlab chiqilgan, umumqabul qilingan uslublar asosida bajarildi.

Tadqiqot joyi va tabiiy sharoitlari. Surxondaryoning g‘arbiy va shimoliy-g‘arbiy qismida joylashgan baland tog‘lar, viloyatda o‘zgacha iqlimiy sharoit hosil qiluvchi omillardandir. Janubiy chegaradagi ochiqlik esa shimoliy, shimoliy-g‘arbiy havo oqimlarining viloyat hududiga kirib kelishi uchun „darvoza“ hisoblanadi. Viloyat iqlimi subkontinental, qishi iliq, yozi issiq va quruq bo‘ladi. Tekislik qismining iqlimi quruq subtropik. Yozi jazirama issiq va uzoq, qishi iliq va qisqa. Yillik o‘rtacha temperatura 16 —18 S°. Iyulning o‘rtacha temperaturasi 28-32 S°, yanvarda 2,8-3,6 S°. Havo haroratini ortishi Surxondaryoni daryo vodiy relyefi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, tekislik va cho‘l hududlarida yuqori tog‘, tog‘ oldi, tog‘ osti zonalarida biroz pastligi ko‘rinadi. Surxondaryo-Sherobod vodiysida havoning o‘rtacha harorati 15,9 S° -18,1 S° ni tashkil etadi. Bundan tashqari, viloyat tog‘lar orasidagi berk botiqda joylashganidan bu yerda yog‘in kam. Viloyatning janubiy tekisliklarida yiliga 130-140 mm, Hisor tog‘lari yon bag‘irlarida 445-625 mm yog‘in yog‘adi. Yog‘inning asosiy qismi qish va bahorda tushadi [5;6].

Tadqiqot natijalari va ular muhokamasi. 2024-yilda institut mutahassislari tomonidan Surxondaryo viloyatining lalmi, yaylov va sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi yer maydonlarida tarqalgan tuproqlarini [7] monitoring nuqtai nazardan, kompleks o‘rganish bo‘yicha katta hajmdagi tadqiqotlari amalga oshirildi. Tadqiqotlar joyi sifatida quyidagi: Surxondaryo viloyati Sherobod tumanidagi E.Berdiev nomli, Angor tumanidagi Sh.Rashidov nomli, Termiz tumanidagi Do‘stlik, Qumqo‘rg‘on tumanidagi S.Boymatov nomli, Sariosiyo tumanidagi I.Diyorov nomli, Uzun tumanidagi Guliston, Jarqo‘rg‘on tumanidagi Oqqo‘rg‘on, Denov tumanidagi Karimov nomli va Boysun tumanidagi Sayrob xo‘jaliklardan ajratilgan monitoring kalit maydonlarning statsionar ekologik maydon (SEM va YaSEM) larida o‘tkazildi.


Quyida viloyat hududlaridan ajratilgan asosiy tuproq guruhlardan keltirib ularni xossa-xususiyatlari bayon keltirigan:

*Jarqo‘rg‘on tumani «Oqqo‘rg‘on» massivi*dagi kalit maydon (KM) hamda ularda joylashgan SEM va YaSEM tuproqlari

allyuvial-prolyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan Surxon daryosining I-II qayir usti terrasalari geomorfologik rayonida joylashgan. KM tuproqlari sifatida eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar ajratildi. KM tuproqlarida yer osti suvlari sathi 1,5-2,0 m atrofida mavsumiy o‘zgarib turadi. Keyingi yillardagi sug‘orishlar natijasida, berk havzalarda yer osti suvlari harakati sekin joylarda uning sathi ko‘tarilib borib o‘tloqi tuproq shakllangan, bundan tashqari hudud daryo suvlari bilan avvallari yuvilib turgan. Bir metrdan quyida og‘ir, o‘rta qumoqlar tarkibida, qum qatlamlari uchrab qatlamli yotqiziqlar kuzatiladi [8].

Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarni mexanik tarkibi og‘ir, o‘rta va yengil qumoqli bo‘lib, yengil qumoqlar qatlamlar shaklida, qum va qumloqlar bilan almashib keladi. Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarni qatlamlaridagi gumus miqdori o‘rtacha 0,20-1,20%, harakatchan kaliy 67-223 mg/kg va fosfor 5,2-20,2 mg/kg ni, yalpi azot 0,054-0,080%, umumiy fosfor 0,142-0,33%, kaliy 0,93% dan 2,54% gachani tashkil etadi. O‘tkazilgan kimyoviy tahlillarda aniqlandiki, hudud va mintaqa sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlari gumus va oziqa unsurlari bilan kam darajada ta’minlangan [9] (Rasm).

KM ning sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlari kuchsiz darajada sho‘rlangan, sho‘rlanish tipi xlorid-sulfatli. O‘tloqi tuproqlarda yer osti suvlari harakatini ta’siri katta bo‘lishiga qaramasdan, bu tuproqlarda karbonatlar tuproqni haydov qatlamida o‘rtacha 8,0% ni tashkil etadi. Gipslar tuproq tarkibida sochilgan holda uchrab, ular miqdori o‘rtacha 1,8-3,03%. Eskidan sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar kesmasini quyi qatlamlarida zang dog‘lari, kulrang va sarg‘ish rangda qum to‘shamalari uchrashi aniqlandi.



Rasm. Gumus bilan ta’minlanganlik darajasi, (*haydov qatlamlari bo‘yicha*) % hisobida

Tuproqlar dehqonchilikda uzoq davrlardan foydalanib kelinganligidan, ayrim hududlarda agroirrigatsion qatlamlar 80sm gacha shakllangan [10]. KM joylashgan joy daryo vodiysiga hamohang ravishda janubga tomon biroz qiya, yer osti suvlari oqimi ham asosan, janubiy yo‘nalishda harakat qilishi hamda, keyinchali esa daryo o‘zaniga umumiy ravishda qo‘shilib ketishi aniqlandi. Tadqiqotlar davrida o‘tkazilgan izlanishlarda SEM va YaSEM tuproqlarida yer osti suvlari sathi 1,50-2,33 m atrofida uchraydi.

Boysun tumani «Sayrob» massivi hududining past tog‘lar va tog‘ oldi burmalangan qiyaliklarini, elyuvial, delyuvial jinslardan tashkil topgan geomorfologik rayoni kalit maydondagi SEM va YaSEMlar *lalmi to‘q tusli bo‘z tuproqlar*dan tanlangan.

To‘q tusli bo‘z tuproqlarni haydov qatlami jigarrang, kesakli-donador, karbonat bo‘lakchalari uchraydi, tuproq yuzasi qatqaloqlashgan. Kesma profili quyiga tomon och jigarrang tusga o‘tadi, kuchsiz nam, og‘ir va o‘rta qumoqli, mayda qirrali tosh bo‘laklari aralashgan, karbonat bo‘laklari uchraydi. Kesmada bir mertdan boshlab mayda kesakchalar, karbonat bo‘laklari, yer pillasi va mayda qirrali (delyuviall jinslar) toshlar uchraydi. To‘q tusli lalmi bo‘z tuproqlar atmosfera yog‘inlari bilan yetarli ta’minlangan, yog‘in miqdori ko‘pligidan, bu tuproqlar o‘rtacha darajada yemirilishga tortilgan. Haydov va haydov osti qatlamlari tuzlardan yuvilgan, pastki qatlamlarda kam bo‘lsa-da tuzlar mavjudligi ko‘rinadi. Bu tuproqlarda gips miqdori 1,07% dan 2,77% gachani tashkil etadi. Kabonatlar tuproqlar kesmasini yuzasida o‘rtacha 6,86-9,05%, tuproq profilini quyi qatlamlarida 7,1-8,5% tashkil qiladi [11]

Lalmi to‘q tusli bo‘z tuproqlarning haydov qatlamida gumus miqdori o‘rtacha 1,0-1,23%, gacha yetadi. Yalpi azot 0,066-0,104%, yalpi fosfor miqdori 0,107-0,312% atrofida, harakatchan fosforni miqdori tuproqning haydov qatlamida o‘rtacha 6,39-19,72 mg/kgni tashkil etib, bu tuproqlar fosfor bilan juda kam ta’minlangan tuproqlar toifasiga kiradi. Yalpi kaliy 0,88% dan 2,24% gacha, harakatchan kaliy esa 48-194 mg/kg, tashkil etadi. Bu tuproqlar harakatchan kaliy bilan kam ta’minlangan tuproqlar toifasiga mansub.

Boysun tumani “Sayrob” massivi hududidan tanlangan KM ning SEM va YaSEM tuproq qoplamlari, past tog‘lar va tog‘ oldi qiya tekisliklarini lyossimon, prolyuvial va delyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan geomorfologik rayonidagi *qo‘riq tipik bo‘z tuproqlardan* ajratildi. Tuproqni ustki qismi bo‘zrang ko‘rinishda bo‘lib, yuzasi quruq, quyiga tomon namlik ortib boradi. Bu tuproqlar asosan o‘rta qumoqli, sho‘rlanmagan. Bu tuproqlarda eroziya jarayonlari jadal davom etayotganligidan, karbonat zarrachalari tuproqlar qoplamini yuza qismlaridan boshlab uchraydi. Chimli qatlamlarida gumus miqdori 0-3 va 0-8 sm qatlamda 0,90-1,29% atrofida uchrab quyiga tomon kamayib boradi. Yalpi azot tuproqlarni chimli qatlamlarida o‘rtacha 0,47 - 0,104%, fosfor 0,175- 0,24%, kaliy 1,06- 1,821% atrofida uchrayda. Tuproqlar gipslashmagan [12].

Ushbu qo‘riq lalmi tuproqlarda yer osti hayvon izlari va inlari ko‘plab uchrab, efemer o‘simlik ildizlari chuqur kirib bormagan. Tuproq tarkibida karbonatlar sochilgan holatda uchraganligidan tuproq qatlamlari zichlashib ketgan. Quyi qatlamlarda nam qochgan. Hudud tuproqlarida namni kamligi tufayli, tuproqni yuza qismi o‘simliklar olami bilan kam qoplangan, natijada tuproqda yemirilish jarayonlari jadal davom etayotganligi kuzatildi [11; 13].

Xulosa. Surxondaryo viloyati statsionar ekologik maydon tuproqlari kimyoviy tahlil natijalari asosida, gumus miqdori bo‘yicha barcha tuproqlar o‘rtacha va kam ko‘rsatgichlarda, karbonatlar miqdoriga ko‘ra, asosan kuchsiz va o‘rtacha darajada karbonatlashgan, gips miqdorlari juda kam bo‘lib gipslashmagan tuproqlarga mansubligi kuzatildi.

Xulosa qilib aytganda, viloyat yerlarining qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan asosiy qismi tog‘ oldi va tog‘ osti, past va o‘rta balandlikda tog‘lar hududida joylashgan bo‘lib, sho‘rlanishga qarshi agromeliorativ tadbirlar katta hajmlarda talab etilmaydi, biroq bu hududlarda qishloq xo‘jaligini yuritishni chegaralovchi degradatsiya jarayonlari jumladan suv va irrigatsiya eroziyalari keng tarqalganligi aniqlandi.
Markaziy Farg‘ona sug‘oriladigan yerlardan foydalanishda inson omili, uzluksiz sug‘orish, sizot suvlarining ko‘tarilishi va agrotexnik tadbirlarning yetarli emasligi natijasida turli darajadagi degradatsiya jarayonlariga uchramoqda. Bu mintaqadagi o‘tloqi, o‘tloqi-saz va cho‘l-o‘tloqi tuproqlarda zichlanish, g‘ovaklikning kamayishi, ikkilamchi sho‘rlanish, turli darajada gipslanish, gumus miqdorining kamayishi kabi jarayonlar faol kechayotganini tasdiqlaydi [7]. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, tuproqlarning melorativ holatidagi har qanday salbiy o‘zgarish mintaqaning qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga, suv resurslarining cheklanishiga va sug‘oriladigan yerlardan samarali foydalanishga bevosita ta’sir ko‘rsatib, tuproqlarning morfogenetik va agrofizik xususiyatlarini ma’lum darajada o‘zgarishiga olib kelgan.

Tadqiqot ob’ekti. Tadqiqot ob’ekti sifatida Markaziy Farg‘onaning “O‘zbekiston” massivi sug‘oriladigan cho‘l-o‘tloqi, “F.Shamsiddinov” nomli massiv o‘tloqi-saz, “M.Topvoldiyev” nomli massiv o‘tloqi va “Xavasmand-Qorajiyda” massivi o‘tloqiga o‘tgan (avvalgi botqoq-o‘tloqi) tuproqlari tanlab olindi.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlar dala, laboratoriya va kameral sharoitlarda Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida umumqabul qilingan standart uslublar bo‘yicha amalga oshirilgan bo‘lib, izlanishlarda geografik, genetik, tarixiy-taqqoslash, litologik-geomorfologik, kimyoviy-analitik hamda profil usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida tuproq jarayonlari tez o‘zgarib, ko‘p xossalari turg‘unligini yo‘qotadi. Tuproqlarning meliorativ holati va unumdorlik darajasi avvalo ularning mexanik tarkibiga bevosita bog‘liq hisoblanadi [3, 7]. Sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitida tuproqda sodir bo‘ladigan fizik, kimyoviy va biologik jarayonlar esa doimiy o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lib, ko‘pgina xossalar qisqa muddat ichida o‘zgarishi hamda turg‘unligini yo‘qotishi mumkin [9, 4]. Tadqiqot hududi tuproqlari uchun xarakterli bo‘lgan hususiyatlar gumus va oziqa elementlarning kamligi hamda sho‘rlanganligi, sho‘h va arziq, gipsli qatlam mavjudligi hisoblanadi [2].

Tuproqning mexanik tarkibi ko‘p jihatdan uning unumdorlik salohiyatini belgilab beradi. Farg‘ona viloyatining Markaziy Farg‘ona hududida yarimgidromorf va gidromorf tuproqlar, jumladan, asosan o‘tloqi-saz va o‘tloqi, qisman cho‘l-o‘tloqi hamda o‘tloqiga

o‘tgan (avvlgi botqoq-o‘tloqi) tuproqlar tarqalgan bo‘lib, ularning mexanik tarkibi ham turlicha [8, 9].

Tadqiqotlar davomida o‘rganilgan o‘tloqi-saz, o‘tloqi hamda cho‘l-o‘tloqi tuproqlarning haydov va haydov osti qatlamlaridagi solishtirma og‘irlik, hajm og‘irlik va umumiy g‘ovakliklari aniqlandi. O‘rganilgan tuproqlarning hajm massasi (HM) har xil qiymatlarga ega. Bu holat tuproqda kechadigan jarayonlarning turli-tumanligini anglatadi, ya’ni mineral moddalar, organik va organo-mineral birikmalar miqdori, tuproqning strukturasi va boshqa omillar bilan izohlanadi. Sug‘oriladigan tuproqlarda hajm og‘irligi ancha farqlanib, ular o‘rtasida sezilarli darajada tafovut kuzatildi. Jumladan, solishtirma og‘irlik 2,58–2,69 g/sm^3, hajm og‘irlik 1,28–1,39 g/sm^3, govaklik 35–45 % oralig‘ida aniqlandi. Zichlikning ortishi natijasida, tuproqdagi havo almashinuvini cheklaydi va kislorod almashinuvi tanqisligi yuzaga keladi, ildizlarning chuqur kirib borishini kamaytiradi, hamda sho‘r yuvilish samarasi past bo‘ladi [8]. Ushbu holat esa, Markaziy Farg‘ona sug‘oriladigan tuproqlarining degradatsiya belgilaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

Tuproqdagi organik modda (gumus) miqdori uning mexanik tarkibi, sug‘orish davri va dehqonchilik madaniyatiga bog‘liq bo‘lib, bir qator xossalarini boshqarib turuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [5, 6].

Sug‘oriladigan gidromorf tuproqlar ichida o‘tloqi-saz tuproqlarda haydov qatlam qalinligi 24–34 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, gumus rangi yetib boradigan chuqurlik 34–56 sm gacha yetadi. Ushbu qatlamda gumus miqdori 0,693–1,342 % darajada bo‘lib, bir metrlik qatlamdagi gumus zahirasi 46,67–60,30 t/ga ni tashkil etdi. Shu tuproqlardagi tuzlar zahirasi nisbatan yuqori bo‘lib, 130,4–226,4 t/ga oralig‘ida o‘zgardi (1-jadval).

1-jadval.

O‘rganilgan hudud sug‘oriladigan tuproqlari tarkibidagi gumus va suvda oson eruvchi tuzlarning minimum va maximum ko‘rsatkichlari

T/r	Tuproqlar nomi	Sug‘oriladigan o‘tloqi-saz	Sug‘oriladigan o‘tloqiga o‘tgan	Sug‘oriladigan cho‘l-o‘tloqi	Sug‘oriladigan o‘tloqi
1	Haydov qatlam qalinligi, sm	24-34	25-32	30-37	24-27
2	Gumus rangi yetib boradigan chuqurlik , sm	34-56	32-82	37-80	27-45
3	Gumusli qatlamdagi gumus miqdori, %	0,693-1,342	0,648-1,586	0,526-0,923	0,640-1,341
4	Bir metrlik qatlamdagi gumusning zahirasi, t/ga	46,67-60,30	115,36-146,16	66,72-98,13	63,44-93,11
5	Bir metrlik qatlamdagi tuzlarning zahirasi, t/ga	130,4-226,4	146,9-170,6	96,7-124,8	152,3-175,5

Sug‘oriladigan o‘tloqiga o‘tgan tuproqlarda haydov qatlam qalinligi 25-32 sm, gumusli qatlam chuqurligi 32-82 sm, gumus miqdori 0,648-1,586 % bo‘lib, gumus zahirasi 115,36-146,16 t/ga darajada aniqlandi. Bu tuproqlardagi tuzlar zahirasi esa 146,9-170,6 t/ga ni tashkil qildi.

Sug‘oriladigan yarim gidromorf (cho‘l-o‘tloqi) tuproqlarda haydov qatlam qalinligi nisbatan kattaroq (30-37 sm) bo‘lib, gumus rangi 37-80 sm gacha yetadi. Biroq, gumus miqdori (0,526-0,923%) past bo‘lib, gumus zahirasining miqdori 66,72-98,13 t/ga ni tashkil etdi. Bu holat, avvalo, mexanik tarkibi qumlardan iborat ekanligi, ularda organik moddalarning minerallashishi nisbatan tez kechishi va gumus yig‘ilishiga sharoit cheklanganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, bu tuproqlarda tuzlar zaxirasi nisbatan kam bo‘lib, 96,7-124,8 t/ga atrofida qayd etildi.

Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarda gumusli qatlam qalinligi 24-27 smni tashkil etib, gumus rangi chuqurligi

27-45 sm bo‘lib, gumus miqdori 0,640-1,341 % atrofida tebranib turadi. Bir metrlik qatlamdagi gumus zahirasi 63,44-93,11 t/ga, tuzlar zahirasi esa 152,3-175,5 t/ga ekanligi aniqlandi (1-jadval).

Gumus bilan ta’minlanganlik darajasi bo‘yicha sug‘oriladigan cho‘l-o‘tloqi tuproqlarda – 0,390-0,923%, o‘tloqi-saz tuproqlarda – 0,308-1,342%, sug‘oriladigan o‘tloqi – 0,303-1,586% tuproqlar tomon ortib borishi qonuniyati yaqqol kuzatiladi. Buning isboti sifatida o‘rganilgan sug‘oriladigan tuproqlarning 0-1 metrlik qatlamidagi gumus zahirasini keltirish mumkin. Bunda cho‘l-o‘tloqida – 98,60 t/ga, o‘tloqiga o‘tib ulgurgan tuproqlarda – 120,2 t/ga va sug‘oriladigan o‘tloqi-sazda – 131,1 t/ga, o‘tloqi tuproqlarda – 129,8 t/ga oralig‘ida ekanligi aniqlandi (1-jadval).

Tahlil natijalariga ko‘ra, tadqiqot olib borilgan tayanch massivlar sug‘oriladigan tuproqlarining haydov qatlamida gumus miqdori 1,1–1,4 % ni, bir metrdan pastki qatlamlarda 0,3–0,5 % oralig‘ida kuzatildi. Umuman olganda, sug‘oriladigan tuproqlarda gumus zaxirasi tuproq namlanish sharoiti, organik qoldiqlar yig‘ilishi, tuproqda ushbu ekinlardan ko‘p miqdorda poxol hamda ildiz va ang‘iz qoldiqlarining to‘planishi, organik o‘g‘itlarni qo‘llash va minerallashish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda, gidromorf sharoitda organik moddalar ko‘proq to‘planishi kuzatilib, cho‘l-o‘tloqi tuproqlarda ularning miqdori nisbatan kam ko‘rsatkich qayd qilindi. Gumusning tuproqlardagi zaxirasi tuproq turi va gidrologik sharoitlarga bog‘liq ravishda o‘zgarib, sug‘oriladigan gidromorf tuproqlarda eng yuqori, sug‘oriladigan yarimgidromorf tuproqlarda esa eng past darajada kuzatildi.

Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarda yerlardan boshqa maqsadlarda foydalanish, ya’ni muntazam bug‘doydan keyin takroriy ekin sifatida sholi ekinini ekish, tuproqda ushbu ekinlardan ko‘p miqdorda poxol hamda ildiz va ang‘iz qoldiqlarining to‘planishi va organik o‘g‘it qo‘llash natijasida, tuproqning organik moddalari (gumus midorining ortishi) va suv-tuz tartibotining o‘zgarishi suvda oson eruvchi tuzlar zahirasining kamayishiga olib kelgan.

O‘rganilgan hududlardagi chorak asr davomidagi tadqiqotlar natijalari asosida uglerodning azotga (C:N) bo‘lgan nisbati aniqlandi. Jumladan, sug‘oriladigan cho‘l-o‘tloqi tuproqlarda C:N nisbati 1999-yilda 4,3 – 7,0 ni tashkil qilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu nisbat 4,9-7,4 ga ortgan. Sug‘oriladigan o‘tloqi-saz tuproqlarda mos ravishda 4,0-7,0 dan4,1-8,2 nisbatga ortganligi tahlil natijalaridan qayd qilindi. 1999–2023-yillarda o‘rganilgan barcha tuproq turlarida C:N nisbati ortishi kuzatilib, ekologik holati yaxshilanayotganidan dalolat beradi (2-jadval).

Yuqorida qayd qilinganlardan kelib chiqib, biz tomondan o‘rganilgan tuproqlarning “Hududlar ekologik holatini biogeokimyoviy baholash mezonlari” bo‘yicha baholandi [10]. Bunda tuproqlardagi uglerodning azotga bo‘lgan nisbati (C:N) sug‘oriladigan cho‘l-o‘tloqi va o‘tloqi tuproqlar asosan “favqulodda ekologik holat” (4-8) darajadagi guruhga mansub deb baholandi. Shuningdek, sug‘oriladigan o‘tloqiga o‘tib ulgurgan va o‘tloqi-saz tuproqlar “nisbatan qoniqarli holat” (8-20) darajadagi guruhga mansub ekanligi aniqlandi.

2-jadval.

O‘rganilgan hudud sug‘oriladigan tuproqlari uglerodning azotga (C:N) bo‘lgan nisbatining minimum va maksimum ko‘rsatkichlari

T/r	Tuproq nomi	C:N							
		min	max	min	max	min	max	min	max
		1999-yil		2010-yil		2017-yil		2023-yil	
1	Sug‘oriladigan cho‘l-o‘tloqi tuproqlar	4,3	6,9	4,4	7,0	4,6	7,1	4,9	7,4
2	Sug‘oriladigan o‘tloqi saz tuproqlar	4,0	7,0	4,6	7,1	4,6	7,1	4,1	8,2
3	Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar	4,2	7,0	4,3	7,1	3,9	7,3	5,1	8,0
4	Sug‘oriladigan o‘tloqiga o‘tgan tuproqlar	4,1	8,1	4,6	7,5	4,6	7,5	5,2	8,1

Ushbu holatlar Markaziy Farg‘onaning Farg‘ona viloyati hududidagi qishloq xo‘jaligi sug‘oriladigan yerlarida uglerodning azotga bo‘lgan nisbati ko‘rsatkichlari yarim gidromorfdan gidromorf tuproqlar tomon ortib borishi qonuniyati bo‘ysunishi va tuproqlar ekologik holatining yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.

Tayanch hududlar sug‘oriladigan tuproqlarida meliorativ holatning yomonlashishi va unumdorlikning pasayishiga sababchi bo‘lgan sho‘rlanish jarayonlari ham qayd qilindi. Tuproq meliorativ holatining yomonlashishi va unumdorligining pasayishiga olib keluvchi tuz to‘planishi va qayta sho‘rlanish jarayonlari o‘rganilgan hudud tuproqlarida ham qayd etildi. Shuningdek, barcha sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yerlarida sho‘rlanish darajasi turlicha ekanligi aniqlandi.

O‘rganilgan hudud tuproqlari turli darajada sho‘rlangan, sho‘hli, gips-arziqli qatlamlar mavjud bo‘lib, cho‘l zonasi uchun harakterli bo‘lgan o‘ziga hos xususiyatlarga ega [10].

O‘rganilgan tuproqlar haydov (0-30 sm) qatlamidagi zaharli va zaharsiz tuzlarning taqsimlanishi va ortib borishiga ko‘ra, quyidagi “ketma-ketlik zanjiri”ni o‘z ichida ifodalaydi. Jumladan, sug‘oriladigan o‘tloqi-saz tuproqlarning haydov qatlamlarida:

12-kesma – $CaSO_4 > Na_2SO_4 > MgSO_4 > MgCl_2 > Ca(HCO_3)_2$;

32-kesma – $CaSO_4 > Na_2SO_4 > MgSO_4 > MgCl_2 > Ca(HCO_3)_2$.

Mos ravishda sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarda:

6-kesma – $CaSO_4 > Na_2SO_4 > MgCl_2 > MgSO_4 > Ca(HCO_3)_2$;

9-kesma – $CaSO_4 > Na_2SO_4 > MgSO_4 > MgCl_2 > Ca(HCO_3)_2$.

Sug‘oriladigan cho‘l o‘tloqida:

1-kesma – $CaSO_4 > Na_2SO_4 > Ca(HCO_3)_2 > MgCl_2 > MgSO_4$;

9-kesma - $CaSO_4 > MgSO_4 > MgCl_2 > Na_2SO_4 > Ca(HCO_3)_2$.

Sug‘oriladigan o‘tloqiga o‘tgan tuproqlarda:

1-kesma – $CaSO_4 > MgSO_4 > Ca(HCO_3)_2 > Na_2SO_4 > MgCl_2$;

6-kesma – $CaSO_4 > Na_2SO_4 > MgSO_4 > MgCl_2 > Ca(HCO_3)_2$ tartibida joylashganligi aniqlandi. Ushbu holat quyi qatlamlarda ham takrorlanadi. Bu esa, tuzlarning oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining turg‘un holatda ekanligidan dalolat beradi (3-jadval).

3-jadval.

Sug‘oriladigan o‘tloqi-saz tuproqlarning tuzlar sifat tarkibi va miqdoriy ko‘rsatkichlari

Kesma №	Chuqurligi (sm)	$Ca(HCO_3)_2$	$CaSO_4$	Na_2SO_4	$MgSO_4$	$MgCl_2$	Tuzlar miqdori			Umumiy tuzlar miqdoriga nisbatan zaharli tuzlar ulushi, % hisobida
							Umumiy	Zaharli	Zaharsiz	
Sug‘oriladigan o‘tloqi-saz tuproqlar										
12	0-25	0,04	0,714	0,244	0,118	0,075	1,191	0,437	0,754	36,691
	25-40	0,04	0,476	0,353	0,076	0,085	1,03	0,514	0,516	49,881
	40-70	0,384	0,374	0,656	0,145	0,089	1,648	0,89	0,758	53,989
	70-108	0,032	0,891	0,304	0,104	0,098	1,428	0,506	0,923	35,423
	108-140	0,032	0,823	0,633	0,131	0,132	1,75	0,896	0,855	51,201
32	0-29	0,036	0,276	0,228	0,122	0,06	0,722	0,41	0,312	56,796
	29-43	0,028	0,384	0,31	0,075	0,07	0,867	0,455	0,412	52,454
	43-86	0,04	0,408	0,3	0,148	0,075	0,971	0,523	0,448	53,848
	86-121	0,028	0,656	0,335	0,121	0,085	1,224	0,541	0,684	44,183
	121-163	0,032	0,619	0,503	0,143	0,102	1,399	0,748	0,651	53,478
Sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlar										
6	0-25	0,028	0,649	0,314	0,051	0,105	1,147	0,47	0,677	40,99
	25-41	0,028	0,68	0,483	0,076	0,105	1,371	0,664	0,708	48,42
	41-81	0,028	0,666	0,338	0,152	0,091	1,275	0,581	0,694	45,56
	81-110	0,031	0,851	0,168	0,127	0,087	1,265	0,382	0,882	30,21

Kesma №	Chuqurligi (sm)	Ca (HCO3)2	CaSO4	Na2SO4	MgSO4	MgCl2	Tuzlar miqdori			Umumiy tuzlar miqdoriga nisbatan zaharli tuzlar ulushi, % hisobida
							Umumiy	Zaharli	Zaharsiz	
9	0-27	0,044	0,595	0,296	0,087	0,048	1,071	0,431	0,639	40,25
	27-42	0,047	0,508	0,592	0,079	0,055	1,281	0,726	0,555	56,69
	42-73	0,036	0,649	0,296	0,094	0,043	1,119	0,433	0,685	38,70
	73-109	0,036	0,497	0,592	0,113	0,02	1,258	0,725	0,533	57,65
Sug‘oriladigan cho‘l-o‘tloqi tuproqlar										
1	0-30	0,036	0,649	0,068	-	0,002	0,775	0,09	0,685	11,6
	30-50	0,04	0,646	0,015	0,189	0,015	0,905	0,219	0,686	24,2
	50-80	0,044	0,439	0,028	-	0,02	0,536	0,054	0,483	10,1
	80-110	0,044	0,371	0,008	-	0,002	0,445	0,03	0,415	6,7
9	0-37	0,029	0,74	0,037	0,095	0,078	0,979	0,21	0,769	21,4
	37-76	0,032	0,578	0,538	0,143	0,102	1,393	0,783	0,61	56,2
	76-110	0,029	0,597	0,497	0,123	0,075	1,322	0,695	0,626	52,6
	110-140	0,028	0,581	0,421	0,172	0,091	1,293	0,684	0,609	52,9
Sug‘oriladigan o‘tloqiga o‘tgan tuproqlar										
1	0-31	0,044	0,541	0,029	0,119	0,012	0,745	0,05	0,585	6,71
	31-48	0,06	0,493	0,004	0,175	0,015	0,746	0,194	0,553	25,996
	48-77	0,061	0,424	0,005	0,115	0,015	0,621	0,135	0,485	21,746
	77-107	0,036	0,361	0,003	-	-	0,396	0,04	0,397	10,1
6	0-32	0,028	0,282	0,157	0,139	0,047	0,653	0,343	0,31	52,547
	32-48	0,028	0,384	0,255	0,144	0,078	0,89	0,477	0,412	53,615
	48-82	0,035	0,719	0,42	0,114	0,098	1,385	0,632	0,754	45,632
	82-121	0,024	0,507	0,392	0,083	0,079	1,085	0,554	0,531	51,063
	121-147	0,032	0,891	0,751	0,138	0,126	1,937	1,015	0,923	52,4

Suvda oson eruvchi tuzlar zahiralari miqdorlari tuproq turlari va ularning foydalanish maqsadlariga qarab turlicha o‘zgargan. Sug‘oriladigan o‘tloqi va o‘tloqi-saz tuproqlarda tuzlar zahirasining ortishi kuzatilsa, cho‘l-o‘tloqi va o‘tloqiga o‘tgan tuproqlarda kamayish kuzatildi.

Tuzlar oqimi, yer osti suvlari sathi va tuproqlar sho‘rlanish darajasini kamaytirishga qaratilgan agrotexnik va agromeliorativ tadbirlar: chuqur yumshatish, an’anaviy yoki lazerli tekislash, sho‘rlanish darajasiga ko‘ra sho‘r yuvish, organik o‘g‘itlar qo‘llash, intensiv ishlov berish hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini yuritishda olib boriladigan tadbirlar suvda oson eruvchi tuzlar miqdorlarining kamayishiga xizmat qiladi

Tadqiqot olib borilgan tayanch massivlari sug‘oriladigan yer maydonlaridan samarali foydalanish, tuproqlar unumdorligini saqlash va qayta tiklashga qaratilgan agrotexnik, agromeliorativ va agrokimyoviy tadbirlarni tizimli amalga oshirilayotganligi, yer osti sizot suvlar sathi ko‘tarilib ketilishi oldi olinganligi, zovurlar ishchi holatda saqlanganligi natijasida suvda oson eruvchi tuzlar zahiralari ayrim massivlarda kamayishiga erishilgan [6].

Kelajakda sho‘rlanish xavfi yuzaga kelmasligi uchun sizot suvlar sathini kritik chuqurlikda saqlash, sifatli sho‘r yuvish tadbirlarni muntazam amalga oshirish lozim. Bunday yerlarning ekologik holatini saqlash uchun degradatsiya jarayonlarini oldini olishga, oqibatlarini yumshatishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqish zarur.

Xulosalar

1. Gumus zahirasi tuproq tiplari bo‘yicha keskin farqlandi. Gidromorf o‘tloqi-saz tuproqlarda gumus zahirasi 131 t/ga gacha yetgan bo‘lsa, cho‘l-o‘tloqi tuproqlarda bu ko‘rsatkich 66–98 t/ga atrofida kuzatilib, ushbu holat minerallashish tezligi, organik qoldiqlar miqdori va sug‘orish hamda sizot suvlarining ta’siri bilan bog‘liq bo‘lib, gumus miqdori yarim gidromorf tuproqlardan

gidromorf tuproqlar tomon ortib borish qonuniyatiga bo‘ysunadi.

2. 1999–2023-yillarda o‘rganilgan barcha tuproq turlarida C:N nisbati 0,3–1,2 barobarga ortib borgan, ushbu holat sug‘oriladigan tuproqlarda organik modda aylanishi tiklanayotganini va agrotexnik tadbirlar samara berganini ko‘rsatadi hamda, C:N nisbatining ortishi uglerodning azotga bo‘lgan nisbati ko‘rsatkichlari yarim gidromorf > gidromorf tuproqlar tomon ortib borishi qonuniyati bo‘ysunishi va tuproqlar ekologik holatining yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.

3. Sho‘rlanish jarayonlari degradatsiyaning asosiy omillaridan biri hisoblanib, tuzlar zahirasining ustunligi cho‘l-o‘tloqi > o‘tloqiga o‘tgan > o‘tloqi > o‘tloqi-saz tuproqlar tomon ortib borishi ketma-ketligi kuzatilib, gidromorf tuproqlarda tuzlar zahirasi 226 t/ga gacha ortishi, sho‘rlanish jarayoni hali ham faolligini ko‘rsatadi.

4. Tuproq sho‘r yuvish tadbirlarini samarali olib borilishi, yerlarni lazerli tekislash va organik o‘g‘itlarni qo‘llash natijasida suvda yeruvchi tuzlarning kamayishiga, gumus miqdorining ortishiga hamda, tuproqlarning ekologik holatini yaxshilanib borishiga erishilgan bo‘lsa-da, degradatsiya jarayonlarini oldini olish va oqibatlarini yumshatish uchun bu tadbirlarni tizimli va muntazam ravishda amalga oshirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining yer fondi. 18.10.2021 yil. https://kadastr.uz/uz/yer-hisobi-yo’nalishi.

2. Abduraxmonov N.Yu., Mansurov Sh.S. Tuproq unumdorligi va qishloq xo‘jaligi ekinlar hosildorligini oshirishning zamonaviy-innovatsion texnologiyalari muammo va yechimlar. Ilmiy-amaliy anjuman, – Buxoro 2021. – B. –14-20.

3. Abduraxmonov N.Yu., Sobitov O.T., Qalandarov N.N., Pulatov M.K. Markaziy Farg‘ona sug‘oriladigan cho‘l-o‘tloqi tuproqlarining xossalari va unumdorligi // O‘zbekiston zamini. – Toshkent, 2024. – №3. – B. – 14–17.

4. Abduraxmonov N.Yu., Pulatov M.K., Sobitov O‘.T. Markaziy Farg‘ona sug‘oriladigan tuproqlarining xossalari va unumdorligi / Innovative developments and research in education. International scientific-online conference. – Canada, Ottawa, 2021. – P. –3 33-337.

5. Abduraxmonov N.Yu., Pulatov M.K., Sobitov O‘.T., Mansurov Sh.S., Yuldashev I.Q. Markaziy Farg‘ona sug‘oriladigan o‘tloqi va o‘tloqi-saz tuproqlarining meliorativ holati va unumdorligi / “Intellectual education technological solutions and innovative digital tools international scientific-online conference” colletions of scientific works. – Amsterdam, 2022, №8. – B. – 24-29.

6. Axmedov A.U., Turdaliyev J.M., Parpiyev G‘.T., Ismonov A.J. Yer osti sizot suvlarining Farg‘ona vodiysi gidromorf tuproqlari xossalari va morfogenetik hususiyatlariga ta’siri. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. – Toshkent, ToshDAU, 2013. – B. – 126-130.

7. Qo‘ziev R.Q., Abduraxmonov N.Yu. Sug‘oriladigan tuproqlarning evolyusiyasi va unumdorligi. Monografiya. – Toshkent, 2015. – 212 b.

8. Qurvantayev R., Turg‘unov M.M. Qishloq xo‘jaligi yerlaridan samarali foydalanish, lazerli tekislash orqali tuproq xossalarini yaxshilash bo‘yicha tavsiyanoma. – Toshkent, 2019. –1 7 b.

9. Sobitov O‘.T., Pulatov M.K., Yuldoshev I.Q., Abduraxmonov N.Yu. Markaziy Farg‘ona sug‘oriladigan o‘tloqi-saz tuproqlarining umumiy fizik xossalari // Tuproqshunoslik va agrokimyo. – Toshkent, 2022. – №3. – B. 53–57.

10. Уермаков В.В., Тютиков С.Ф., Сафонов В.А. Биогеохимическая индикация микроэлементов / Отв. ред. Т.И.Моисеенко. – Москва, 2018. –311 с.

UDK: 631.4:504.5(575.1)

SUG‘ORILADIGAN TIPIK BO‘Z TUPROQLARDA ISHQORIY VA ISHQORIY-YER METALLAR GEOKIMYOSI

Isag‘aliyev Murodjon To‘ychiboyevich,
Biologiya fanlari doktori, professor
e-mail: murodjon-isa@mail.ru
Qo‘chqorov Bobirbek Mamasamin o‘g‘li,
tayanch doktorant
e-mail: quchqorovbobir0@gmail.com
Aktamov Muhammadnumonjon Iqrorjon o‘g‘li,
tayanch doktorant
e-mail: m.n.aktamov@gmail.com

Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Quvasoy sement zavodi ta’sir zonalarida joylashgan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarda ishqoriy (Na, K, Rb, Cs) va ishqoriy-yer (Ca, Sr, Ba) metallarining geokimyoviy xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqotlarda sement zavodidan 100, 500, 1000 va 10000 m (fon) masofalarda joylashgan tuproq kesmalarining turli genetik gorizontlari va chuqurliklaridan namuna olindi. Ishqoriy va ishqoriy-yer metallarning miqdoriy o‘zgarishi fon hududiga nisbatan 100-500 m zonalarda nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turdi. Ayrim elementlarning (K va Ca) tuproqning yuqori qatlamlarida, zavodga yaqin hududlarda texnogen to‘planish tendensiyasi aniqlandi. Na, Rb va Cs elementlarining taqsimoti texnogen omildan ko‘ra sug‘orish sharoitlari, agrotexnik tadbirlar va tuproq hosil qiluvchi ona jinslarning mineralogik tarkibi bilan kuchliroq bog‘liq ekani ko‘rsatildi.
Kalit so‘zlar: tuproq geokimyosi, sement zavodi, ishqoriy metallar, ishqoriy-yer metallar, natriy, kaliy, rubidiy, seziy, kalsiy, stronsiy, bariy, texnogen ifloslanish, tipik bo‘z tuproq.

Аннотация. В данной статье изучены геохимические особенности щелочных (Na, K, Rb, Cs) и щелочноземельных (Ca, Sr, Ba) металлов в орошаемых типичных сероземах, расположенных в зоне влияния Кувасайского цементного завода. В ходе исследований отбирались образцы из различных генетических горизонтов и глубин почвенных разрезов на расстояниях 100, 500, 1000 и 10 000 м (фон) от завода. Установлено, что содержание щелочных и щелочноземельных металлов на расстояниях 100–500 м в целом выше по сравнению с фоновой зоной. Выявлена тенденция техногенного накопления отдельных элементов (K и Ca) в верхних слоях почв на территориях, примыкающих к заводу. Показано, что распределение Na, Rb и Cs в большей степени определяется условиями орошения, агротехническими приёмами и составом почвообразующих пород, чем непосредственным техногенным воздействием.
Ключевые слова: геохимия почв, цементный завод, щелочные металлы, щелочноземельные металлы, натрий, калий, рубидий, цезий, кальций, стронций, барий, техногенное загрязнение, типичный серозем.

Annotation. This article investigates the geochemical behavior of alkali (Na, K, Rb, Cs) and alkaline-earth (Ca, Sr, Ba) metals in irrigated typical sierozem soils located within the impact zone of the Kuvasay Cement Plant. Soil samples were collected from various genetic horizons and depths of soil profiles situated at distances of 100, 500, 1000, and 10000 m (background) from the plant. The contents of alkali and alkaline-earth metals were generally higher at 100-500 m compared to the background site. A tendency toward technogenic accumulation of some elements (K and Ca) was observed in the upper soil layers in areas adjacent to the plant. The distribution of Na, Rb, and Cs was found to be more strongly controlled by irrigation regime, agrotechnical practices, and the mineralogical composition of parent materials than by direct technogenic inputs.
Key words: soil geochemistry, cement plant, alkali metals, alkaline-earth metals, sodium, potassium, rubidium, cesium, calcium, strontium, barium, technogenic pollution, typical sierozem.

Kirish. Farg‘ona vodiysi aholi zichligi yuqori bo‘lgan, sug‘orma dehqonchilik intensiv rivojlangan hudud bo‘lib, bu yerda faoliyat yurituvchi sanoat korxonalari tuproq qoplamiga sezilarli texnogen yuklama keltirib chiqaradi. Vodiyning yirik sanoat markazlaridan biri bo‘lgan Quvasoy shahrida joylashgan sement zavodi atmosfera havosiga turli miqdorlarda chang va gaz aralashmalarini chiqaradi. Sanoat chiqindilarning tuproq unumdorligiga, xususan geokimyoviy xususiyatlariga ta’sirini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar bugungi kunda izlanishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Jumladan, sement changi tarkibida kalsiy, kaliy, natriy oksidlari va boshqa birikmalar mavjudligi, ularning tuproqqa tushishi, tuproqning kimyoviy xossa-xususiyatlari, xususan, ishqoriylik darajasi (pH), singdirish sig‘imi hamda ozuqa tartibotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan [9, 4].

Bu jihatdan, tabiatan yuqori karbonatliligi bilan ajralib turadigan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar sharoitda sement changining muntazam tushishi tabiiy geokimyoviy fonda qo‘shimcha o‘zgarishlar keltirib chaqaradi. Tuproqning og‘ir metallar (Pb, Cd, Zn va boshqalar) bilan ifloslanishi ko‘plab ishlar markazida bo‘lgan bo‘lsada [2, 4], sement sanoati changining tuproq unumdorligi, fizik-kimyoviy xossalari, xususan, geokimyosiga ta’siri asosiy makroelementlar, ishqoriy metallar (Na, K, Rb, Cs) hamda ishqoriy-yer metallari (Ca, Sr, Ba) misolida yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan.

Shu munosabat bilan Quvasoy sement zavodi ta’sir zonalaridagi sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarda Na, K, Rb, Cs, Ca, Sr va Ba elementlarining tuproq profili bo‘ylab vertikal va zavoddan uzoqlashish bo‘yicha gorizontal taqsimlanish qonuniyatlarini, shuningdek, ularning tuproq klarkiga nisbatan boyish yoki kambag‘allashish darajasini aniqlash asosiy vazifa sifatida belgilandi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot usullari. Sement sanoati chiqindilarining tuproqqa ta’siri bo‘yicha olib borilgan ko‘plab ilmiy izlanishlar sement changi tushishi natijasida tuproq muhitining keskin ishqoriylashuvi (pH ortishi), karbonatlarning ko‘payishi hamda, Ca va K ning to‘planishi asosiy geokimyoviy tendensiyalar ekanini ko‘rsatadi [8, 4]. Natijada fosfor va ba’zi mikroelementlarning (Fe, Mn, Zn va b.) o‘zlashtirilishi murakkablashib, o‘simliklar uchun ozuqa rejimi buzilishiga olib keladi [4, 3].

Ishqoriy-yer metallari (Ca, Sr, Ba) ko‘pincha bir-biri bilan assotsiatsiyada taqsimlanadi. Buning sababi ularning ion radiuslari va kimyoviy xossalarining yaqinligi bo‘lib, karbonat va sulfat fazalarda ularning birgalikda cho‘kishiga olib keladi. Xuddi shuningdek, Rb va Cs geokimyoviy jihatdan K ga yaqin bo‘lgani sababli ko‘pincha sluda va boshqa sludali minerallar tarkibida hamda loy-gumus kompleksida K bilan birga fiksatsiyalanadi [3, 5].

O‘zbekistonning sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarida texnogen ta’sir, irrigatsiya jarayonlari (suv sifati, sho‘rlanish darajasi, yuvilish rejimi) va agrotexnik tadbirlar bilan qo‘shilib murakkab geokimyoviy manzarani shakllantiradi [2, 6, 7]. Bunday sharoitda elementlarning migratsiyasi nafaqat atmosferadan tushayotgan chang miqdori va tarkibiga, balki sug‘orish suvlarining kimyoviy tarkibi, tuproqning granulometrik va mineralogik xususiyatlari hamda meliorativ holatiga ham bevosita bog‘liq bo‘ladi [2, 1].

Tadqiqot obyekti sifatida Quvasoy sement zavodining shimoliy yo‘nalishi bo‘ylab joylashgan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlar tanlandi. Namuna olish zavoddan 100, 500, 1000 va 10000 m masofalarda joylashgan tuproq kesmalarining genetik gorizontlari va turli chuqurliklaridan amalga oshirildi. 10000 m (10 km) masofadagi kesma sement changi ta’siri minimal bo‘lgan fon (nazorat) hududi sifatida qabul qilindi.

Tuproq namunalari quritilib, elaklardan o‘tkazilgach, zamonaviy fizik-kimyoviy usul – masspektrometriya (ICP-MS) va rentgen-fluoresent (XRF) tahlil usullari yordamida Na, K, Rb, Cs, Ca, Sr va Ba elementlarining umumiy miqdori aniqlandi. Ushbu maqolada aynan shu elementlar bo‘yicha olingan natijalar geokimyoviy tahlil va muhokama uchun ajratib olindi.

Tuproq klarki qiymatlari quyidagicha qabul qilindi (mg/kg): Na – 6300; K – 13000; Rb – 100; Cs – 5; Sr – 300; Ba – 500; Ca – 13700 [10]. Ushbu qiymatlar asosida konsentratsiya klarki (KK) hisoblandi va elementlarning fon tuproqlarga nisbatan boyish yoki kambag‘allashish darajasi baholandi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Olingan ma’lumotlar ishqoriy (Na, K, Rb, Cs) va ishqoriy-yer (Sr, Ba, Ca) elementlarining tuproq profilida sement zavodidan uzoqlashish bo‘yicha va genetik qatlamlar bo‘ylab ham turlicha taqsimlanganini ko‘rsatdi (1-jadval).


1-jadval.

Tipik bo‘z tuproqlarda ishqoriy va ishqoriy-yer metallarning masofa va chuqurliklar bo‘yicha taqsimoti, mg/kg

Masofa, m	Chuqurligi, sm	Ishqoriy metall				Ishqoriy-yer metall		
		Na	K	Rb	Cs	Sr	Ba	Ca
100	0-26	7100	19600	96,7	5,4	228	580	10770
	26-48	5300	20900	96,3	5,3	102	468	90100
	48-58	3850	18800	96,3	5,4	212	520	10130
	58-79	4960	18100	99,4	6,6	230	634	11460
	79-112	4100	15000	89,1	6,1	307	575	11330
500	0-5	7100	17100	88,5	6,6	368	653	10480
	5-10	7100	16300	93,2	6,6	320	658	10390
	10-20	7700	14805	95,7	7,3	375	720	10700
	30-45	9200	20900	101	12,1	241	763	10070
1000	0-5	9010	17600	92,1	6,1	320	1050	10300
	5-10	9400	19400	92,4	5,8	296	806	90090
	10-20	8200	16900	94,2	5,6	274	690	90330
	30-45	7800	18550	103	7,9	342	822	10200
10000	0-35	9020	15400	102	6,8	288	817	10025
	35-46	7900	18800	93,3	6,9	371	756	10240
	46-82	8600	17700	106	7,1	287	692	10460
	82-115	10300	18100	93,8	5,3	266	645	10490
	115-130	10500	17500	89,3	5,3	233	563	90370
Tuproq klarki		6300	13000	100	5	300	500	13700

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra natriy miqdori 3850 dan 10500 mg/kg gacha o‘zgarib, eng past qiymat 100 m masofadagi 48-58 sm qatlamda (3850 mg/kg), eng yuqori ko‘rsatkichlar esa 10000 m masofadagi chuqur qatlam-larda (82-130 sm) 10300–10500 mg/kg diapazonda qayd etildi. Bu yuqori gipsomitrik balandliklan nisbatan past tomon migratsiyalanishi, chuqur qatlamlarda esa irrigatsion suvlar bilan keladigan tuzlarning ikkilamchi to‘planishi sodir bo‘layotganidan dalolat beradi.

Kaliy miqdori esa barcha masofalar va qatlamlarda 14805-20900 mg/kg oralig‘ida bo‘lib, tuproq klarki qiymatiga nisbatan doimiy ravishda yuqori. Eng yuqori qiymatlar 100 m (26-48 sm qatlam) va 500 m masofalara (30-45 sm qatlam)da 20900 mg/kg gacha yetadi. Ushbu qatlamlar sement changi, kaliyli o‘g‘itlar va nisbatan ko‘proq il fraksiyasi ta’siri ostida shakllanganligini aks ettiradi.



1-rasm. Tipik bo‘z tuproqlarda ishqoriy va ishqoriy-yer metallarning masofa va chuqurliklar bo‘yicha taqsimoti, mg/kg

Rubidiy va seziy miqdoriga e’tibor beradigan bo‘lsak, Rb miqdori 88,5-106 mg/kg, Cs esa 5,3-12,1 mg/kg diapazonda o‘zgaradi. Rb bo‘yicha vertikal hamda gorizontal farqlar katta emas, bu uning asosan litogen manbaga bog‘liqligini va K bilan birga slyudali minerallarda barqaror fiksatsiyalanishini ko‘rsatadi. Cs esa ayrim qatlamlarda, xususan 500 m masofadagi 30-45 sm qatlamda (12,1 mg/kg) nisbatan yuqori konsentratsiyalarga ega bo‘lib, bu qatlamda gilli-gumus kompleksi yaxshi rivojlanganini va Cs ning kuchli adsorbsiyalanishini aks ettiradi.

Stronsiy miqdori 102-375 mg/kg oralig‘ida. Eng past qiymatlar 100 m masofadagi 26-48 sm qatlamda (102 mg/kg), eng yuqori qiymatlar esa 500 m va 10 000 m masofalardagi o‘rta qatlamlarda (375 va 371 mg/kg) qayd etildi. Bu Sr ning karbonatli fazalar va sement changi bilan bog‘liqligini, sug‘orish jarayonlari esa uni qisman yuvish va qayta taqsimlashda muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi.

Bariy miqdori 468-1050 mg/kg diapazonda bo‘lib, 1000 m masofadagi 0-5 sm (1050 mg/kg) va 30-45 sm (822 mg/kg) qatlamlarda yuqori konsentratsiyalar bilan ajralib turadi. Bu Ba ning sement changi bilan barit va boshqa Ba-tutuvchi fazalar ko‘rinishida aerotexnogen kirib kelishi hamda yuqori sorbsiya sig‘imli gorizontlarda adsorbsiyalanish ehtimolini kuchaytiradi.

Kalsiy 10070-11330 mg/kg diapazonda bo‘lib, karbonatli tipik bo‘z tuproqlarga xos yuqori fonni tasdiqlaydi. Eng yuqori qiymatlar 100 m masofadagi 0-26 va 79-112 sm qatlamlarda hamda 10 000 m kesmadagi 0-35 sm qatlamda qayd etilgan. Biroq Ca ning profil bo‘yicha taqsimoti nisbatan tekis bo‘lib, bu karbonatlarning butun profil bo‘ylab keng tarqalganligini ko‘rsatadi.

Masofa omilini baholaganda, ishqoriy va ishqoriy-yer metallarning yalpi miqdorlarida qat’iy bir yo‘nalgan gradient kuzatilmaydi. 100, 500 va 1000 m zonalarda ayrim elementlar (K, Ba, Cs) o‘rta gorizontlarda yuqori qiymatlar bilan ajralib turadi, 10000 m masofada esa Na, K va Ba ning ma’lum darajada yuqoriligi qayd etildi. Bu elementlar taqsimotida uchta asosiy omil, litogen asos (lyoss va karbonatli ona jinslar), irrigatsion rejim hamda sement sanoati changining aerotexnogen tushishi birgalikda ro‘l o‘ynayotganini ko‘rsatadi.

Tuproq klarki qiymatlaridan (Na 6300; K 13000; Rb 100; Cs 5; Sr 300; Ba 500; Ca 13700 mg/kg) foydalanib

hisoblangan konsentratsiya klarki (KK) ko‘rsatkichlari tipik bo‘z tuproqlarda ishqoriy va ishqoriy-yer metallarning global fon qiymatlarga nisbatan boyish yoki kambag‘allashish darajasini baholash imkonini berdi (2-jadval).


2-jadval.

Tipik bo‘z tuproqlarda ishqoriy va ishqoriy-yer metallar konsentratsiya klarki (KK)

Masofa, m	Chuqurligi, sm	Ishqoriy metall				Ishqoriy-yer metall		
		Na	K	Rb	Cs	Sr	Ba	Ca
100	0-26	1,13	1,51	0,97	1,08	0,76	1,16	0,93
	26-48	0,84	1,61	0,96	1,06	0,34	0,94	0,81
	48-58	0,61	1,45	0,96	1,08	0,71	1,04	0,81
	58-79	0,79	1,39	0,99	1,32	0,77	1,27	0,91
	79-112	0,65	1,15	0,89	1,22	1,02	1,15	0,97
500	0-5	1,13	1,32	0,89	1,32	1,23	1,31	0,93
	5-10	1,13	1,25	0,93	1,32	1,07	1,32	0,91
	10-20	1,22	1,14	0,96	1,46	1,25	1,44	0,89
	30-45	1,46	1,61	1,01	2,42	0,80	1,53	0,74
1000	0-5	1,43	1,35	0,92	1,22	1,07	2,10	0,88
	5-10	1,49	1,49	0,92	1,16	0,99	1,61	0,83
	10-20	1,30	1,30	0,94	1,12	0,91	1,38	0,83
	30-45	1,24	1,43	1,03	1,58	1,14	1,64	0,89
10000	0-35	1,43	1,18	1,02	1,36	0,96	1,63	0,80
	35-46	1,25	1,45	0,93	1,38	1,24	1,51	0,82
	46-82	1,37	1,36	1,06	1,42	0,96	1,38	0,76
	82-115	1,63	1,39	0,94	1,06	0,89	1,29	0,77
	115-130	1,67	1,35	0,89	1,06	0,78	1,13	0,76

Natriyning KK 0,61-1,67 oralig‘ida tebranadi. 100 m kesmadagi 48-58 sm qatlamda Na ning fon qiymatdan sezilarli pastligi (0,61) qayd etilgan bo‘lsa, 10000 m masofadagi quyi qatlamlarda (82-130 sm) 1,63-1,67 gacha oshgan. Bu yuqori qatlamlardan ostki qatlamlar tomon sug‘orish ta’sirida yuvilishi va ikkilamchi sho‘rlanish hisobiga qayta to‘planish jarayonlari natijasi ekanini ko‘rsatadi.

Kaliy bo‘yicha KK 1,14-1,61 diapazonda bo‘lib, barcha kesmalarda tuproq klarkiga nisbatan barqaror boyish kuzatiladi. 100 va 500 m masofalardagi o‘rta qatlamlarda KK 1,61 gacha yetgani K ning tipik bo‘z tuproqlarda yuqori litogen foniga, shuningdek uzoq muddatli sug‘orish va kaliyli o‘g‘itlar qo‘llanilishi ta’siriga ishora qiladi. KK >1 bo‘lgan barqaror fon bu hududda K bo‘yicha tabiiy-texnogen boyish zonasi shakllanganini anglatadi. Buni quyidagi 2-rasmdan ham aniq ko‘rish mumkin.



2-rasm. Tipik bo‘z tuproqlarda ishqoriy va ishqoriy-yer metallari KK

Rubidiy uchun KK 0,89-1,06 oralig‘ida bo‘lib, ko‘rsatkichlar asosan 1 ga juda yaqin. Bu Rb ning K bilan geokimyoviy yaqinligini, sludali minerallarda birgalikda fiksatsiyalanishini va asosan litogen nazorat ostida ekanini ko‘rsatadi. Texnogen omil Rb taqsimotida ikkilamchi rol o‘ynaydi.

Seziy elementining KK 1,06-2,42 diapazonda bo‘lib, barcha qatlamlarda tuproq klarkidan yuqori. Ayniqsa, 500 m masofadagi 30-45 sm qatlamda Cs ning konsentratsiyasi 2,42 gacha oshgan. 1000 va 10000 m kesmalarda ham 1,06-1,58 oralig‘ida barqaror konsentratsiyalanishi kuzatildi. Bu seziyning gumus kompleksi rivojlangan gorizontlarda kuchli sorbsiyalanishi hamda texnogen manbalardan kelayotgan nisbatan kichik miqdorlarning ham tez fiksatsiyalanishini ko‘rsatadi. Shu bois Cs ushbu hududda texnogen yuklamani aks ettiruvchi nozik indikator sifatida qarash imkonini beradi.

Stronsiyning KK 0,34-1,25 oralig‘ida o‘zgarib, eng past qiymat 100 m masofadagi kesmaning 26-48 sm qatlamida (0,34), eng yuqori qiymatlar esa 500 va 10000 m kesmalarning ayrim qatlamlarida (1,23-1,25) qayd etildi. Ko‘pchilik qatlamlarda KK <1 bo‘lishi stronsiyning fon qiymatdan past yoki unga yaqin ekanini bildiradi. Stronsiyning karbonatlar miqdori bilan bog‘liqligi, sug‘orish sharoitida karbonatlarning qisman yuvilishi va qayta cho‘kish jarayonlari uning vertikal qayta taqsimotida asosiy omil bo‘layotganini anglatadi.

Bariy bo‘yicha KK 0,94-2,10 oralig‘ida bo‘lib, ayrim qatlamlarda sezilarli boyish kuzatildi. 1000 m masofadagi 0-5 sm qatlamda KK 2,10, 10000 m kesmadagi 0-35 va 35-46 sm qatlamlarda esa 1,38-1,63 atrofida. Bu bariyning sement changi bilan birga kirib kelishi va tuproqning yuqori qatlamlaridagi temir-marganets oksidlari hamda gilli minerallarda fiksatsiyalanishini tasdiqlaydi. Ba bo‘yicha KK >1 bo‘lgan hududlar sement sanoati texnogen ta’siri bilan qisman mos tushadi.

Kalsiyning konsentratsiya klarki 0,74-0,97 diapazonda bo‘lib, barcha qatlamlarda 1 dan kichik. Demak, karbonatli sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarda kalsiyning mutloq miqdori yuqori bo‘lishiga qaramay, global tuproq klarkiga nisbatan “ortiqcha boyish” kuzatilmaydi. Sug‘orish sharoitida karbonatlarning qisman yuvilishi va profil bo‘ylab qayta kristallanishi fonida sement changidan tushayotgan qo‘shimcha Ca umumiy fonni sezilarli darajada oshira olmagan, ya’ni Ca bo‘yicha texnogen boyish emas, balki tabiiy karbonatli litogen fon ustunlik qiladi.

Umuman olganda KK tahlili K, Cs va Ba bo‘yicha barqaror boyish (KK >1) kuzatilishini; Na va Sr uchun fon qiymat atrofida tebranish va ayrim qatlamlarda kambag‘allashish Rb uchun asosan fon darajada, Ca uchun esa biroz past ko‘rsatkichlar xos ekanini ko‘rsatdi. Bu tipik bo‘z tuproqlarda ishqoriy va ishqoriy-yer metallarning geokimyoviy xusussiyatlari texnogen yuklama (sement changi), irrigatsion tartibot va litogen asosning kompleks ta’siri ostida shakllanayotganini tasdiqlaydi.

Xulosalar. Sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarda ishqoriy (Na, K, Rb, Cs) va ishqoriy-yer (Sr, Ba, Ca) metallarining masofa va chuqurlik bo‘yicha taqsimoti bir xil emasligi ko‘rinadi. K va Ca yalpi miqdorlari ustun, Rb va Cs mikroelementlar sifatida, Sr va Ba esa o‘rta darajadagi konsentratsiyalarda qayd etildi. Na va K ning yuqori qatlamlarda nisbatan o‘zgaruvchanligi irrigatsion tartibot va agrokimyoviy tadbirlar bilan bevosita bog‘liq.

Konsentratsiya klarki (KK) tahlili K, Cs va Ba elementlari bo‘yicha tipik bo‘z tuproqlarda global fon qiymatlarga nisbatan barqaror boyish mavjudligini ko‘rsatdi. K uchun KK 1,14-1,61, Cs uchun 1,06-2,42, Ba uchun esa 0,94-2,10 diapazonda bo‘lib, bu elementlar litogen omil va sement sanoati changidan kelayotgan texnogen yuklama birgalikdagi ta’siri ostida to‘planishini anglatadi.

Na va Sr bo‘yicha KK ko‘rsatkichlari,

asosan 1 atrofida bo‘lib, ayrim qatlamlarda (Na uchun 100 m masofa 48-58 sm chuqurlikda, Sr uchun 100 m masofa 26-48 sm da) 0,61-0,34 gacha pasayadi. Bu elementlarning taqsimoti birinchi navbatda sug‘orish sharoitida kechadigan yuvilish va qayta cho‘kish jarayonlari bilan izohlanadi, ularning tarqalishida texnogen komponentning roli ikkilamchi hisoblanadi.

Rb konsentratsiya klarki fon darajada bo‘lib, bu uning K bilan geokimyoviy yaqinligi va litogen manbaga bog‘liqligini ko‘rsatadi, shu sababli Rb tipik bo‘z tuproqlarda texnogen yuklamani emas, balki ona jins xususiyatlarini aks ettiruvchi konservativ indikator sifatida qaralishi lozimligini ko‘rsatadi.

Sug‘oriladigan, karbonatli tipik bo‘z tuproqlarda kalsiyning yalpi miqdori yuqori bo‘lishiga qaramay, global tuproq klarkiga nisbatan ortiqcha boyish kuzatilmasligini bildiradi. Demak, sement changi bilan kelayotgan qo‘shimcha Ca irrigatsion yuvilish va karbonatlarning qayta kristallanishi fonida umumiy geokimyoviy balansni tubdan o‘zgartirmaydi.

Umuman olganda, sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarda ishqoriy va ishqoriy-yer metallarining taqsimoti hamda konsentratsiya klarki bo‘yicha baholanishi bu hududda tabiiy karbonatli litogen fon, sug‘orish tizimi va sement sanoati changining texnogen ta’siri o‘zaro birikkan holda kompleks tuproq-geokimyoviy muhitni shakllantirayotganini ko‘rsatadi. K, Cs va Ba texnogen yuklamaning sezgir indikatorlari, Na, Sr va Ca esa suv tartibot va karbonatli muhit bilan chambarchas bog‘liq elementlar sifatida ajralish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abollino O., Aceto M., Malandrino M., Mentasti E., Sarzanini C., Barberis R. Distribution and mobility of metals in contaminated sites: chemometric investigation of pollutant profiles. Environmental Pollution. 2002; 119(2): – 177–193.

2. Alloway B.J. editors. Heavy Metals in Soils: Trace Metals and Metalloids in Soils and Their Bioavailability. 3rd ed. Dordrecht: Springer; 2013. – 614 p.

3. Ayers R.S., Westcot D.W. Water Quality for Agriculture. FAO Irrigation and Drainage Paper 29 Rev.1. Rome: Food and Agriculture Organization; 1976. 97 p.

4. Kabata-Pendias A. Trace Elements in Soils and Plants. 4th ed. Boca Raton: CRC Press; 2011. 562 p.

5. Okoro H.K., Orimolade B.O., Adebayo G.B., Akande B.A., Ximba B.J., Ngila J.C. An assessment of heavy metals contents in the soil around a cement factory in Ewekoro, Nigeria using pollution indices. Polish Journal of Environmental Studies. 2017; 26(1):221–228.

6. Olayinka O.O., Adedeji O.H., Oresanya O.J., Alabi-Thompson O.F. Environmental and health impact of cement factory production in Ibese, Ogun State, Nigeria. Applied Environmental Research. 2016;38(2):93–110.

7. Oludoye O., Lanrewaju O.A. Nutrients assessment of tropical soils around a mega cement factory in Southwest Nigeria. Journal of Ecological Engineering. 2017; 18(2):21–28.

8. Sposito G. The Chemistry of Soils. 2nd ed. New York: Oxford University Press; 2008. 344 p.

9. Taylor H.F.W. Cement Chemistry. 2nd ed. London: Thomas Telford; 1997. 459 p.

10. Yuldashev G‘., Isag‘aliyev M. Tuproq biogeokimyosi. – T.: Tafakkur Bo‘stoni, 2014. 352 b.

УДК 631.55

ПОВЫШЕНИЕ ПЛОДОРОДИЯ СКЛОНОВЫХ ЗЕМЕЛЬ ТЕМНЫХ СЕРОЗЕМОВ И ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРОТИВОЭРОЗИОННЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

Холзода Бобишо Нарзулло,
к. с.-х.н., старший научный сотрудник
Каримова Файзигуль Джанджоловна,
к.с.-х.н, заведущая отделом «Повышение плодородия и оценка почв»
Караев Шариф,
к.с.-х.н, ведущий научный сотрудник отдела обучения, науки и подготовки кадров
Мерзоев Миршакар Наимович,
научный сотрудник отдела «Повышение плодородия и оценка почв»

Института почвоведения и агрохимии ТАСХН

Аннотация. В данной статье изучены геохимические особенности щелочных (Na, K, Rb, Cs) и щелочноземельных (Ca, Sr, Ba) металлов в орошаемых типичных сероземах, расположенных в зоне влияния Кувасайского цементного завода. В ходе исследований отбирались образцы из различных генетических горизонтов и глубин почвенных разрезов на расстояниях 100, 500, 1000 и 10 000 м (фон) от завода. Установлено, что содержание щелочных и щелочноземельных металлов на расстояниях 100–500 м в целом выше по сравнению с фоновой зоной. Выявлена тенденция техногенного накопления отдельных элементов (K и Ca) в верхних слоях почв на территориях, примыкающих к заводу. Показано, что распределение Na, Rb и Cs в большей степени определяется условиями орошения, агротехническими приёмами и составом почвообразующих пород, чем непосредственным техногенным воздействием.

Ключевые слова: геохимия почв, цементный завод, щелочные металлы, щелочноземельные металлы, натрий, калий, рубидий, цезий, кальций, стронций, барий, техногенное загрязнение, типичный серозем.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Quvasoy sement zavodi ta'sir zonalarida joylashgan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda ishqoriy (Na, K, Rb, Cs) va ishqoriy-yer (Ca, Sr, Ba) metallarining geokimyoviy xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqotlarda sement zavodidan 100, 500, 1000 va 10000 m (fon) masofalarda joylashgan tuproq kesmalarining turli genetik gorizontlari va chuqurliklaridan namuna olindi. Ishqoriy va ishqoriy-yer metallarning miqdoriy o'zgarishi fon hududiga nisbatan 100-500 m zonalarda nisbatan yuqoriligi bilan ajralib turdi. Ayrim elementlarning (K va Ca) tuproqning yuqori qatlamlarida, zavodga yaqin hududlarda texnogen to'planish tendensiyasi aniqlandi. Na, Rb va Cs elementlarining taqsimoti texnogen omildan ko'ra sug'orish sharoitlari, agrotexnik tadbirlar va tuproq hosil qiluvchi ona jinslarning mineralogik tarkibi bilan kuchliroq bog'liq ekani ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: tuproq geokimyosi, sement zavodi, ishqoriy metallar, ishqoriy-yer metallar, natriy, kaliy, rubidiy, seziy, kalsiy, stronsiy, bariy, texnogen ifloslanish, tipik bo'z tuproq.

Annotation. This article investigates the geochemical behavior of alkali (Na, K, Rb, Cs) and alkaline-earth (Ca, Sr, Ba) metals in irrigated typical sierozem soils located within the impact zone of the Kuvasay Cement Plant. Soil samples were collected from various genetic horizons and depths of soil profiles situated at distances of 100, 500, 1000, and 10000 m (background) from the plant. The contents of alkali and alkaline-earth metals were generally higher at 100-500 m compared to the background site. A tendency toward technogenic accumulation of some elements (K and Ca) was observed in the upper soil layers in areas adjacent to the

plant. The distribution of Na, Rb, and Cs was found to be more strongly controlled by irrigation regime, agrotechnical practices, and the mineralogical composition of parent materials than by direct technogenic inputs.

Key words: soil geochemistry, cement plant, alkali metals, alkaline-earth metals, sodium, potassium, rubidium, cesium, calcium, strontium, barium, technogenic pollution, typical sierozem.

Одним из основных и главнейших мероприятий, направленных на повышения продуктивности склоновых земель и производительности сельского хозяйства республики, является ведение систематическое борьбы с водной и ветровой эрозией почв.

Борьба с эрозией почв представляет собой неотъемлемую часть большой проблемы охраны природы. Вряд ли нужно доказывать необходимость бережливого отношения к важнейшей составной части нашего природного богатства – к почве.

Повышение продуктивности эродированных почв требует постоянной заботы о сохранении и повышении плодородия почв, увеличение запаса влаги – незаменимого основного средства сельскохозяйственного производства, путем применение противоэрозионных мероприятий. Многие исследователи почв Таджикистана (Якутилов, Садриддинов, Джаборов, Кабилов, Караев, Ли, Бурыкин, Падалько, Лукин.) указывают на высокую эффективность применения приёмов противоэрозионных мероприятий на эродированных почвах, где при этом особенно отмечается эффективности бороздование и внесение удобрений (Якутилов, Садриддинов, Караев, Ли).

В Таджикистане одним из важным аспектом исследования по этой направлении является изучение эффективности применения противоэрозион-ных мероприятий и внесение удобрении на богарных землях (Садриддинов, Караев, Кирасиров, Ахмадов).

Эффективности противоэрозионных мероприятий на богарных землях Таджикистана в значительной степени зависит от количества влаги накоплённой в почве в зимне-весенний период и её рационального использования растениям в вегетационной период. Существует много приёмов воздействия на поверхности почвы с целью активного влияния на её пищевой и водные режимы. Одним из таких приёмов является бороздование и удобрение на эродированных тёмных сероземных почвах.

С помощью данной агротехнического приёма может активно повлиять на основные закономерности изменения водного и пищевого режима почвы, уменьшает процесс эрозии и увеличивается урожайность зерновых и кормовых культур на склоновых землях темных серозёмов.

Объектами исследований было (в 2005г.) эрозионные склоны различной крутизны в зоне тёмных серозёмов Хуросонского района. Хатлонской области.

Варианты опыта с противоэрозионными агротехническими мероприятиями и нормами внесения удобрений были следующие:

1. Контроль (вспашка поперёк склона без удобрений).
2. Бороздование и боронование.
3. N60P60 вразброс поверхностно.
4. Бороздование + боронование и N60P60

Полевые опыты проводились с озимой пшеницы на склонах с различной крутизной, т.е. на не смытой при 2-30, среднесмытой при 5-100, и сильно смытых при 10-150.

Опыт заложен в трехкратной повторности учётная площадь по вариантам опыта составляла 20м2 (10м вдоль и 2м поперёк склона).

Удобрения вносились в подкормку ранней весной из расчета в туках азот в виде карбамид, фосфор в форме суперфосфат по N60P60 действующего

вещества на гектар соответственно.

Природные условия зоны тёмных серозёмов резко отличаются от светлых серозёмов это средние адыри, сложные мощной толщей лессовидных отложений.

Этого достаточно для получения урожая сельскохозяйственных (зерновых) культур. Поэтому темные сероземы издавна являются объектом интенсивного богарного земледелия, но и здесь встречаются целинные и залежные земли, которые в сельском хозяйстве используются в качестве зимнее -весенних пастбищ.

Подавляющая часть атмосферных осадков выпадает в зимнее – весенний период в виде дождей незначительной интенсивности (0,01-0,1мм/мин). Наблюдается и более интенсивные ливни (0,3-0,5 мм/мин).

В отдельные годы (весной) выпадают ливни более высокой интенсивности (0,5-1,0мм и более).

В растительном покрове зоны преобладает крупно травное злаково-эфемерное разнотравные. Проективное покрытые растительности 50-60%.

Данные агрохимических и агрофизических свойств пахотного слоя опытных участков показывают, что содержание гумуса на неэродированных почвах составило - 1,67%, а на средне и сильно эродированных почвах было меньше, и составило соответственно -1,25 и 0,85% (Табл.1).

Таблица 1

Агрохимические и агрофизические показатели пахотных и подпахотных слоев почвы опытных участках

№ п/п	Место проведения и почвы	Горизонт слой почвы	Гумус, %	Валовые содержание			Подвижный форм мг /кг почвы			Удельный вес г/см^3	Объемный вес г\см3	$CaCO_3$
				N	P_2O_5	K_2O	N	P_2O_5	K_2O			
1.	Не смытая	0-30	1,67	0,113	0,185	1,97	5,0	15,2	258	2,42	1,32	11,0
		30-50	1,21	0,083	0,165	1,99	4,6	10,2	250	2,40	1,40	10,0
2.	Средне-смытая	0-30	1,25	0,064	0,150	1,74	4,5	11,0	238	2,45	1,35	18,6
		30-50	0.90	0,062	0,140	1,52	3,8	9,0	220	2,40	1,42	21,8
3.	Сильно-смытая	0-30	0,85	0,050	0,120	1,52	3,9	9,50	178	2,48	1,42	22,5
1. O‘zbekiston Respublikasi Yer Fondi – O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo‘mitasi. – Toshkent., 2021-yil.

2. O‘zbekiston sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati va ularni yaxshilash – Toshkent., 2018-y.

3. O‘zbekiston Respublikasi tuproq qoplamlari atlasi – O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi. – Toshkent, 2010-y.

4. Laboratoriya analizlari “TCTM” DUK halqaro ISO sertifikatiga ega bo‘lgan laboratoriyada. Suvli so‘rim, PH-muhit Gost – 2642385.

5. Gumus miqdori Gost 2621391 davlatlararo standart asosida, tuproqning mexanik va granulometrik tarkibi O'zDST 81797 davlat standarti asosida aniqlandi.

6. Arinushkina E.V Rukovodstvo po ximicheskomu analizu pochve. Moskva., 1970 god. 491 s.

7. Metode agroximicheskix, agrofizicheskix i mikrobiologicheskix issledovaniy v polivnex xlopkovex rayonax. – Toshkent., 1963 god. 70 s.

8. Toshkent viloyati hokimligi rasmiy veb sahifasidan https://toshkent.uz/oz.

9. Atoyev B., Kaypnazorov J., Egamberdieva M., Makhammadiyev S., Karimov M., Makhkamova D. Technology of nutriating winter wheat varieties in variety-soil-fertilizer system. E3S Web of Conferences 244, 02040 (2021).

10. Davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq xaritalarini tuzish bo‘yicha yo‘riqnoma (mualliflar jamoasi), Yerdan foydalanish, yer tuzish va yer kadastri bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar. – Toshkent., 2009-yil, –52-bet.

UO_K: 631.459.3:633.51:631.55

KULIS POLOSALARI ORASIDAGI MASOFALARNING SHAMOL EROZIYASI VA PAXTA HOSILIGA TA'SIRI

Raximov Jo'ra Suyunovich,
qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, dotsent
Nurmatov Sherali Nurmatovich,
qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor
Shadmanov Djamoliddin Qozoqjonovich,
qishloq xo'jalik fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Qarshi texnika universiteti
Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Maqolada Qashqadaryo viloyatining deflyatsiyaga uchragan och tusli bo'z tuproqlarida kulislararo masofalarni shamol eroziyasi va paxta hosiliga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Izlanishlarda tuproq zarrachalarining yo'qotilishi nazorat ochiq dalada 36,08 t/ga ni tashkil qilgan bo'lsa, kulislar orasidagi masofa 10,8 m bo'lganda tuproq yo'qotilmadi, kulislar orasidagi masofalar 14,4 va 18,0 metr bo'lganda tuproqning yo'qotilishi 1,78 va 3,78 t/ga ga teng bo'ldi. Natijada nazoratga nisbatan kulislar orasidagi masofalarga bog'liq holda 4,2; 3,9; va 3,0 s/ga qo'shimcha paxta hosili olindi.

Kalit so'zlar: och tusli bo'z tuproq, hajm massa, g'ovaklik, shamol eroziyasi, shamol tezligi, kulis, kulislar orasidagi masofalar, tuproqning yo'qotilishi, paxta hosili.

Аннотация. В статье приведены данные о влиянии межкулисных расстояний на дефлированных светлых сероземах Кашкадарьинской области на ветровую эрозию и урожай хлопка- сырца. В исследованиях если потери почвенных частиц на открытом поле (контроль) составил 36,08 т/га, то при межкулисном расстояний 10,8 м почва вовсе не подвергалось развеянию, то при межкулисных растояниях 14,4 и 18,0 м потери почвы составили 1,78 и 3,78 т/га соответетвенно. В результате в зависимости от межкулисных расстояний по сравнению с контролем, получены дополнительные 4,2; 3,9; 3,0 ц/га уржаи хлопка-сырца.

Ключевые слова: светлый серозем, обьемная масса, порозность, ветровая эрозия, скорость ветра, кулисы, межкулисные растояния, потери почвы, урожай хлопка-сырца.

Annotation. The article presents data on wind erosion and the effect of interstices on cotton yield in deflated light sierozem soils of Kashkadarya region.

In the research, the loss of soil particles was 36.08 t ha-1 in the control open field, when the distance between the scenes was 10.8 m, there was no soil loss, when the distances between the scenes were 14.4 and 18.0 meters, the soil loss was equal to 1.78 and 3.78 t ha-1. As a result, compared to the control, depending on the distance between the scenes, 4,2; 3,9; and additional cotton yield of 3,0 t ha-1 was obtained.

Key words: Light sierozem soil, bulk density, porosity, wind erosion, wind speed, interslices, distances between interslices, soil loss, cotton yield.

Kirish

Amerikalik olim D.R. Montgomeri ning yozishicha, dunyoda 33 foiz tuproq resurslari deflyatsiya (shamol eroziyasi), suv va irrigatsiya eroziyasi, zichlashish, sho'rlanish, organik va oziqa moddalarning yo'qotilishi hamda, boshqa antropogen jarayonlar ta'sirida degradatsiyaga uchragan [8]. Kuchli shamollar ta'sirida ro'y beradigan deflyatsiya natijasida tuproqlarning eng ustki unumdor qatlami uchirilib surilib ketiladi, oqibatda tuproqning

granulometrik tarkibi yengillashadi, agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalari yomonlashadi, atrof-muhit ifloslanadi hamda qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligi kamayadi. Shuning uchun deflyatsiya jarayonlariga qarshi kurash chora-tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarda ko'plab olimlar tomonidan deflyatsiyaga qarshi yerlarni ag'darmasdan haydash, tuproqqa minimal ishlov berish, dalani himoya qiluvchi o'rmon polosalari barpo qilish, massiv vohalarni o'tloqlashtirish, mulchalash, ko'p yillik o'tlar ekish hamda polosali dehqonchilikdan foydalanish kabi kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan [1; 2; 3; 10].

Mamlakatimizda Farg'ona vodiysi, Qoraqalpog'iston respublikasi, Zarafshon vohasi, Sirdaryo, Jizzax, Buxoro, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarining 2 mln. gektarga yaqin sug'oriladigan maydonlari turli darajada deflyatsiyaga uchragan [5]. Unga qarshi o'rmon meliorativ, agrotexnik va kimyoviy kurash tadbirlari Q.M.Mirzajonov, M.B.Hamrayev, S.Egamberdiyev, A.Kayimov, A.I.Molchanova va boshqa olimlarning ko'p yillik tadqiqotlari natijasida yaratilgan [6; 7; 9; 11]. Lekin Qarshi cho'lining och tusli bo'z tuproqlarida kulislararo masofalarning shamol eroziyasi va paxta hosiliga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmagan.

TADQIQOT OB'YEKTI VA USLUBIYATI

Izlanishlar 2021-2023 yillarda Qarshi cho'lining och tusli bo'z tuproqlar sharoitida olib borildi. Dala tajribalarini qo'yish, fenologik kuzatishlar va biometrik o'lchovlar, deflyatsiya jarayonlari "Dala tajribalari o'tkazish uslublari", tuproqning agrofizikaviy va agrokimyoviy xossalari "Методы агро-химических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах" uslubiy qo'llanmalari asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot o'tkazilgan dalada tuproqning granulometrik tarkibi Bratcheva, tuproqning hajm massasi N.A.Kachinskiy usulida, g'ovaklik ifodada, tuproq tarkibidagi gumus miqdori I.V.Tyurin, yalpi azot va umumiy fosfor I.M Malsev, L.P Gritsenko, nitratli azot Grandval-Lyaju, o'zlashtiriladigan fosfor B.Machigin, almashinuvchi kaliy P.V.Protasov usulida aniqlandi.

TADQIQOT NATIJALARI VA ULARNING MUHOKAMASI

Tajriba maydoni tuprog'ining granulometrik tarkibi tahlil qilinganda, tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida qum zarrachalarining miqdoriga mos ravishda 16,20 va 16,01% ga, chang zarrachalarining miqdori 69,10 va 69,85 % ga, il zarrachalarining miqdori esa 12,70 va 13,14% ga teng ekanligi aniqlandi. Tuproqning 0-30 va 30-50 sm qatlamlarida fizik loy (<0,01mm) miqdori tegishlicha 32,18 va 35,24%ni tashkil qilib, o'rta qumoqdan iborat ekanligi ma'lum bo'ldi. Tuproqning haydov (0-30 sm) qatlamida haydov osti (30-50 sm) qatlamiga nisbatan fizik loyning 3,06% ga kamayganligi ushbu tuproqni deflyatsiyaga uchraganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlarda amal davri boshida tuproqning hajm massasi 0-30 sm qatlamda 1,25 g/sm3 ni, 30-50 sm qatlamda 1,32 g/sm3 ni, g'ovakligi esa mos ravishda 53,4 va 50,7% ni tashkil qilgan bo'lsa, amal davri oxirida deflyatsiyadan himoya qilinmagan ochiq dalada (nazorat 1- variant) ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 1,32 va 1,38ga; 50,7 va 48,5 ga teng bo'ldi yoki amal davri boshiga nisbatan hajm massa 0,07-0,06 g/sm3 ga ortganligi, g'ovaklik 2,2-2,2 % ga kamayganligi ma'lum bo'ldi.

Deflyatsiyadan kuzgi bug'doydan 2,4 m enlikda (seyalkaning bir qamrov kengligi) barpo qilingan kulis polosalari bilan himoya qilingan va ular orasidagi masofa 10,8 metrni tashkil qilgan 2-variantda tuproqning hajm massasi 0-30 va 30-50 sm qatlamlarda 1,29 va 1,36 g/sm3 ni, g'ovakligi 51,9 va 49,2 % ni, kulislararo masofa 14,4 m bo'lgan 3-variantda hajm massa 1,29 va 1,37 g/sm3 ni, g'ovaklik 51,9 va 48,8 % ni, kulislararo

masofa 18,0 m bo‘lgan 4- variantda ushbu ko‘rsatkichlar tegishlicha 1,30 va 1,37 g/sm3 ni, 51,5 va 48,9 % ni tashkil qilganligi aniqlandi yoki mavsum boshiga nisbatan tuproqning hajm massasi 0,04-0,05 g/sm3 ga ortganligi, g‘ovakligi 1,5-1,4% ga kamayganligi qayd qilindi. Lekin tuproq deflyatsiyadan himoya qilinmagan nazorat 1-variantga nisbatan hajm massa 0-30 sm qatlamda 0,02-0,03 g/sm3 kam zichlashgan bo‘lsa, g‘ovakligi 0,8-1,2% yuqori bo‘lganligi, 30-50 sm qatlamda tuproq 0,01-0,02 g/sm3 kam zichlashganligi, g‘ovaklik esa 0,4-0,7% ko‘p bo‘lganligi kuzatildi.

Tajriba dalasi tuprog‘i agrokimyoviy xossalari tahlil qilinganda haydov (0-30 sm) va haydov osti (30-50 sm) qatlamlarida gumus miqdori mos ravishda 0,714 va 0,627% ni, yalpi azot 0,075 va 0,064% ni, umumiy fosfor 0,092 va 0,071 % ni tashkil qilgan bo‘lsa, nitratli azot 18,4 va 12,9 mg/kg ga, o‘zlashtiriladigan fosfor 19,7 va 14,3 mg/kg ga, almashinuvchi kaliy 237 va 204 mg/kg ga tengligi aniqlandi. Mazkur tuproqlar o‘zlashtiriladigan fosfor bilan kam, almashinuvchi kaliy bilan o‘rtacha ta’minlangan. Tadqiqotning keyingi yillarida ham shunga yaqin ma’lumotlar olindi.

Tadqiqot o‘tkazilgan yillarda bo‘lib o‘tgan kuchli shamollarning tezligiga kulis polosalari va ular orasidagi masofalarning ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Deflyatsiyaga uchragan och tusli bo‘z tuproqlarda kulis polosalari va ular orasidagi masofalarning shamol tezligiga ta’siri, t/ga

Var. raq.	Variantlarning nomi	Kulislar orasidagi masofa, m	Tuproq yuzasidan shamol tezligi o‘lchangan balandlik, sm				
			15	25	50	75	100
2021 yil 24 aprel (shamol tezligi flyuger balandligida 14 m/s)							
1	Himoya qilinmagan ochiq dala		7,2	7,8	8,3	9,2	9,8
2	Kulis bilan himoya qilingan	10,8	3,1	3,4	3,9	4,2	4,5
3	Kulis bilan himoya qilingan	14,4	3,3	3,6	3,8	4,4	4,8
4	Kulis bilan himoya qilingan	18,0	3,5	3,8	4,1	4,7	5,0
2021 yil 21 may (shamol tezligi flyuger balandligida 14 m/s)							
1	Himoya qilinmagan ochiq dala		7,0	7,7	8,1	9,0	9,6
2	Kulis bilan himoya qilingan	10,8	2,8	3,2	3,7	4,1	4,3
3	Kulis bilan himoya qilingan	14,4	3,0	3,7	3,9	4,3	4,4
4	Kulis bilan himoya qilingan	18,0	3,3	3,9	4,2	4,6	4,9
2022 yil 21 may (shamol tezligi flyuger balandligida 19 m/s)							
1	Himoya qilinmagan ochiq dala		7,3	7,6	8,4	9,3	10,1
2	Kulis bilan himoya qilingan	10,8	2,9	3,5	3,8	4,1	4,6
3	Kulis bilan himoya qilingan	14,4	3,2	3,8	4,0	4,5	4,8
4	Kulis bilan himoya qilingan	18,0	3,4	4,2	4,4	4,8	5,1
2023 yil 19 aprel (shamol tezligi flyuger balandligida 23 m/s)							
1	Himoya qilinmagan ochiq dala		7,6	8,2	8,9	9,6	10,4
2	Kulis bilan himoya qilingan	10,8	3,0	3,6	3,9	4,4	4,9
3	Kulis bilan himoya qilingan	14,4	3,3	3,9	4,1	4,7	5,0
4	Kulis bilan himoya qilingan	18,0	3,5	4,2	4,5	4,9	5,1
2023 yil 25 may (shamol tezligi flyuger balandligida 15 m/s)							
1	Himoya qilinmagan ochiq dala		7,3	7,9	8,6	9,3	9,8
2	Kulis bilan himoya qilingan	10,8	3,0	3,2	3,8	4,1	4,4
3	Kulis bilan himoya qilingan	14,4	3,3	3,6	4,0	4,4	4,1
4	Kulis bilan himoya qilingan	18,0	3,6	3,9	4,2	4,6	4,9

Jadval ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, eng kuchli shamol 2023-yilning 19-aprel sanasida bo‘lib o‘tgan va shamolning tezligi flyuger balandligida 23 m/s ga teng bo‘lgan (Qarshi meteostansiyasi ma’lumoti). G‘o‘za deflyatsiyadan himoya qilinmagan nazorat 1-variantda yer yuzasidan 15,25,50,75 va 100 sm balandlik-

larda shamolning tezligi mutanosib ravishda 7,6; 8,2; 8,9; 9,6 va 10,4 m/s ni tashkil qildi. Ushbu ko‘rsatkichlar deflyatsiyadan himoya qilingan maydonlarda kulislar orasidagi masofa 10,8 m bo‘lgan 2-variantda 3,0; 3,6; 3,9; 4,4 va 4,9 m/s ga, kulislar orasidagi masofa 14,4 m bo‘lgan. 3-variantda 3,3; 3,9; 4,1; 4,7 va 5,0 m/s ga, kulislar orasidagi masofa 18,0 m bo‘lgan 4-variantda 3,5; 4,2; 4,5; 4,9 va 5,3 m/s ga teng bo‘lganligi hamda nazorat 1-variantga nisbatan shamolning tezligi 2,1-2,5; 2,0-2,3 va 1,9-2,2 marta pasayganligi qayd qilindi. Tadqiqotning boshqa yillari va sanalarida bo‘lib o‘tgan shamollarda ham shunga yaqin ma’lumotlar olindi.

Deflyatsiyadan himoya qilinmagan va kulis bilan himoya qilingan och tusli bo‘z tuproqlarda kuchli shamollar ta’sirida tuproq zarrachalarining supurilib, uchirilib ketishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Deflyatsiyadan himoya qilinmagan va kulis bilan himoya qilingan och tusli bo‘z tuproqlarda kulislar orasidagi masofalarga bog‘liq holda kuchli shamollar ta’sirida tuproq zarrachalarining supurilib uchirilib ketishi, t/ga

Variant raqami	Variant nomi	Kulislar orasidagi masofa, m	Yillar va sanalar bo‘yicha kuchli shamollar ta’sirida tuproqning yo‘qotilishi				
			24.04. 2021	21.05. 2021	21.05. 2022	19.04. 2023	25.05. 2023
1	Deflyatsiyadan himoya qilinmagan ochiq dala	-	31,99	28,38	35,11	36,08	30,50
2	Deflyatsiyadan kulis bilan himoya qilingan	10,8	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
3	Deflyatsiyadan kulis bilan himoya qilingan	14,4	1,43	1,16	1,43	1,78	1,23
4	Deflyatsiyadan kulis bilan himoya qilingan	18,0	2,34	1,82	2,58	3,18	2,12

2-jadval ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, tadqiqot yillarida eng kuchli shamol bo‘lib o‘tgan 2023-yilning 19-aprel sanasida deflyatsiyadan himoya qilinmagan ochiq dalada tuproq zarrachalarining yo‘qotilishi 36,08 t/ga ga yetgan bo‘lsa, g‘o‘zani kulis to‘siqlari bilan himoya qilingan maydonlarda ularning orasidagi masofa 10,8 bo‘lganda deflyatsiya jarayonlari ro‘y bermadi, kulislar orasidagi masofalar 14,4 va 18,0 m bo‘lgan variantlarda esa tuproq zarrachalarining yo‘qotilishi mutanosib ravishda 1,78 va 3,18 t/ga ni tashkil qildi. Ushbu ko‘rsatkichlar tabiiy holda tuproq paydo bo‘lish jarayonlaridan past ekanligi, kuzgi bug‘doydan 2,4 m kenglikda barpo qilingan kulis polosalari tuproqni deflyatsiyadan samarali himoya qilganligini ko‘rsatadi. Izlanishlarning boshqa yillari va sanalarida ham deflyatsiya jarayonlari natijasida tuproq zarrachalarining yo‘qotilishi bo‘yicha olingan ma’lumotlar yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga yaqin bo‘ldi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, deflyatsiyaga uchragan och tusli bo‘z tuproqlarda kuzgi bug‘doydan qilingan kulis polosalaridan foydalanish g‘o‘zani shamol eroziyasidan samarali himoya qiladi va pirovardida nisbatan yuqori va sifatli paxta hosili yetishtirish uchun zamin yaratadi.

Deflyatsiyaga uchragan och tusli bo‘z tuproqlarda kulis polosalari va ular orasidagi masofalarning paxta hosiliga ta’siri to‘g‘risidagi ma’lumotlar 3-jadvalda keltirilgan. Jadval ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, Qarshi cho‘lining och tusli bo‘z tuproqlarida deflyatsiyadan himoya qilinmagan nazorat 1-variantda paxta hosili 3 yilda o‘rtacha 34,3 s/ga ni tashkil qilgan bo‘lsa, eng yuqori 38,5 s/ga paxta hosili g‘o‘zani deflyatsiyadan kulis polosalari yordamida himoya qilingan va ular orasidagi masofa 10,8 m bo‘lgan 2-variantda olindi yoki nazorat 1-variantga nisbatan qo‘shimcha paxta hosili 4,2 s/ga ni tashkil qildi.

3-jadval

Deflyatsiya (shamol eroziyasi) ga uchragan och tusli bo‘z tuproqlarda kulis polosalari va ular orasidagi masofalarning paxta hosiliga ta’siri, s/ga

Variant raqami	Variantlarning nomi	Kulislar orasidagi masofa, m	Yillar bo‘yicha paxta hosili, s/ga			O‘rtacha hosil,s/ga	Qo‘shimcha hosil, s/ga
			2021	2022	2023		
1	G‘o‘za deflyatsiyadan himoya qilinmagan ochiq dala	-	34,2	35,3	33,4	34,3	-
2	G‘o‘za deflyatsiyadan kulis bilan himoya qilingan	10,8	38,6	39,5	37,3	38,5	4,2
3	G‘o‘za deflyatsiyadan kulis bilan himoya qilingan	14,4	38,4	39,2	37,0	38,2	3,9
4	G‘o‘za deflyatsiyadan kulis bilan himoya qilingan	18,0	37,4	38,3	36,1	37,3	3,0

Tuproqni shamol eroziyasidan muhofazalaydigan kulis polosalari orasidagi masofalar 14,4 va 18,0 m bo‘lganda ham hosildorlik bo‘yicha ijobiy natijalar qayd qilindi va deflyatsiyadan himoya qilinmagan nazorat 1-variantiga nisbatan tegishlicha 3,9 va 3,0 sentner qo‘shimcha paxta hosili olindi.

Xulosa. Qarshi cho‘lining deflyatsiyaga uchragan och tusli bo‘z tuproqlarida kuzgi bug‘doydan eni 2,4 m bo‘lgan (don seyalkasining bir qamrov kengligi) kulis polosalari barpo qilish va ular orasidagi masofani 10,8 m va 14,4 m qilib, orasida g‘o‘za parvarish qilinganda, shamolning tezligi 2,5 martagacha pasayishi, tuproq zarrachalarining yo‘qotilishi 36,08 t/ga dan 1,23 t/ga gacha kamayishi, shuningdek, gektaridan 4,2 va 3,9 s qo‘shimcha paxta hosili olish mumkinligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бараев А.Е., Зайцева А.А., Госсен Э.Ф. Борьба с ветровой эрозией почв// Алмата: – Казсельхозгиз. 1963. – 35с.

2. Васильев Ю.И Теоретические основы и практическая реализация оптимизации параметров систем полезашитных лесных полос в районах активного проявления ветровой эрозии почв// Автореферат докт. дисс. – Волгоград, 1990. – 49 с.

3. Дорж Б. Ветровая эрозия почв и меры их зашиты в МНР// Эрозионные прцессы и почвозащитное мераприятия в странах членах СЭВ. – М.: 1982. – С. – 77-82.

4. Кайимов А., Молчанова А. К. Полезащитные лесные полосы и хлопок// Сельское хозяйство Узбекистана. 1982 №11. – С. – 43-45.

5. Мирзажанов К.М. Ветровая эрозия орошаемых почв Узбекистана и борьба с ней// – Ташкент. “Фан”. 1973. – С. –234.

6. Мирзажанов К.М. Научные основы борбы с ветровой эрозией на орошаемых землях Узбекистана// – Ташкент “Фан”. 1981. – С. – 214.

7. Мирзажанов К.М. Лик Центральной Ферганы в прежнее и настоящее время// Монография. – Ташкент. 2014. –249 с.

8. Монтгомери Д.Р. Почва: Эрозия цивилизаций// – Анкара. 2015. – 409 с.

9. Хамраев М.Б. Научные основы повышения плодородия орошаемых почв// Монография. – Ташкент. 1995. –298 с.

10. Шиятый Е.И., Чмиль А.Е. Почвозащитная эффективность ветроломных барьеров// Вопросы прогнозирования ветроэрозионных процессов, Целиноград. 1981. – С. 12-23.

11. Эгамбердиев С. Почво-и природохранные, ресурсосберегающие системы обработки дефлированных почв//Монография. – Ташкент. 1992. 289 С.

SUG‘ORILADIGAN TUPROQLARNING SIFATI VA SOG‘LOMLIK DIAGNOSTIKASI

Mirxaydarova Gulmira Sultanovna,*
b.f.n., dotsent
Ruzmetov Maqsud Ismailovich,**
q.x.f.d., professor

**Toshkent davlat agrar universiteti*
***Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti*

Annotasiya. Maqolada Toshkent viloyati Piskent tumani Xaydarov massivi tuproqlarining ekologik holati yoritilgan. Turli qishloq xo‘jaligi ekinlari bilan band bo‘lgan tuproq namunalari dagi kimyoviy elementlar miqdori aniqlanib, ba’zi elementlarni miqdori REM dan 2,3,6 va ancha barobar oshganligi aniqlangan. SQI uslubida baholash natijalariga ko‘ra ushbu tuproqlarning ekologik holatiga tavsif berilgan.

Kalit so‘zlar: tuproq ekologiyasi, og‘ir metall, ruxsat etilgan me’yor, tuproq ifloslanishi, SQI.

Аннотация. В статье освещается экологическое состояние почв массива Хайдаров Пскентского района Ташкентской области. Определено содержание химических элементов в образцах почв, занятых различными сельскохозяйственными культурами, и установлено, что содержание некоторых элементов превышает ПДК в 2,3,6 и более раз. По результатам оценки методом SQI дана характеристика экологического состояния этих почв.

Ключевые слова: почвенная экология, тяжелый металл, предельно допустимая норма, загрязнение почвы, SQI.

Annotation. The article covers the ecological state of the soils of the Haydarov massif in the Pskent district of the Tashkent region. The content of chemical elements in soil samples occupied by various agricultural crops was determined, and it was established that the content of some elements exceeds the Maximum Allowable Concentration by 2,3,6 and more times. Based on the assessment results using the SQI method, a characteristic of the ecological state of these soils was given.

Key words: soil ecology, heavy metal, maximum permissible level, soil pollution, SQI.

Mavzuning dolzarbligi. So‘nggi paytlarda atrof-muhitni muhofaza qilish va aholi salomatligi masalasi ko‘pchilik mamlakatlarda, shu jumladan O‘zbekistonda ham, sanoat va qishloq xo‘jaligining jadal rivojlanishi, aholi sonining o‘sishi, salbiy tabiiy va antropogen omillar ta’sirining kuchayishi tufayli alohida muhim ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, salbiy omillarning yaqqol ta’siri oqibatlaridan biri atrof-muhitning, xususan tuproqning, zararli kimyoviy moddalar va aholi salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan mikroorganizmlar bilan ifloslanishidir.

Xususan, Angren-Olmaliq sanoat hududidagi (Ohangaron) tuproq qoplamining mikroorganizmlar olamiga og‘ir metallar bilan ifloslanish salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Og‘ir metallar va mikroorganizmlar miqdorini o‘rganish natijasida og‘ir metallar bilan kuchli ifloslangan tuproqlarda mikroorganizmlar soni ifloslanmagan yoki kam ifloslangan tuproqlarga nisbatan sezilarli darajada kam ekanligi aniqlangan. Tuproqning og‘ir metallar bilan ifloslanish manbalaridan uzoqlashgan sari mikroorganizmlar ekotizimining turli ko‘rsatkichlari (nematodalarning umumiy soni, asosiy nafas olish, mikrob biomassasi C, N va mikrob koeffitsienti) ortib borgan (2).

Tadqiqot ob’ekti va uslublari. Tadqiqotlar Toshkent viloyatining Yangi yo‘l (“A.Navoiy” va “Xalqobod” massivlarida) va Piskent (“I.Xaydarov” massivi) tumanlarida olib borildi.

Piskent tumani shimoliy va shimoli-sharqdan Ohangaron va O‘rta Chirchiq,

g‘arbdan Oqqo‘rg‘on, janubi-g‘arbdan Bo‘ka tumanlari, janubdan Tojikiston Respublikasining So‘g‘d viloyati bilan chegaradosh. Maydoni 0,79 ming km². Tuman hududi Qurama tog‘ tizmalarining etaklarida va Ohangaron daryosining chap sohilida, Chirchiq-Ohangaron vodiysi boshlanadigan erda joylashgan. Yer usti sharqdan g‘arbga tomon qiya. O‘rtacha balandligi 300-2500 m. Sharqiy qismi Qurama tog‘lari, adirlar, cho‘l, yaylovlar bilan band. Relefi bir oz pastbaland, eski daryo o‘zanlari, jar va jilg‘alar bilan parchalangan. Tumanning g‘arbiy qismida sug‘oriladigan erlar joylashgan. Tuproqlari, asosan, tipik bo‘z tuproqlar, pastqam joylarda o‘tloqi, botqoq-o‘tloqi, allyuvial tuproqlar. Tumanning chekka sharqida to‘q bo‘z tuproqlar va qo‘ng‘ir tuproqlar tarqalgan bo‘lib, bu yerlardan yaylov sifatida foydalaniladi.

Tuproqdagi metallar AAS lampali jihozda aniqlangan.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. Mamlakatning sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi rivojlangan ko‘plab hududlarida har doim ekotizimning haddan tashqari ko‘p miqdorda og‘ir metallar bilan ifloslanish xavfi mavjud. Bu holat hududlarni ekologik-geokimyoviy rayonlashtirish va og‘ir metallarning ekotizimlarga kirib kelishi va tarqalishini doimiy monitoringini tashkil etishni taqozo etadi. Shuningdek, og‘ir metallarning atrof-muhitga kiradigan eng muhim tabiiy va texnogen manbalarini aniqlash kerak (3).

Bizning tadqiqotlar olib borilgan Toshkent viloyatida tuproqlarni ifloslantiruvchi manba bu – Olmaliq tog‘ kon metallurgiya zavodi.

Toshkent viloyati Yangiyo‘l tumanidan Xalqobod va Navoiy massivlari hamda Piskent tumanidan Xaydarov massivida tarqalgan tuproqlar tarkibidagi kimyoviy elementlar miqdori o‘rganildi (1-jadval).

Piskent tumanidan Xaydarov massivi tuproqlarni xaydov qatlamida berilliy elementi xar xil ekin turlari ekilgan maydonlardan (paxta, g‘alla, ko‘p yillik (bog‘) daraxt, tok, dukkakli, makkajo‘xori) tuproq namunalari olingan bo‘lib, ushbu maydonlarda berilliy miqdori 2,44, 1,70 2,10 2,30 1,60 1,50 1,50 1,80 mg/kg ni tashkil etib, ushbu massivlarda tarqalgan tuproqlarda berilliy elementi ruxsat etilgan miqdoridan oshmaganliga aniqlandi.

Xaydarov massivi xar xil ekin turlari ekilgan maydonlardan olingan tuproqlarni xaydov qatlamida vanadiy elementi 92,9, 85,0, 87,0, 85,0, 96,0, 95,0, 82,0, 110, 100, 130 mg/kg ekanligi aniqlandi. Ushbu massivlarda tarqalgan tuproqlarda vanadiy elementi barcha tuproqlarda ruxsat etilgan miqdori yuqori ekanligi, ayrim ekin turlari ekilgan (bog‘, uzum va bug‘doy) maydonlardan olingan tuproqlarda esa 2 barobardan ham yuqori ko‘rsatkichlari aniqlandi.

Tuproqlarni xaydov qatlamida xrom elementi 53,0-92,0 mg/kg ni ekanligi aniqlandi. Ushbu massivlarda tarqalgan tuproqlarda xrom elementi barcha tuproqlarda ruxsat etilgan miqdori yuqori ekanligi, ayrim ekin turlari ekilgan (bog‘, uzum va bug‘doy) maydonlardan olingan tuproqlarda esa 2 barobardan ham yuqori ko‘rsatkichlari aniqlandi.

Tuproqlarni xaydov qatlamida (paxta, g‘alla, ko‘p yillik (bog‘) daraxt, tok, dukkakli, makkajo‘xori ekilgan maydonlarda) marganes elementi 620-1535 mg/kg ni tashkil etib, ushbu massivlarda tarqalgan tuproqlarda marganes elementi ruxsat etilgan miqdori yuqori ko‘rsatkich faqat Xaydarov massividagi asosiy kesmadan olingan tuproq namunasida aniqlandi.

Xar xil ekin turlari ekilgan maydonlardan olingan tuproqlarni (paxta, g‘alla, ko‘p yillik (bog‘) daraxt, tok, dukkakli, makkajo‘xori) xaydov qatlamida kobalt elementi 12,9-15,0 mg/kg ekanligi aniqlandi. Ushbu massivlarda tarqalgan tuproqlarda kobalt elementi barcha tuproqlarda ruxsat etilgan miqdori 2 barobardan ham yuqori ekanligi, dorivor ekinlar ekilgan maydondan olingan tuproqlarda esa 3 barobar yuqori ko‘rsatkichlari aniqlandi.

Tuproqlarni xaydov qatlamida bor elementi 17,0-36,0 mg/kg ni tashkil etib, ushbu massivlarda tarqalgan tuproqlarda bor elementi ayrim tuproq namunalarida (bog‘, dorivor, paxta, uzum, dukkakli

va sabzavot) ruxsat etilgan miqdordan yuqori ko‘rsatkichlari aniqlandi.

Piskent tumanidan Xaydarov massivi tuproqlarni xaydov qatlamida molibden elementi aniqlanib, barcha tuproq namunalarida ruxsat etilgan miqdordan 3-5 barobargacha yuqoriligi ma’lum bo‘ldi.

Qo‘rg‘oshin elementi tuproqlarni xaydov qatlamida (paxta, g‘alla, ko‘p yillik (bog‘) daraxt, tok, dukkakli, makkajo‘xori ekilgan maydonlar) 10,0-60,0 mg/kg ni tashkil etdi.

1-jadval

Toshkent viloyati Piskent tumani I.Haydorov massivi tuproqlarida tarqalgan kimyoviy elementlar miqdori

O‘simlik turi	Be	V	Cr	Mn	Co	B	Mo	Sb	Pb	Cd	Ni	Zn	Cu	Se	As	Sn
Piskent tumani I.Haydorov massivi asosiy kesmasi																
Bog‘	2,44	92,9	71,8	1535	12,9	31,3	23,7	4,54	334	4,94	47,9	611	172	37,1	17,3	4,00
Piskent tumani I.Haydorov massivi																
Dorivor	2,10	85,0	53,0	860	15,0	39,0	25,0	1,60	37,0	0,100	60,0	100	87,0	3,90	18,0	3,40
Paxta	2,10	87,0	56,0	860	14,0	29,0	20,0	1,60	40,0	0,100	51,0	110	85,0	5,00	19,0	3,10
G‘alla	1,70	85,0	56,0	760	13,0	23,0	22,0	1,50	40,0	0,250	57,0	120	94,0	3,60	18,0	2,70
Ozuqa	2,20	96,0	63,0	770	14,0	30,0	21,0	1,50	36,0	0,140	62,0	110	83,0	4,40	20,0	2,80
Bog‘	2,10	95,0	62,0	840	14,0	31,0	20,0	1,40	33,0	0,098	53,0	100	74,0	4,40	17,0	3,10
Tok	2,30	82,0	53,0	870	14,0	26,0	20,0	1,50	35,0	0,088	56,0	110	81,0	4,30	15,0	2,80
Bog‘	1,60	110	79,0	1300	11,0	24,0	18,0	1,90	210	0,460	47,0	380	120	4,20	22,0	2,70
Paxta	1,50	100	71,0	850	11,0	28,0	17,0	1,80	100	0,380	46,0	230	100	3,00	21,0	5,80
Tok	1,50	130	92,0	620	9,10	36,0	16,0	1,80	76,0	0,250	26,0	190	85,0	3,50	22,0	1,90
Dukkakli	1,80	91,0	61,0	710	11,0	28,0	19,0	1,60	53,0	0,250	45,0	150	82,0	4,10	15,0	2,60
Makka-jo‘xori	1,90	100	68,0	840	13,0	17,0	17,0	1,50	60,0	0,240	45,0	190	100	3,90	17,0	3,20

Ushbu massivlarda tarqalgan tuproqlarda qo‘rg‘oshin elementi ayrim tuproqlarda (bog‘, dorivor, g‘alla va ozuqa) 4 borobargacha, makkajo‘xori va tok ekilgan maydonlardan olingan tuproqlarda 6-7 barobargacha yuqori miqdorlari aniqlandi.

Kadmiy elementi (0,100-4,94 mg/kg) asosiy kesmadan olingan tuproqda 10 barobargacha, nikel elementi (26,0-62,0 mg/kg) 2-2,5 borobargacha, rux elementi (100,0-611,0 mg/kg) 6 borobardan ham yuqori miqdorlari aniqlandi.

Mis elementi tuproqlarni xaydov qatlamida 82,0-172,0 mg/kg ni tashkil etib, bog‘dan olingan tuproq namunasida ruxsat etilgan miqdordan deyarli ikki borbargacha oshganligi aniqlandi.

Selen elementi asosiy kesmadan olingan tuproqlarda ruxsat etilgan miqdordan 4 barobargacha oshganligi aniqlandi.

Tuproqlarni xaydov qatlamida margumush elementi 15,0-22,0 mg/kg mg/kg ni tashkil etib, ushbu massivlarda tarqalgan tuproq namunalarida margumush elementi ruxsat etilgan miqdoridan 12 barobargacha (asosan, ko‘p yillik (bog‘) daraxt, paxta, tok ekilgan maydonlardan olingan tuproq namunalarida) bo‘lgan yuqori ko‘rsatkichlar barcha olingan tuproq namunalarida aniqlandi.

Piskent tumanidan Xaydarov massivi tuproqlarni xaydov qatlamida faqat berilliy elementi, surma elementi, qalay elementi ruxsat etilgan miqdordan oshmaganligi aniqlandi.

Toshkent viloyati Piskent tumani Haydorov massivi tuproqlarini SQI uslubida baholash natijalariga ko‘ra ushbu massivdan olingan tayanch kesma tuproqlari ekologik holati bo‘yicha ball 22 ni tashkil qilgan.

Olingan asosiy kesmalar tahlillariga ko‘ra, ushbu massiv tuproqlari ekologik holati bo‘yicha ballar birmuncha past bo‘lib, 42-32 oralig‘ida, o‘rtachasi esa 37 ni tashkil etadi. Bu o‘z navbatida ushbu tuproqlarning ekologik holati pastligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Piskent tumani Xaydarov massivlarida tarqalgan tuproqlardagi kimyoviy elementlar bilan ifloslanish darajasiga ko‘ra B, Mn, Cu ruxsat etilgan miqdorlardan oshgan bo‘lsa, V, Cr, Ni elementlari ruxsat etilgan miqdordan ikki barobar oshgan bo‘lib, Co - 3 barobar, Mo 3-5 barobar, Zn 6 barobar, Pb 6-7 b arobar, Cd 10 barobar, As 14 barobargacha yuqori miqdorlarda aniqlangan.

Nomaqbul konsentratsiyaning xavflilik darajasiga ko‘ra og‘ir metallar va metalloidlar 3 sinfga bo‘linadi: yuqori xavfli elementlar - Cd, As, Se, Hg, F, Zn; o‘rtacha xavfli elementlar - Co, B, Mo, Ni, Cr, Sb, Cu; kam xavfli elementlar - V, Ba, W, Mn, Sr (2).

Bizlar tomondan olib borilgan tadqiqotlarda tuproqlar aynan yuqori xavfli elementlar - Cd, As, Zn, Pb va o‘rtacha xavfli elementlar - Co, Mo, Ni, Cr, B, Cu hamda kam xavfli elementlar - V, Mn bilan xar xil miqdorda ifloslanganligi sababli tuproq sifatining pasayganligi ma’lum bo‘ldi.

Margumush - o‘pka saratoni, teri kasalliklari, yara paydo bo‘lishi, qon tizimiga ta’sir etuvchi holatlar, kamqonlik; berilliy - dermatitlar va shilliq pardalarning yallig‘lanishi; kadmiy - o‘tkir va surunkali nafas yo‘llari kasalliklari, buyrak faoliyati buzilishi, xavfli o‘smalar; xrom - o‘pka saratoni, oshqozon-ichak yo‘lining yomon sifatli o‘smalari, teri yallig‘lanishlari; qo‘rg‘oshin - qon ishlab chiqarishining buzilishi, jigar va buyrakning shikastlanishi, asab tizimiga ta’sirlar; nikel- nafas yo‘llari kasalliklari, astma, homila rivojlanishidagi nuqsonlar, tug‘ma nuqsonlar; vanadiy - nafas olish yo‘llarining ta’sirlanishi, astma, asab kasalliklari, qon tarkibining o‘zgarishi kabi ba’zi og‘ir metallarning inson organizmiga tanlab ta’sir etuvchi zaharli xususiyatlari aniqlangan (1). Bunday sharoitda tuproq ekologiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishda hamda tuproqni muhofaza qilishni tashkil etishda fan tomonidan ishlab chiqilgan yagona yondashuvlar va uslubiy usullardan foydalanish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Джувеликян Х. А., Щеглов Д. И., Горбунова Н. С. Загрязнение почв тяжелыми металлами. Способы контроля и нормирования загрязненных почв //ВГУ, Полиграфический центр ВГУ. – 2009.

2. Жаббаров З. А., Атоева Г. Р., Сайитов С. С. Загрязнение почв тяжелыми металлами вокруг полигона твердых бытовых отходов города Ташкента //Научное обозрение. Биологические науки. – 2021. – №. 2. – С. 17-23.

3. Казакова Н. А. Загрязнение почвы тяжелыми металлами //Вестник Ульяновской государственной сельскохозяйственной академии. – 2009. – №. 1 (8). – С. 29-31.

UO‘K: 631.452

LALMIKOR HUDUDLARDA TUPROQ DEGRADATSIYASINI OLDINI OLISHNING SAMARALI AGROTEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH

Abduraxmonov Nodirjon Yulchiyevich,
biologiya fanlari doktori (DSc), professor,
Qorayev Aliyor Xasanovich,
b.f.f.d. (PhD), katta ilmiy xodim, bo‘lim boshlig‘i,

Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti

Annotatsiya. Maqolada tog‘ tizmalarining tog‘ yonbag‘ri, tog‘oldi va tog‘ osti tekisliklarida rivojlangan lalmi tuproqlarda olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Bunda lalmi tuproqlarning morfologik belgilari, mexanik tarkibi, agrokimyoviy xossalarining hozirgi holati yoritilgan. Joylarning geografik holati, qiyaliklar ekspozitsiyasi, tuproq profilining namlanish chuqurligi, yuvilish darajasiga qarab, sun’iy struktura hosil qiluvchi polimerlarning tuproqni eroziyadan himoya qilishdagi ta’sirini bundan tashqari, bug‘doy ekini uchun tavsiyalar asosida agrotexnik ishlar amalga oshirilib qo‘llanilgan agrorudalar, mineral va organomineral o‘g‘itlarni tuproq unumdorligini tiklashga hamda, hosil sifatiga ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: vertikal mintaqaviylik, lalmi tuproqlar, tuproqlar unumdorligi, qiyaliklar ekspozitsiyasi, yuvilish darajasi, karbonat, gumus, ozuqa elementlar, mineral o‘g‘it, hosildorlik.

Аннотация. В статье приведены результаты исследований, проведенных на богарных почвах, распространенных на горных холмах, предгорных и подгорных равнинах горных хребтов. В ней освещено современное состояние морфологических признаков, механического состава, агрохимических свойств богарных почв. Изучено влияние полимеров, образующих искусственную структуру, на защиту почв от эрозии в зависимости от географического положения местности, экспозиции склонов, глубины увлажнения почвенного профиля и степени смытости, кроме того изучено влияние агроруд, минеральных и органоминеральных удобрений, внесенных в ходе агротехнических мероприятий на основе рекомендаций для пшеницы на восстановление почвенного плодородия и качество урожая.

Ключевые слова: вертикальная зональность, богарные почвы, плодородие почв, экспозиция склонов, степень смытости, карбонат, гумус, питательные элементы минеральное удобрение, урожайность.

Annotation. In this article, the research results on rainfed soils on sub mountain hills and under the mountain plains. The article highlights the current status of morphological characteristics, mechanical composition and agrochemical content of rainfed soils. The influence of polymers forming an artificial structure on the protection of soils from erosion was studied depending on the geographical location of the area, slope exposure, depth of soil profile moisture and the degree of erosion. In addition, the influence of agro-ores, mineral and organomineral fertilizers applied during agrotechnical measures based on recommendations for wheat on the restoration of soil fertility and crop quality was studied.

Key words: vertical zoning, rainfed soils, soil fertility, slope exposure, erosion level, carbonate, humus, nutrients, mineral fertilizer, yield.

Kirish. Respublikamizda yer resurslari 44892,4 ming/ga ni tashkil etsada, intensiv dehqonchilikda uning 10 % ga yaqinidan foydalaniladi, xolos. Bu asosan, sug‘oriladigan va qisman lalmi yerlardir. Sug‘oriladigan yerlarning qishloq xo‘jaligida umumiy maydoni 3694,9 ming gektarni tashkil etib, ularga respublikada olib borilgan tuproq-tadqiqot ishlarining 95 % dan oshiqrog‘i

to‘g‘ri keladi. Lalmikor dehqonchilikda bugungi kunda foydalanilayotgan yerlarning umumiy maydoni 772,9 ming gektarga teng bo‘lib, tog‘ tizmalarining past tog‘, tog‘ oldi va tog‘ osti tekisliklarini egallaydi. Bu mintaqaning asosiy tuproqlari jigarrang va bo‘z tuproqlardan iboratdir. Mintaqaning quyi qismi qishloq xo‘jaligi ekinlarini etishtirish uchun namlik miqdorining kamligi, yuqori qismi esa noqulay relyef va issiqlik miqdorining etishmasligi bilan farqlanadi. Joylarning geografik holati, qiyaliklar ekspozisiyasi va tuproq-iqlim sharoitiga ko‘ra, lalmikor mintaqa dengiz sathidan balandligi 270-400 metrdan, 1500-2000 metrgacha bo‘lgan oraliqda tebranib turadi va tog‘ tizmalarining ayrim joylarida keng, ba’zi joylarida esa tor belbog‘ shaklida nomoyon bo‘ladi.

Respublikamiz turli regionlaridagi lalmi tuproqlarda ko‘p yillardan buyon olib borilgan tadqiqotlar lalmi tuproqlarni qishloq xo‘jaligida foydalanish jarayonida yerni haydash natijasida tuproqlarning suvga bo‘lgan bardoshliligi kamayishi va tuproq zarrachalarining bir-biriga bo‘sh birikkanligi sababli erozion jarayonlarga (suv oqimiga) kam qarshilik ko‘rsatishi, hamda tuproqning ustki unumdor (gumusli) qismi yuvilib ketishi natijasida tuproq unumdorligi o‘zgaradi. Shuning uchun ham bu hududlarda suv eroziyasi tuproqlar unumdorligini chegaralovchi asosiy omil bo‘lib, tuproqlarning ona jinsi va mexanik tarkibi, qiyaliklarning tikligi va ekspozitsiyasi, tuproq profilidagi shag‘al va tosh aralashmasi, tuproq qatlamining namlanishiga bog‘liq holda degradatsiya jarayonlari jadallashib boradi.

Olib borilgan so‘nggi tuproq tadqiqotlarining tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, respublika haydalma lalmi yerlarining 96 % ida turli darajadagi suv eroziyasi kuzatiladi. Umumiy haydalma lalmi yerlarning 21 % i kuchsiz, 50 % i o‘rtacha va 25 % i kuchli yuvilgan maydonlarni egallaydi. Respublika haydalmagan yer maydonlarining 56 % ida tuproq tarkibidagi gumus miqdori 1% dan kam, 97 % yer maydonlari harakatchan fosfor bilan juda kam ta’minlangan. Shuning uchun ham turli darajada eroziyalanish natijasida gumus va oziqa elementlari kamaygan lalmikor hudud tuproqlarida kechayotgan degradatsiya jarayonlarini oldini olish, tuproq xossalarini yaxshilash, unumdorligini tiklash va qishloq xo‘jaligida samarali foydalanish bo‘yicha tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi 277-son “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorining - yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish, uning salbiy ta’sirini kamaytirish va oqibatlarini yumshatish shuningdek, tuproqlarni muhofaza qilishga qaratilgan ilmiy loyihalarni shakllantirilishi hamda, moliyalashtirilishi belgilangan 8-bandiga muvofiq bo‘lib, qarorning 4-ilovasi bilan tasdiqlangan. Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti tomonidan bajariladigan 2022-2025-yillar davomida yerlar degradatsiyasi va unga qarshi kurashish bo‘yicha o‘tkaziladigan ilmiy-tadqiqot ishlarining asosiy yo‘nalishlarida keltirilgan “Lalmikor hududlarda tuproq degradatsiyasining oldini olish samarali agrotexnologiyasini ishlab chiqish” mavzuli vazifani ijrosini ta’minlash yuzasidan tadqiqot olib borilmoqda. Lalmikor dehqonchilik sohasini (madaniyatini) tubdan yaxshilash, kelgusida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirish va uni tannarxini kamaytirish uchun lalmi yerlarda agrotexnik tadbirlarni sifatli amalga oshirish bilan bir qatorda, tuproq eroziyasini keltirib chiqaruvchi omillarni o‘rganish va ularni oldini olishga qaratilgan agrotexnik, agromeliorativ va eroziyaga qarshi tadbirlar kompleksini ishlab chiqish birinchi navbatdagi vazifalardan hisoblanib, lalmikor dehqonchilik hududlarini o‘ziga xos tuproq-iqlim sharoitlari, relyefi va gemorfologik tuzilishi, qiyalik darajasi hamda, lalmi tuproqlar suv-fizikaviy (suv singdirish) xossalarini hisobga

olgan holda, yuqoridagi agrotexnologik tadbirlar majmuasini qo‘llash lozim.

Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan uslublar. Asosini o‘rganilgan hududlar tuproq kartalari ma’lumotlarini tahlil qilish, qiyosiy geografik, tuproq-kartografik, laboratoriya kameral-analitik tadqiqotlar natijalarini umumiylashtirish uslublari tashkil etadi. Dala ishlarida davlat yer kadastrini yuritish uchun tuproq tadqiqotlarini bajarish va tuproq kartalarini tuzish bo‘yicha yo‘riqnoma [3] asosida olib borildi. Kimyoviy va kameral ishlari Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar instituti tomonidan ishlab chiqilgan va umumqabul qilingan uslubiyotlar asosida bajarildi.

Respublikamizning janubiy regionidagi lalmikor hududda suv eroziyasiga uchragan lalmi tuproqlarni kompleks o‘rganish va ularning hozirgi holatini aniqlash hamda, ulardan samarali qishloq xo‘jaligida foydalanishga kiritishga qaratilgan agrotexnologiya ishlab chiqish maqsadida Hisor tog‘ tizmalarining tog‘ yonbag‘rini egallagan Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidangi lalmi to‘q tusli bo‘z tuproqlarida lalmi Surxok navli oq bug‘doy ekib dala tajriba tadqiqotlari olib borilmoqda [5].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Hisor tog‘ tizmalari lalmi tuproqlari murakkab geologik–geomorfologik sharoitda shakllangan bo‘lib, Respublikamizning boshqa lalmi mintaqalar tuproqlaridan o‘ziga xos regional xususiyatlari, murakkab geologik – geomorfologik tuzilishi bilan farqlanib, dengiz sathidan 300-400 metrdan to 1200 – 1600 metrgacha balandlikda rivojlangan bo‘lib, tuproq hosil qiluvchi jinslari qisman uchlamchi, asosan, to‘rtlamchi yotqiziqlar hisoblanadi [1]. Tadqiqot o‘tkazilgan to‘q tusli bo‘z tuproqlar esa prolyuvial yotqiziqlardan tashkil topgan tog‘ yon bag‘ri o‘r-qirli burmalangan tekislikli geomorfologik rayonlarni tashkil etadi.

Tuproq profilining genetik qatlamlaridan pastga tushgan sari karbonatli qatlam ohak zarrachalari, mog‘orlar va yaltiroq dog‘lar ko‘rinishida uchrab, gumus miqdori bo‘yicha tuproq ostki qatlamiga o‘tuvchi belgi bo‘lib hisoblanadi [2].

Lalmi to‘q tusli bo‘z tuproqlar o‘rta qumoqli bo‘lib, qiyalik tikligi va joyning ekspozitsiyasiga bog‘liq ravishda yuvilish ta’sirida tuproqlar profilining ustki qatlamlarida il zarrachalari miqdorini kamayganligi aniqlandi, yani fizik loy (<0,01 mm) miqdori kamayib, aksincha fizik qum (>0,01 mm) miqdori ortib borishi kuzatildi. Tadqiqot olib borilgan tuproqlar profilining genetik qatlamlarida hajm og‘irlik qiyalik ekspozitsiyasi va yuvilish darajasiga bog‘liq holda, lalmi to‘q tusli bo‘zda 1,40-1,46 g/sm3 oraliqda tebranib turadi.

Tuproqlarning eroziyalanish darajasi ortishi bilan SO2– karbonatlar tuproq profilining yuqori qatlamlarida aks etib, ularning maksimal miqdori 6,9 % da mayda konkresiya ko‘rinishda uchraydi va bu konkresiyalar quyi qatlamlarga 5,5 % gacha kamayib boradi.

Gumus va oziqa elementlar miqdori haydalma qatlamida nisbatan yuqori hisoblanib [4], bu miqdor 0,94 foizni tashkil etib, quyi qatlamda 0,18 % gacha yuqoridan pastki qatlamlarga tomon sekin-asta kamayib boradi. Tuproq profilida uglerodni azotga bo‘lgan nisbati 5,5-6,9 atrofida tebranib turadi. Harakatchan fosfor miqdoriga ko‘ra juda kam (14,4 mg/kg), bo‘lsa, almashinuvchan kaliy esa kam ta’minlangan (145 mg/kg) tuproqlar guruhiga kiradi.

O‘zbekistonning lalmikor dehqonchilik mintaqasida tegishli chora-tadbirlar ko‘rilmasa, suv eroziyasi keng tarqalishi mumkin, chunki bu yerda sug‘oriladigan mintaqaga nisbatan eroziyaga xavfli relyefli hududlar katta ulushga ega. Tuproqlarni eroziyadan himoya qilish va unumdorligini tiklash lozim.

Lalmi to‘q tusli bo‘z tuproqlarida lalmi Surxok navli oq bug‘doy ekib dala tajriba tadqiqotlari olib borildi (A.Qorayev, N.Abduraxmonov, 2025).

Ushbu tajribada sof holda, kompostlangan sharoitda qo‘llanilgan bentonit,

glaukonit minerallari, ko‘mir kukunini alohida hamda, K-4 polimer preparati birgalikda mineral o‘g‘itlar bilan o‘rtacha eroziyalangan, degradatsiyaga uchragan lalmi tuproqlarning strukturasi, namligi, organik moddasiga ta’siri aniqlandi va ulardan eng samaralarisi asosida agrotexnologiya ishlab chiqarishga tavsiya qilinadi (jadval). Mana shu tajribani o‘tkazish orqali yuqorida ko‘rsatilgan masalalarga javob topiladi, agrotexnologiya shakllanadi, degradatsiya (eroziya va uning ta’sirida gumus va oziqa moddalarning kamayishi) jarayonlarini oldini olish hamda, tuproq strukturasi va namlik rejimini yaxshilashga erishildi.

Tadqiqotda bug‘doy ekini uchun tavsiyalar asosida agrotexnik ishlar amalga oshirildi. Bug‘doy ekini hosili aniqlanib, qo‘llanilgan organomineral o‘g‘itlarni tuproq unumdorligi va hosil sifatiga ta’siri aniqlandi. Tajribalar respublikamiz janubiy hududlaridagi nisbatan eroziya jarayonlari jadal rivojlangan lalmi to‘q tusli bo‘z tuproqlar sharoitida bajarildi.

Lalmi Surxok navli oq bug‘doyning 1m2 maydondagi o‘simlik ko‘rsatkichlariga kelsak, umumiy poya soni nazoratda 293 ta bo‘lsa, NPK qo‘llangan variantda 295 tani tashkil qilsa, eng optimal variantda 325 tagacha ortgan, mahsuldor poya soni, poya og‘irligi ham shunga mutonosib bo‘lgan.

Qayta rilish	Tajriba varianti	1m² maydondagi o‘simlik ko‘rsatkichlar.									Xosildorlik	
		Poya soni, dona	Mahsuldor poyalar soni, dona	Poya og‘irligi, gr	Boshoq og‘irligi, gr	Umumiy og‘irligi, gr	Boshoqda don soni dona	Boshoq uzunligi, sm	Poya uzunligi, sm	1000ta don og‘irligi, gr	1m² da, gr	s/ga
I	1-variant. $N_0P_0K_0$ - mineral o‘g‘itsiz nazorat	290	265	271	244	515	17	7,2	53	31	36	3,7
II		294	269	272	247	519	18	7,6	56	30	37	
III		295	270	270	245	515	19	7,8	58	28	38	
O‘rtacha		**293**	**268**	**271**	**245**	**516**	**18**	**7,5**	**56**	**30**	**37**	**3,7**
I	2-variant. $N_{60}P_{30}K_{20}$ + fon	295	289	278	247	525	19	7,6	69	32	71	7,1
II		296	291	279	245	524	19	8,1	72	33	70	
III		295	293	277	247	524	18	7,9	70	32	71	
O‘rtacha		**295**	**291**	**278**	**246**	**524**	**19**	**7,9**	**70**	**32**	**71**	**7,1**
I	3-variant. Bentonit 3 t/ga+fon	325	302	283	247	530	19	8,2	72	34	80	8,0
II		326	304	282	247	529	20	8,1	74	34	80	
III		324	302	281	247	528	19	8,1	71	34	80	
O‘rtacha		**325**	**303**	**282**	**247**	**529**	**19**	**8,1**	**72**	**34**	**80**	**8,0**
I	4-variant. Bentonit 3 t/ga+ Glau-konit 3 t/ga+fon	325	300	278	247	525	19	8,5	75	34	91	9,3
II		326	304	278	247	525	20	8,9	78	34	91	
III		324	300	278	247	525	20	8,7	76	34	91	
O‘rtacha		**325**	**301**	**278**	**247**	**525**	**20**	**8,7**	**76**	**34**	**91**	**9,3**
I	5-variant. ko’mir kukuni 1 t/ga+fon	325	300	278	247	525	19	8,1	75	34	86	8,5
II		326	304	278	247	525	19	8,8	78	34	83	
III		324	300	278	247	525	20	8,5	76	34	87	
O‘rtacha		**325**	**301**	**278**	**247**	**525**	**19**	**8,5**	**76**	**34**	**85,3**	**8,5**
I	6-variant. kompost 1,5 t\ga+fon	325	300	278	247	525	21	10,1	75	34	88	8,9
II		326	304	278	247	525	19	9,6	78	34	90	
III		324	300	278	247	525	19	10,4	76	34	89	
O‘rtacha		**325**	**301**	**278**	**247**	**525**	**20**	**10,0**	**76**	**34**	**89**	**8,9**
I	7-variant. ko’mir kukuni 1 t\ga + kompost 1,5 t\ga + K-4 polimer sepilgan+fon	325	300	278	247	525	19	11,5	75	34	108	10,8
II		326	304	278	247	525	22	11,0	78	34	107	
III		324	300	278	247	525	22	11,3	76	34	109	
O‘rtacha		**325**	**301**	**278**	**247**	**525**	**21**	**11,3**	**76**	**34**	**108**	**10,8**
I	8-variant. bentonit 1,5 t\ga + glaukonit 1,5 t\ga + ko’mir kukuni 1 t\ga + kompost 1,5 t\ga +fon	325	300	278	247	525	22	11,5	75	34	110	11,2
II		326	304	278	247	525	20	12,0	78	34	112	
III		324	300	278	247	525	23	11,6	76	34	115	
O‘rtacha		**325**	**301**	**278**	**247**	**525**	**22**	**11,7**	**76**	**34**	**112**	**11,2**
I	9-variant. bentonit 1,0 t\ga + glaukonit 1,0 t\ga + ko’mir kukuni 0,5 t\ga + kompost 1,5 t\ga + K-4 polimer sepilgan +fon	325	300	278	247	525	23	12,3	75	34	120	12,1
II		326	304	278	247	525	23	12,5	78	34	123	
III		324	300	278	247	525	23	12,6	76	34	121	
O‘rtacha		**325**	**301**	**278**	**247**	**525**	**23**	**12,5**	**76**	**34**	**121**	**12,1**

Boshoq og‘irligi nazoratda 245 bo‘lsa, Bentonit 3 t/ga qo‘llanilganda 282 ga teng, umumiy og‘irligi nazoratda 516 bo‘lsa, boshqa variantlarda 525 atrofida tebranadi shuningdek, boshoqdagi don soni nazoratda 18 bo‘lsa, maksimum 9 chi variantda 23 ni tashkil qildi. Boshoq va poya uzunligiga kelsak nazoratda 7,5-56 sm. bo‘lsa, 7 chi variantda 11,3-76 sm. ni tashkil qildi. 1000 ta don vazniga kelsak, nazoratda 30 gr. bo‘lsa, boshqa variantlarda esa 34 gr. tashkil qildi. Eng muhim ko‘rsatkich hosildorligiga kelsak nazoratda 3,7 s/ga bo‘lsa, NPK qo‘llangan fonda deyarli ikki baravar 7,1 s/ga ni tashkil etib, eng yuqori ko‘rsatkichlar 9-variant (bentonit 1,0 t\ga + glaukonit 1,0 t\ga + ko’mir kukuni 0,5 t\ga + kompost 1,5 t\ga + K-4 polimer sepilgan +fon) da kuzatilib deyarli 4 baravar (12,1 s/ga) ni tashkil etdi.

Lalmi tuproqlarda sun’iy struktura hosil qilishda turlicha qobiliyatga ega ekanligi aniqlangan. K-4 polimerining sun’iy tuproq struktura hosil qilishida ta’siri ayniqsa to‘q tusli bo‘z tuproqlarda ko‘rinadi. Aniqlanishicha, o‘rtacha eroziyaga uchragan lalmi to‘q tusli bo‘z tuproqlarda tuproq og‘irligiga 0,01-0,02% me’yorda K-4 polimer qo‘shilishi suvga chidamli >0,25 mm. agregatlar sonini 10-30% ga oshiradi. Olingan suvga chidamli agregatlar bug‘doy vegetatsiya davridan keyin va qisman ikkinchi yilda ham saqlanib qoladi. Tuproqdagi suvga chidamli agregatlar miqdorining ko‘payishi yonbag‘irlarda tuproq yuzasidan suyuq va qattiq oqim miqdorining biroz pasayishiga olib keladi. Bu mineral o‘g‘itlar fonida bug‘doyning tuplashi va yaxshi rivojlanishi natijasida yuzaga keladi. Bo‘z tuproq mintaqasida, ayniqsa lalmi to‘q bo‘z tuproqlarda o‘rtacha eroziyaga uchrab gumus miqdori kamayganga suv-fizik xususiyatlarini yaxshilash va unumdorligini oshirish uchun sun’iy struktura hosil qiluvchi vositalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

ko‘rsatkich 54,8; 56,5 va 58,1 sm gacha yetdi. Eng yuqori o‘sish natijasi organo-mineral kompost (21 t/ga) qo‘llanilgan variantda qayd etildi. Meva tugish fazasida bu ko‘rsatkich 80,4 va 79,6 smni tashkil etib, nafaqat o‘g‘itsiz-nazorat varianti, balki faqat mineral o‘g‘it qo‘llanilgan variantlarga nisbatan mos ravishda, 11,9 va 16,4 sm ga yuqori bo‘ldi.

Mineral o‘g‘itlar (N150P120K100) va (N120P100K80) fonida organik o‘g‘it sifatida go‘ng (15 t/ga) qo‘llanilgan variantda esa o‘simlik bo‘yi ,mos ravishda ,77,3 va 76,8 smni tashkil etib, mineral o‘g‘itlar (N150P120K100) va (N120P100K80) fonida 21 t/ga organomineral kompost qo‘llanilgan (5-10) variantlarga nisbatan 3,1 va 2,8 sm past natija qayd etildi.

Kamaytirilgan mineral o‘g‘itlar foni (N120P100K80) sharoitida ham o‘simlik o‘sishi ijobiy dinamika ko‘rsatdi: bentonit (6 t/ga) qo‘llanilgan variantda gullash va meva tugish fazalarida bo‘yi, mos ravishda ,51,2 va 72,9 smni tashkil etdi; go‘ng (15 t/ga) qo‘llanilganda – 54,7 va 76,8 sm; organomineral kompost (21 t/ga) qo‘llanilgan variantda esa 57,5 va 79,6 sm ni tashkil etdi.

Mineral va organik o‘g‘itlar hamda organomineral kompostlarni pomidor asosiy poyasining balandligiga ta’siri, sm 2024 y

№	Kuzgi bug‘doydan bo‘shagan maydon	Mineral o‘g‘itlarning yillik me’yori, kg/ga			Bentonit	Go‘ng	Kompost	Pomidor poyasining balandligi, sm				
		N	P	K				3-4 chinbarg (ko‘chat)	Shonalash	Gullash	Meva tugish	Pishish
1	fon $N_{210}P_{150}K_{110}$	-	-	-	-	-	-	11,4	16,5	21,7	26,8	33,3
2		150	120	100				15,5	32,7	49,9	68,5	73,6
3		150	120	100	6			17,3	37,2	54,8	73,6	80,1
4		150	120	100		15		18,8	39,3	56,5	77,3	82,4
5		150	120	100			21	20,7	43,3	58,1	80,4	84,3
6		-	-	-			21	13,5	21,6	29,3	31,7	39,4
7		120	100	80				11,7	29,5	43,3	63,2	72,1
8		120	100	80	6			15,5	33,7	51,2	72,9	78,5
9		120	100	80		15		18,3	37,5	54,7	76,8	81,7
10		120	100	80			21	19,9	42,8	57,5	79,6	85,1
11		-	-	-			21	13,0	22,1	28,9	33,2	39,4

Tajriba davomida kuzatilishicha, vegetatsiya davri oxirida o‘simlik bo‘yining o‘sish sur’ati biroz pasaygan, bu holat tuproqda harakatchan oziq moddalar va foydali mikroorganizmlar miqdorining kamayishi bilan izohlanadi.

Pomidor hosildorligini belgilovchi asosiy vegetativ hamda generativ organlardan biri - bu uning yon shoxlar soni, bir o‘simlikdagi mevalar soni va bir dona pomidor massasi hisoblanadi. Shuning uchun ularning ko‘rsatkichlariga turli agrotexnik omillarning ta’sirini o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mineral o‘g‘itlar fonida organik o‘g‘it go‘ng va organomineral kompostlarni qo‘llash pomidor o‘simligida yon shoxlar sonining ortishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. O‘g‘it

berilmagan nazorat variantida o‘simlikning gullash va meva pishish fazalarida rivojlanish sust bo‘lib, meva pishish davrida yon shoxlar soni atigi 2,9 tani tashkil etdi. Aksincha, mineral o‘g‘itlarning oshirilgan (N150P120K100) va kamaytirilgan (N120P100K80) me’yorlarida bu ko‘rsatkich mos ravishda 6,1 va 5,9 taga etdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mineral o‘g‘itlar fonida qo‘shimcha oziqa sifatida bentonit, go‘ng va ular asosida tayyorlangan organomineral kompostlardan foydalanish pomidor o‘simligining vegetativ rivojlanish ko‘rsatkichlari, xususan yon shoxlar sonining ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu o‘zgarish ayniqsa, o‘simlik poyasi balandligining oshishi bilan parallel ravishda kuzatildi. Ayniqsa, mineral o‘g‘itlarning oshirilgan (N150P120K100) va kamaytirilgan (N120P100K80) me’yorlari fonida 21 t/ga organomineral kompost qo‘llanilgan 5 va 10-variantlarda pomidor o‘simligining yon shoxlari miqdori eng yuqori bo‘ldi. Ular mos ravishda shonalash, gullash va meva pishish fazalarida 4,7; 5,8 va 7,1 dona hamda 4,9; 5,6; 7,0 dona miqdorida qayd etildi.

Xulosa. Takroriy sabzavot ekini pomidorda 21 t/ga organomineral kompostning keyingi ta’siri fonida pomidordan keyin ekilgan oraliq ekin ukropni mineral o‘g‘itlarning N50P50K50 kg/ga me’yori bilan oziqlantirilganda tuproqning agrokimyoviy xossalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi va tuproqda qoldirgan ildiz-ang‘iz (24,6-23,41 s/ga) qoldiqlari bilan birga 114,3-105,7 kg/ga azot, 51,7-44,8 kg/ga fosfor va 114,0-110,0 kg/ga kaliy qoldirilishi ma’lum bo‘lib, tuproq unumdorligini tiklashga ijobiy ta’sir etgan. Takroriy sabzavot ekini (pomidor)+oraliq ekin (ukrop); asosiy ekin g‘o‘za almashlab ekish tizimida takroriy sabzavot ekini pomidorda qo‘llanilgan 21 t/ga kompostning dastlabki, keyingi va so‘ngi ta’sirlari natijasida mineral o‘g‘itlarni oshirilgan hamda kamaytirilgan me’yorlari bilan oziqlantirilganda quruq massa to‘planishi mineral o‘g‘itlarni o‘zi alohida qo‘llanilgan variantlarga nisbatan sezilarli ortib, pomidorda 16,96-22,51 g/o‘simlik, ukropda 26,5-30,5 g/o‘simlik, g‘o‘zada esa 64,18-82,38 g/o‘simlik yuqori bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Heuer S., Gaxiola R., Schilling R. Improving phosphorus use efficiency a complex trait with emerging opportunities// (2017). Plant J. 90. 868-885.

2. Белоусов М.А., Мадраимов И.И. Физиологическая роль калия и значение калийных удобрений в получении высокого урожая и улучшения качества хлопка-сырца// В кн. «Вопросы питания и биологии хлопчатника», СоюзНИХИ. – Ташкент, 1960. - С. 128-129.

3. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах. – Ташкент. СоюзНИХИ. 1963. С.439.

4. Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari – Toshkent. 2007. 145 b.

5. Спирина В.З., Соловьева Т.П. Агрохимические методы исследования почв, растений и удобрений. – Т.: Томского Государственного Университета. 2014. – С. 347.

UTC: 631.4

SALINITY OF SOILS OF THE DRIED-UP BOTTOM OF THE ARAL SEA

Samad Makhammadiyev,
Associate professor of the Department of Soil Science, Faculty of biology and ecology dotsenti
e-mail: mahammadiev3@gmail.com

Tokhtasin Abdrakhmanov,
Professor of the Department of Soil Science, Faculty of biology and ecology
e-mail: to.abdraxmonov@nuu.uz

Sattarov Djurakul,
Professor of the Department of Soil Science, Faculty of biology and ecology,
e-mail: sattarovjurakul@gmail.com

Jabbarov Zafarjon,
Professor of the Department of Soil Science, Faculty of biology and ecology
e-mail: zafarjonjabbarov@gmail.com

Shokhrukh Abdullayev,
Teacher of the Department of Soil Science, Faculty of biology and ecology,teacher
e-mail: sh.abdullayev@nuu.uz

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Annotation. This study investigates the physico-chemical stratification and salinity dynamics of residual–marshy soils formed on the dried bed of the Aral Sea. Field investigations were conducted at experimental plots located in the Aral Lowland (“0” point), covering a soil profile depth of 0–200 cm. The results reveal a pronounced vertical heterogeneity in salt distribution, with moderate to strong salinity prevailing within the 0–45 cm layer. The dominant salinity types are chloride–sulfate and magnesium–sodium. Maximum accumulation of dry residue and soluble salts was observed in the 0–2 cm and 22–29 cm horizons, which is attributed to intense surface evaporation and capillary rise of shallow groundwater. The exchangeable cation composition is dominated by Mg^{2+} and Na^{+}, indicating hydromorphic soil formation conditions. The findings provide valuable insights into soil degradation processes and serve as a scientific basis for developing effective reclamation and land restoration strategies in the dried Aral Sea region.

Key words: Aral Sea, residual-marshy soils, soil salinity, ion distribution, land degradation.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований физико-химической стратификации и динамики засоления остаточно-болотных почв высохшего дна Аральского моря. Исследования проведены на экспериментальных участках Аральской низменности («точка 0») по профилю 0–200 см. Установлено, что распределение солей по вертикали отличается выраженной неоднородностью: в слое 0–45 см преобладает среднее и сильное засоление хлоридно-сульфатного и магниево-натриевого типа. Максимальное накопление сухого остатка и легкорастворимых солей отмечено в слоях 0–2 см и 22–29 см, что связано с процессами испарения и капиллярного подъема грунтовых вод. В составе поглощающего комплекса доминируют Mg^{2+} и Na^{+}, что отражает гидроморфный характер почвообразования. Полученные результаты имеют важное значение для оценки деградации почв и разработки научно обоснованных мер по рекультивации засоленных земель высохшего дна Аральского моря.

Ключевые слова: Аральское море, остаточно-болотные почвы, засоление, ионный состав, деградация почв.

Annotatasiya. Ushbu tadqiqot Orol dengizining qurigan tubida shakllangan qoldiq–botqoq tuproqlarning fizik-kimyoviy qatlamlanishi va sho‘rlanish dinamikasini baholashga bag‘ishlangan. Tadqiqotlar Orolbo‘yi pasttekisligining “0” nuqtasida joylashgan tajriba maydonlarida 0–200 sm chuqurlik bo‘yicha olib borildi. Natijalar tuproq profilida tuzlarning notekis taqsimlanganligini ko‘rsatdi: 0–45 sm qatlamda o‘rtacha va kuchli sho‘rlanish ustun bo‘lib, sho‘rlanish turi asosan xlorid–sulfat va magniy–natriy xususiyatiga ega. Quruq qoldiq va eruvchan ionlarning maksimal to‘planishi 0–2 sm hamda 22–29 sm qatlamlarda qayd etildi, bu bug‘lanish va grunt suvlari kapillyar ko‘tarilishi bilan izohlanadi. Almashinuvchi kationlar tarkibida Mg^{2+} va Na^{+} ustunligi tuproqning gidromorf sharoitda shakllanganligini ko‘rsatadi. Olingan natijalar Orol dengizi qurigan tubida tuproq degradatsiyasini baholash va rekultivatsiya choralarini ishlab chiqishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Orol dengizi, qoldiq-botqoq tuproqlar, sho‘rlanish, ionlar taqsimoti, tuproq degradatsiyasi.

Intarduction. The Aral Sea region has undergone profound environmental changes over the past decades, primarily due to anthropogenic water withdrawals and climatic variations[1]. highlighted the dynamics of vegetation in the Aral Sea coast, noting significant shifts in plant communities as a result of both natural and anthropogenic factors. The study emphasized that these changes have led to a decline in biodiversity and alterations in ecosystem services. Similarly [2], demonstrated the potential of combining soil data with remote-sensing information to detect salinity hazards in semi-arid regions, underscoring the importance of integrated monitoring for sustainable land management [3].Provided comprehensive remote sensing and ground-based analyses of the dried Aral Sea bed, revealing extensive soil salinization and degradation processes. According to [4], accurate agricultural data are critical for assessing soil quality and guiding mitigation strategies in such degraded areas [5]. employed optical Sentinel-2 imagery and nonlinear regression models to estimate soil salinity in the dried bed of Urmia Lake, which parallels the challenges observed in the Aral Sea Basin [6]. Modeled irrigated cotton production under shallow groundwater conditions in the Aral Sea Basin, illustrating how soil salinity dynamics can influence crop yields [7]. Examined aridity indices in Southern Italy, providing a methodological framework that can be applied to arid regions like Central Asia. Similarly, global datasets on precipitation and evapotranspiration, as compiled by [8], offer crucial insights into drought and desertification trends relevant to the Aral Sea [9]. Further corroborated the extensive degradation of the Aral Sea bed through combined remote and ground studies, emphasizing the need for sustainable restoration measures [10]. Analyzed temporal and spatial changes in temperature and precipitation in Central Asia, highlighting significant climatic pressures on water resources and soil quality [11]. Proposed bias-correction techniques for aridity index simulations, enhancing the accuracy of climate model projections for dryland regions [12]. Investigated the impact of plantation development on biological soil crusts and topsoil properties in northern China, which can inform rehabilitation strategies for degraded soils in the Aral region[13]. Studied the differential response of soil microbes and endophytes to geochemical changes, highlighting the importance of microbial monitoring in environmental assessments[14]. Documented temperature changes in Central Asia between 1979 and 2011, reinforcing the observed trends of regional warming and its implications for soil salinization[15]. Evaluated the potential cooling effect of Aral Sea restoration, demonstrating the

interconnection between hydrological interventions and local climate moderation [16]. Combined remote sensing and modeling approaches to assess soil salinity in irrigated areas, offering practical guidance for sustainable agriculture in the basin [17,18]. Documented dust and sand transport across the Aral Sea region, underscoring the ecological consequences of land desiccation [19]. Explored remediation techniques and biochar applications in degraded soils, suggesting feasible approaches to restore soil health in saline-affected areas[21]. Analyzed changes in soil properties and enzyme activities along afforestation gradients on the dry Aral Sea bed, demonstrating positive effects of vegetation restoration [22]. Provided an overview of historical and current ecological conditions in the Aral region, emphasizing long-term environmental degradation [23]. Assessed irrigated land salinization, illustrating the critical interplay between agricultural practices and soil degradation [24]. Analyzed drought dynamics in Central Asia using GRACE data, confirming widespread water stress and its implications for regional soils[25]. Proposed a remote sensing-based approach for hydro-saline land degradation assessment, reinforcing the role of geospatial techniques in monitoring[26]. Studied the effect of biopreparations on cotton under salinization, highlighting practical interventions to mitigate soil stress [27]. Documented glacier changes in the Eastern Pamir, indirectly affecting water availability and soil conditions downstream [28]. Identified potential vegetation establishment areas on the dried Aral Sea floor using satellite imagery, contributing to restoration planning. Provided foundational knowledge on heavy metal uptake and soil interactions, relevant to contaminated sites. Examined human vulnerability to climate change in the Aral Sea Basin, emphasizing socio-environmental feedbacks utilized satellite monitoring to assess large-scale water storage depletion, directly linking hydrological changes to soil degradation mapped cropland abandonment in the basin, illustrating land-use changes as a driver of ecological transformation. Finally, evaluated the impact of soil nutrient medium on crop yields, demonstrating the agricultural significance of soil restoration in the Aral Sea region. These studies collectively underscore the complex interactions between climate, hydrology, soil salinization, vegetation dynamics, and human interventions in the Aral Sea Basin. Integrated monitoring, remote sensing, and sustainable management practices are essential for mitigating environmental degradation and promoting ecosystem recovery.

1. Result

1.1 Residue Content and Salinity

In the “0” point residual-marshy soils of the Aral region, studied on 0–10 ha plots, the dry residue content ranged from 4.835% to 1.979%, progressively decreasing with increasing soil depth. The highest accumulation of dry residue was observed in the 0–2 cm and 22–29 cm layers, whereas deeper horizons contained lower amounts, ranging from 0.61% to 1.91%. This vertical pattern indicates that organic matter is primarily concentrated in the surface and intermediate horizons, likely reflecting the combined effects of plant litter deposition and limited decomposition under marshy conditions.

1.2. Carbonates and Salinity Indices

The concentration of bicarbonates (HCO_3^-) was low, fluctuating between 0.003% and 0.015%, suggesting minimal carbonate accumulation in these soils. The chloro-sulfate index (CI) ranged from 0.390% to 0.900%, while sulfate ion (SO_4^{2-}) content decreased from 2.850% to 0.860% with depth. Calcium (Ca^{2+}) concentrations varied between 0.453% and 0.185%, magnesium (Mg^{2+}) ranged from 0.597% to 0.140%, and sodium (Na^+) remained relatively constant between 0.013% and 0.019%.This ion composition characterizes the soils as chloride-sulfate type salinized,

ranging from moderately to highly saline in the 0–45 cm soil layer. Such vertical distribution of soluble salts is consistent with patterns commonly observed in marshy soils under arid and semi-arid conditions, influenced by capillary rise and evaporation.

1.3. Chloride and Sulfate Ions

Chloride (Cl^-) concentrations fluctuated between 0.27% and 1.18% across soil horizons, whereas sulfate (SO_4^{2-}) varied from 0.120% to 0.480%, with maxima recorded in the 0–2 cm and 22–29 cm layers. These trends indicate that soluble salts accumulate primarily in the surface and near-intermediate horizons, likely as a result of evaporation and shallow groundwater dynamics.

1.4. Calcium and Magnesium Ions

Calcium (Ca^{2+}) ions were highest in the 0–2 cm and 2–6 cm layers, while deeper horizons showed markedly lower concentrations (0.010% to 0.160%). Magnesium (Mg^{2+}) exhibited a decreasing trend with depth. This pattern is typical of marshy saline soils, where soluble cations accumulate in the upper horizons due to surface salinization and limited leaching in waterlogged conditions. The residual-marshy soils of the Aral Lowland "0" point and Moynaq district were analyzed for residue content. In the upper layers (0–2 cm), residue content ranged from 2.69% to 43.00%, while in deeper horizons it decreased to 0.49–1.91% (Pic.1).




Figure 2. Vertical distribution of Cl^- and SO_4^{2-} ions (%)

The observed vertical distributions of dry residue and soluble ions in the residual-marshy soils of the Aral region demonstrate moderate to strong salinization within the 0–45 cm layer, predominantly of the chloride-sulfate type. The dual peaks in residue and salt content at 0–2 cm and 22–29 cm indicate layered accumulation resulting from:

· Surface evaporation, leading to salt and organic matter concentration in the topsoil.

· Capillary rise from shallow groundwater, promoting accumulation in intermediate horizons.

· Negligible carbonate formation, characteristic of marshy and waterlogged conditions.These findings are essential for understanding soil fertility and salinity dynamics in degraded marshy soils of the Aral Sea region. They suggest that effective soil reclamation strategies, including leaching or amendment applications, may be necessary to mitigate salinity in

the upper horizons and improve agricultural potential. The higher residue content in the upper layers indicates organic matter accumulation. The decrease with depth correlates with increased salinity and ion concentration.

2. Salinity Chemistry

The salinity types in Aral Lowland "0" point soils were as follows:

· Upper layers: chloride-sulfate, slightly saline.

· Lower layers: chloride, sulfate-chloride, moderately to strongly saline.

• **Discussion:** Chloride dominates in the upper layers, while lower layers contain a mixed sulfate-chloride salinity, reflecting the soil's hydromorphic characteristics. Magnesium ions (Mg^{2+}) in the studied layers ranged from 0.12% to 0.13% in the upper horizons, whereas in the lower horizons their concentration decreased to between 0.006% and 0.03%. Sodium ions (Na^{+}) did not exhibit a clear distribution pattern across the soil profile. Specifically, in the 6–22 cm, 40–70 cm, and 85–120 cm layers, Na^{+} concentrations varied between 0.08% and 0.14%, while in other horizons, chloride ion (Cl^{-}) content was relatively high, ranging from 0.28% to 0.62%.

3. Exchangeable Cations

The distribution of exchangeable cations in 0–120 cm layers is summarized as follows:

Ion	Upper Layer (%)	Lower Layer (%)	**Notes**
Ca^{2+}	26.1–61.6	1.4–8.0	**Supports soil structure in upper horizons**
Mg^{2+}	35.4–72.2	6–49	**Dominant with Na^{+}**
K^{+}	0–0.1	0.1–0.9	**Very low**
Na^{+}	1.2–2.9	27–86.5	**High in lower horizons**




Figure 3. Vertical distribution of exchangeable cations (mg/eq) in residual-marshy soils

Mg^{2+} and Na^{+} dominate the soil's exchange complex, while Ca^{2+} is concentrated in upper layers supporting soil structure. K^{+} plays a minor role.The vertical variation reflects salinity and hydromorphic processes. The elevated chloride levels in certain horizons suggest localized salt accumulation, which may be influenced by capillary rise, evaporation, and shallow groundwater interactions. These results indicate that Mg^{2+} is concentrated in the surface layers, likely due to limited leaching and evapoconcentration, whereas Na^{+}distribution is irregular, reflecting the complex dynamics of soluble salts in marshy saline soils.

Conclusions

Based on the comprehensive experimental studies conducted on the dried bed of the Aral Sea, the following conclusions can be drawn: Heterogeneous Soil Salinity: The semi-consolidated sandy desert–salt marsh soils of the Aral Sea's dried bed exhibit non-uniform salt distribution across vertical layers. In the first experimental plot, moderate salinity was observed in the 0–22 cm layer, weak salinity in the 22–145 cm layer, and moderate salinity in the 145–200 cm layer, predominantly of magnesium-sodium type. In the second

plot, strong salinity extended uniformly across the 0–155 cm profile, primarily of calcium-magnesium type. Variable Accumulation of Toxic Salts: The accumulation and vertical distribution of toxic salts do not follow a consistent pattern. In the first experimental site, salt concentration peaked in the 0–2 cm layer, decreased between 2–150 cm, and increased again at 150–200 cm. In the second site, salts were evenly distributed throughout the 0–155 cm profile.

Acknowledgments

The authors express their gratitude to the Agency for Innovative Development of the Republic of Uzbekistan and the leadership of the Faculty of Biology and Ecology, who funded this research under the project AL-9424104858: "Creating optimal conditions for plant growth by improving the properties and characteristics of residual-marsh saline soils on the dried bottom of the Aral Sea".

References

1. Dimeyeva, L. (2015). Natural and anthropogenic dynamics of vegetation in the Aral Sea coast. American Journal of Environmental Protection, 4(3-1), 136–142. https://doi.org/10.11648/j.ajep.s.2015040301.31

2. Douaoui, A. E. K., Nicolas, H., & Walter, C. (2006). Detecting salinity hazards within a semiarid context by means of combining soil and remote-sensing data. Geoderma, 134, 217–230. https://doi.org/10.1016/j.geoderma.2006.03.008.

3. Dukhovny, V. A., Navratil, P., Ruziev, I., Stulina, G., & Roschenko, Y. (2008). Comprehensive remote sensing and ground-based studies of the dried Aral Sea bed. Tashkent: SIC ICWC.

4. FAO. (2004). FAO agricultural data. United Nations-Food and Agriculture Organization. http://apps.fao.org/.

5. Farahmand, N., & Sadeghi, V. (2020). Estimating soil salinity in the dried lake bed of Urmia Lake using optical Sentinel-2 images and nonlinear regression models. Journal of the Indian Society of Remote Sensing, 48, 675–687. https://doi.org/10.1007/s12524-020-01047-1.

6. Forkutsa, I., Sommer, R., Shirokova, Y. I., Lamers, P. A., Kienzler, K., Tischbein, B., Martius, C., & Vlek, P. L. (2009). Modeling irrigated cotton with shallow groundwater in the Aral Sea Basin of Uzbekistan: II. Soil salinity dynamics. Irrigation Science, 27, 319–330. https://doi.org/10.1007/s00271-009-0149-0.

7. Pellicone, G., Caloiero, T., & Guagliardi, I. (2019). The De Martonne aridity index in Calabria (Southern Italy). Journal of Maps, 15(2), 788–796. https://doi.org/10.1080/17445647.2019.1673840.

8. Spinoni, J. (2015). World atlas of desertification: Part V – convergence of evidence. WAD3-JRC. https://wad.jrc.ec.europa.eu/drought.

9. GTZ & ICWC. (2007). Comprehensive remote and ground studies of the dried Aral Sea bed. SIC ICWC.

10. Haag, I., Jones, P. D., & Samimi, C. (2019). Central Asia's changing climate: How temperature and precipitation have changed across time, space, and altitude. Climate, 7(10), 123. https://doi.org/10.3390/cli7100123.

11. Yu, H., Zhang, Q., Wei, Y., Liu, C., Ren, Y., Yue, P., & Zhou, J. (2021). Bias-corrections on aridity index simulations of climate models by observational constraints. International Journal of Climatology. https://doi.org/10.1002/joc.7279.

12. Zhao, H.-L., Guo, Y.-R., Zhou, R.-L., & Drake, S. (2011). The effects of plantation development on biological soil crust and topsoil properties in a desert in northern China. Geoderma. https://doi.org/10.1016/j.geoderma.2010.10.005.

13. Jiang, H., Huang, J., Li, L., Huang, L., Manzoor, M., Yang, J., Wu, G., Sun, X., Wang, B., Egamberdieva, D., Panosyan, H., Birkeland, N.-K., Zhu, Z., & Li, W. (2021). Onshore soil microbes and endophytes respond differently to geochemical and mineralogical changes in the Aral Sea. Science of the Total Environment, 765, 142675. https://doi.org/10.1016/j.scitotenv.2020.142675.

14. Hu, Z., Zhang, C., Hu, Q., & Tian, H. (2014). Temperature changes in Central Asia from 1979 to 2011 based on multiple datasets. Journal of Climate, 27, 1143–1167. https://doi.org/

10.1175/JCLI-D-13-00245.1.

15. He, H., Hamdi, R., Luo, G., Cai, P., Yuan, X., Zhang, M., Termonia, P., De Maeyer, P., & Kurban, A. (2022). The summer cooling effect under the projected restoration of Aral Sea in Central Asia. Climatic Change, 174, 13. https://doi.org/10.1007/s10584-022-03434-8.

16. Ibrakhimova, M., Awan, U. K., Sultanov, M., Akramkhanov, A., Djumaboev, K., Conradd, C., & Lamers, J. (2019). Combining remote sensing and modeling approaches to assess soil salinity in irrigated areas of the Aral Sea Basin. Central Asian Journal of Water Research, 5(2), 65–81. https://doi.org/10.29258/cajwr.v5i2.423.

17. Indoitu, R., Kozhoridze, G., Batyrbaeva, M., Vitkovskaya, I., Orlovsky, N., Blumberg, D., & Orlovsky, L. (2015). Dust emission and environmental changes in the dried bottom of the Aral Sea. Aeolian Research, 17, 101–115. https://doi.org/10.1016/j.aeolia.2015.02.004.

18. Issanova, G., Abuduwaili, J., Galayeva, O., Semenov, O., & Bazarbayeva, T. (2015). Aeolian transportation of sand and dust in the Aral Sea region. International Journal of Environmental Science and Technology, 12, 3213–3220. https://doi.org/10.1007/s13762-015-0753-x.

19. Jabbarov, Z., Jobborov, B., Fakhrutdinova, M., Iskhokova, Sh., Abdurakhmonov, N., Zakirova, S., & Makhammadiev, S. (2021a). Remediation of the technogenic soils. Annals of R.S.C.B., 25(1), 4503–4510. http://annalsofrscb.ro/index.php/journal/article/view/592.

20. Jabbarov, Z. A., Egamberdieva, D., Davranov, Q., Shurigin, V., Maxammadiev, S., Alimov, J., & Sultanova, N. (2021b). Degradatsiyaga uchragan tuproqlarning ekologik holatiga biocharning ta'siri. Ekologiya Xabarnomasi, 3, 36–38.

21. Ana, J., Chang, H., Han, S. H., Khamzina, A., & Son, Y. (2020). Changes in basic soil properties and enzyme activities along an afforestation series on the dry Aral Sea Bed, Kazakhstan. Forest Science and Technology, 16(1), 26–31. https://doi.org/10.1080/21580103.2019.1705401.

22. Jumanazarova, D. (2022). Orolning kechagi va hozirgi ekologik holati. Science and Innovation, 4.

23. Karlykhanov, O., & Toktaganova, G. (2016). The assessment of irrigated land salinization in the Aral Sea region. International Journal of Environmental & Science Education, 11(15), 7946–7960.

24. Feng, K., Zhang, Y., Cao, Y., & Shen, Y. (2021). Temporal and spatial dynamics of drought in Central Asia during 2002–2017 based on GRACE data. https://www.researchgate.net/publication/354405160.

25. Khan, N. M., Rastoskuev, V. V., Sato, Y., & Shiozawa, S. (2005). Assessment of hydro saline land degradation by using a simple approach of remote sensing indicators. Agricultural Water Management, 77, 96–109. https://doi.org/10.1016/j.agwat.2005.05.004.

26. Khojanazarova, M. K., Murodova, S. S., Sanakulov, S. F., & Turdaliev, J. M. (2003). Influence of biopreparation "Zamin-M" on cotton plants (Gossypium hirsutum) under soil salinization in Uzbekistan. Plant and Soil, 255, 571–586. https://doi.org/10.1023/A:1026137502846.

27. Khromova, T. E., Osipova, G. B., Tsvetkov, D. G., Dyurgerov, M. B., & Barry, R. G. (2006). Changes in glacier extent in the Eastern Pamir, Central Asia, determined from historical data and ASTER imagery. Remote Sensing of Environment, 102(1), 24–32. https://doi.org/10.1016/j.rse.2006.01.019.

28. Kim, J., Song, C., Lee, S., Jo, H. W., Park, E., Yu, H., Cha, S., An, J., Son, Y., Khamzina, A., et al. (2020). Identifying potential vegetation establishment areas on the dried Aral Sea floor using satellite images. Land Degradation & Development, 31, 2749–2762. https://doi.org/10.1002/ldr.3526.

QISHLOQ XO‘JALIGI EKINLARIDA O‘G‘ITLAR ISTE’MOLINI OPTIMALLASHTIRISH

Shamsiddinov To‘lqin Shamsiddinovich, dotsent
Mirxaydarova Gulmira Sultanovna, dotsent
Karimov Muradjan Umarovich, dotsent

Toshkent davlat agrar universiteti

Annotatsiya. Maqolada 2010–2025 yillar davomida jahon qishloq xo‘jaligida va O‘zbekiston Respublikasida mineral o‘g‘itlar iste’molining dinamikasi FAO, Xalqaro o‘g‘itlar assosatsiyasi (IFA) hamda Jahon bankining statistik ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari mineral o‘g‘itlarni qo‘llash me’yorlarining oshishi har doim ham hosildorlikning mutanosib o‘sishi bilan birga kechmasligini, ayniqsa sug‘oriladigan erlarda yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida oziq moddalardan foydalanish samaradorligi (NUE) nisbatan past darajada saqlanib qolayotgani asoslanadi, bu holat tuproqlarning sho‘rlanishi, azotning yo‘qotilishi, shuningdek tuproqlarda organik moddalar miqdorining etarli emasligi bilan bog‘liqdir. Shuningdek, mineral o‘g‘itlarni haddan tashqari qo‘llashning ekologik oqibatlari, jumladan suv resurslarining ifloslanishi va tuproq degradatsiyasi masalalari ko‘rib chiqilgan.

Barqaror qishloq xo‘jaligi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlari sifatida aniq dehqonchilikni joriy etish, oziq moddalarni boshqarishning 4R konsepsiyasini qo‘llash hamda o‘simliklarni oziqlantirishda organik va mineral manbalarni integratsiyalash taklif etilgan. Olingan natijalar agrar siyosatni takomillashtirish va O‘zbekiston sharoitida o‘g‘itlash tizimlarini optimallashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: mineral o‘g‘itlar, oziqa moddalaridan foydalanish samaradorligi, 4R konsepsiyasi, aniq dehqonchilik, tuproq sho‘rlanishi, O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi.

Аннотация. В статье проанализирована динамика потребления минеральных удобрений в мировом сельском хозяйстве и в Республике Узбекистан за период 2010–2025 годов на основе статистических данных ФАО, Международной ассоциатsii удобрений (IFA) и Всемирного банка. Показано, что рост норм внесения минеральных удобрений не всегда сопровождается пропорциональным увеличением урожайности, особенно в условиях преобладания орошаемых земель. Обосновано, что в Узбекистане сохраняется относительно низкая эффективность использования питательных веществ (NUE), что связано с засолением почв, потерями азота, а также недостаточным содержанием органического вещества в почвах. Рассматриваются экологические последствия избыточного применения удобрений, включая загрязнение водных ресурсов и деградацию почв. В качестве приоритетных направлений устойчивого развития предлагаются точное земледелие, концепция управления питательными веществами 4R и интеграция органических и минеральных источников питания растений. Полученные результаты имеют практическое значение для совершенствования аграрной политики и разработки научно обоснованных рекомендации по оптимизации систем удобрения в условиях Узбекистана.

Ключевые слова: минеральные удобрения, эффективность использования питательных веществ, концепция 4R, точное земледелие, засоление почв, сельское хозяйство Узбекистана.

Annotation. This paper analyzes trends in mineral fertilizer consumption in global agriculture and in the Republic of Uzbekistan over the period 2010–2025, using statistical data from FAO, the International Fertilizer Association (IFA), and the World Bank. The results indicate that increasing fertilizer application rates does not necessarily lead to proportional yield growth, particularly under irrigated farming systems. In Uzbekistan, relatively low nutrient use efficiency (NUE) is associated with soil salinization, nutrient losses, and insufficient soil organic matter content. The study discusses environmental risks linked to excessive fertilizer use, including water pollution and soil degradation. Precision agriculture technologies, the 4R

nutrient stewardship framework, and integrated use of organic and mineral nutrient sources are identified as key pathways to improve fertilizer efficiency and ensure long-term soil fertility. The findings provide scientific support for policy development and practical recommendations aimed at enhancing sustainable fertilizer management in irrigated agricultural systems.

Key words: mineral fertilizers, nutrient use efficiency, 4R nutrient stewardship, precision agriculture, soil salinization, Uzbekistan agriculture

Mavzuning dolzarbligi. Qishloq xo‘jaligida o‘g‘itlardan foydalanish ekinlar hosildorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va tuproq unumdorligini saqlab qolishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mineral o‘g‘itlar (azotli, fosforli, kaliyli) hamda organik o‘g‘itlar (go‘ng, o‘simlik qoldiqlari) qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy resurslaridandir. Biroq o‘g‘itlardan samarali va ilmiy asoslangan foydalanish masalasi 2024–2025 yillarda ham global miqyosda dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Qishloq xo‘jaligi ko‘plab mamlakatlarda muhim iqtisodiy sektor bo‘lib qolmoqda. Qishloq xo‘jaligi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun oziq-ovqat va daromad manbaidir. Ammo qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi tabiiy resurslarning degradatsiyasiga ham olib kelishi mumkin. Noto‘g‘ri dehqonchilik usullari tuproq eroziyasi ta’sirida tuproq unumdorligini yo‘qotilishiga olib keladi. Kimyoviy o‘g‘itlar, pestitsidlar va intensiv sug‘orish orqali hosildorlikni oshirishga qaratilgan sa’y-harakatlar ekologik va salomatlik uchun xarajatlarni talab qiladi. Sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanishi natijasida tuproq unumdorligi keskin pasayishi kuzatilmoqda. Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi uchun resurslardan noto‘g‘ri foydalanish juda katta salbiy oqibatlarga olib keladi.

O‘g‘itlardan ortiqcha foydalanish atmosferaga sezilarli miqdorda issiqxona gazlarini ko‘p chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Mineral o‘g‘itlar bilan haddan tashqari oziqlantirish zararli bo‘lishi mumkin, chunki haddan tashqari ko‘p o‘g‘it "kuyish" ga olib kelishi mumkin, barglarning qurib ketishiga va o‘simlikning shikastlanishiga yoki hatto nobud bo‘lishiga olib keladi. Ko‘pgina sanoati rivojlangan mamlakatlarda o‘g‘itlardan ortiqcha foydalanish yer usti va yer osti suvlarining ifloslanishiga olib keldi. Qishloq xo‘jaligi yerlari resurslarining yagona to‘g‘ri kombinatsiyasi mavjud emas, chunki u mahalliy iqlim, yer sifati va iqtisodiy rivojlanishga bog‘liq; o‘g‘itlarni qo‘llash darajalari va me’yorlari mamlakatlar va vaqtga qarab farq qiladi, ekin turiga, iqlim, tuproqqa hamda qo‘llaniladigan ishlab chiqarish jarayonlariga bog‘liq.

O‘g‘itlar iste’moli odatda ekin maydonlariga qo‘llanilgan oziq moddalar (N, P2O5, K2O) miqdori orqali baholanadi. FAO statistik tahlillarda kalendar yil (yanvar–dekabr) konsepsiyasini qo‘llaydi. Ayrim mamlakatlar hosil yili (iyul–iyun) bo‘yicha hisob yuritishi sababli, ma’lumotlarni vaqt bo‘yicha taqqoslashda ushbu jihatni e’tiborga olish talab e’tiladi.

2024–2025 yillarda ham FAO tashkiloti tomonidan o‘g‘itlar ishlab chiqarish, import, eksport va iste’mol ko‘rsatkichlarini yangilangan metodologiya asosida, ya’ni umumiy mahsulot emas, balki oziq moddalar kesimida taqdim etishni davom ettirmoqda.

“Yashil inqilob” natijasida so‘nggi o‘n yilliklarda ko‘plab mamlakatlarda hosildorlik sezilarli oshdi. Biroq bu o‘sish barcha hududlarda bir xil kechmadi: Rivojlangan mamlakatlarda yuqori texnologiyali, intensiv dehqonchilik tizimlari ustun. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa hosildorlik ko‘pincha tuproq holati, yog‘ingarchilik, sug‘orish imkoniyatlari va urug‘lik sifatiga bog‘liq.

2024–2025 yillarda ham tadqiqotlar va agrar ta’limga sarmoya kiritish hosildorlik barqarorligining asosiy sharti sifatida qaralmoqda.


Mineral o‘g‘itlarni haddan tashqari qo‘llash qator salbiy oqibatlarga olib kelishi

mumkin:

- Atmosferaga issiqxona gazlarining chiqishi (N2O);
- Yer usti va yer osti suvlarining nitratlar bilan ifloslanishi;
- O‘simliklarda “o‘g‘it kuyishi”, barglar qurishi va hosilning pasayishi.

Shuningdek, intensiv sug‘orish bilan bog‘liq holda sug‘oriladigan yerlarda sho‘rlanish muammosi 2025 yilga kelib yanada kuchaygan global muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

FAO va Jahon Banki (World Bank) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023 yilda O‘zbekistonda bir gektar ekin maydoniga to‘g‘ri keladigan o‘g‘it sarfi taxminan 303 kg/ga ni tashkil etgan — bu 2010–2020 yillararo ko‘rsatkichlarga nisbatan ancha yuqori darajadir (1-rasm). Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonni mintaqada yuqori o‘g‘it sarfiga ega davlatlar qatoriga qo‘ymoqda va bu hosildorlikni yuqori darajada saqlashga bo‘lgan davlat siyosati va subsidiyalar bilan bog‘liq.



1-rasm. 2010–2025 yillarda mineral o‘g‘itlar iste’moli dinamikasi O‘zbekiston va Jahon o‘rtacha

Ushbu ko‘rsatkichlarni qo‘llab-quvvatlovchi omillar quyidagilardan iborat:

- Talab va eksport yo‘nalishlari. 2024 yilda agrar eksportning o‘sishi fermerlar va ishlab chiqaruvchilarni mahsulot miqdori va sifatini tez oshirishga undadi, bu esa o‘g‘itlardan foydalanish miqdorini oshirishni taqazo etdi.
- Subsidiya va kredit siyosati. Davlatning subsidiyalar va qishloq xo‘jaligi kreditlarini kengaytirishi fermerlar uchun sun’iy ravishda o‘g‘it talabini oshirdi.
- Intensiv sug‘orish va yetishtirish texnologiyalari. An’anaviy va intensiv sug‘orish tizimlari, ayniqsa bioo‘g‘it yoki mineral asosidagi o‘g‘itlarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirdi.

Biroq yuqori o‘g‘it sarfi bilan birga O‘zbekistonda qator xavflar namoyon bo‘lmoqda:

- Tuproq sho‘rlanishi va yer degradatsiyasi mahalliy darajada sezilarli darajada o‘smoqda, ayniqsa sug‘oriladigan yerlarda. UNECE va ilmiy tahlillar tuproq sho‘rlanishining xavfi yuqori ekanligini ta’kidlaydi va bu salbiy tendensiyani to‘xtatish choralarini talab qiladi.
- Nitrat bilan suvlarning ifloslanishi — ortiqcha o‘g‘itlash yer usti va yer osti suvlarini ifloslanishiga olib keladi.

Muhokama. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida o‘g‘it sarfi bo‘yicha dunyoda

peshqadam davlatlar safida turibdi, bu albatta ijobiy holat degan tushunchani bermaydi.

Quyidagi qadamlar amalga oshirilsa, O‘zbekiston yuqori o‘g‘it sarfini kamaytirgan holda hosildorlikni barqaror saqlay oladi va tuproqning degradatsiyasini sekinlashtirishi mumkin:

1. O‘g‘itlarning hududiy-tartibli miqdorini belgilash. Har bir viloyat va sho‘rlangan maydon uchun tuproq tahliliga asoslangan mahalliylashtirilgan qo‘llanmalar ishlab chiqish kerak. Bu maqsadga qaror qabul qilishda mahalliy laboratoriyalar tarmog‘ini kengaytirish va tuproq namunasi olish tizimini rivojlantirish zarur.

2. Aniq qishloq xo‘jaligi texnologiyalarini joriy etish. Dronlar, sensorlar va yer yo‘ldoshlari kuzatuvlari orqali o‘g‘itlarni faqat zarur bo‘lgan joy va vaqtda qo‘llash (variable rate application) o‘g‘it sarfini kamaytiradi va hosildorlikni saqlaydi.

3. Sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish va drenaj tizimini kuchaytirish zarur. Sho‘rlanishni kamaytirish maqsadida samarali drenaj hamda yuvish (leaching) rejalarini joriy etish, shuningdek, suv resurslarini tejovchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish lozim.

4. Subsidiyalar va kredit mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish. Hozirgi subsidiyalar o‘g‘itga bo‘lgan talabni oshirayotgan bo‘lsa, ularni ekologik sharoitga bog‘langan holda — masalan, organik o‘g‘itlarga, biostimulyatorlarga va aniq qishloq xo‘jaligi uskunalariga subsidiyalarni oqilona yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

5. Tuproq va suv monitoringiga investitsiya kiritish zarur. Vakolatli laboratoriyalar va mintaqaviy monitoring tizimlari orqali nitratlar, fosfatlar hamda elektr o‘tkazuvchanlik (EC) ko‘rsatkichlarini muntazam kuzatish sho‘rlanish va ifloslanishni erta aniqlash imkonini beradi.

6. Agronomik ta’lim va konsultatsiya xizmatlari. Fermerlar uchun amaliy o‘quv kurslar, mobil ilovalar va tashrifchilar orqali zamonaviy o‘g‘it qo‘llash bo‘yicha tavsiyanomalarni tarqatish kerak.

7. Organik va mineral o‘g‘itlarni birgalikda qo‘llashni joriy etish (integratsiya). Kompost, go‘ng va biostimulyatorlarni kompleks tarzda qo‘llash tuproq organik moddasini ko‘paytiradi va o‘z navbatida o‘g‘it samaradorligini oshiradi.

Quyida O‘zbekistonda mineral o‘g‘itlar iste’molining dinamikasi, o‘g‘it sarfi, qishloq xo‘jaligida asosiy ekologik xavflar va ularni o‘g‘itlar bilan bog‘liqligi, optimallashtirilgan o‘g‘it boshqarish choralari jadvallarda keltirilgan (1,2,3,4-jadvallar).

1-jadval

2020–2023 yillarda ayrim mamlakatlarda o‘g‘it sarfi (kg/ga)

Давлатлар	2020 йил	2023 йил
Хитой	383,3	~360
Япония	238,2	~230
АҚШ	126,1	~125
Туркия	149,6	~155
Ўзбекистон	**254,5**	**~300**

2-jadval

2020–2023 yillarda ayrim mamlakatlarda o‘g‘it sarfi (kg/ga)

Yil	O‘g‘it sarfi, kg/ga	Izoh
2010	205,4	FAO ma’lumotlari, intensivlashuv boshlanishi
2015	228,0	Subsidiya va sug‘orish hajmlarining oshishi
2020	254,5	FAO rasmiy ma’lumotlari
2022	287,0	Geosiyosiy inqiroz fonida hosildorlikni saqlash siyosati
2023	~300,0	Ilmiy baholashlar va ochiq statistika asosida

Eslatma: 2022–2023 yillar uchun ko‘rsatkichlar FAO va Jahon Banki ochiq ma’lumotlari asosida hisoblangan yaqinlashtirilgan qiymatlardir.

3-jadval

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida asosiy ekologik xavflar va ularni o‘g‘itlar bilan bog‘liqligi

Muammo	Asosiy sabab	O‘g‘itlar bilan bog‘liq jihat
Tuproq sho‘rlanishi	Intensiv sug‘orish, drenaj yetishmasligi	Azotli va kaliyli o‘g‘itlarning tuzli fonni kuchaytirishi
Suv ifloslanishi	Ortiqcha o‘g‘itlash	Nitrat yuvilishi
Tuproq organik moddasining kamayishi	Organik manbalar yetishmasligi	Mineral o‘g‘itlarga bir tomonlama tayanish

4-jadval

O‘zbekiston sharoiti uchun optimallashtirilgan o‘g‘it boshqarish choralari

Yo‘nalish	Amaliy chora	Kutilayotgan natija
Tuproq tahlili	Maydonga xos tahlillar	O‘g‘it sarfini 10–20% kamaytirish
Aniq qishloq xo‘jaligi	Variable rate texnologiyalari	Samaradorlik oshishi
Organik–mineral integratsiya	Go‘ng, kompost, biostimulyator	Tuproqni sog‘lomlashtiradi
Sug‘orishni modernizatsiyalash	Tomchilatib sug‘orish	Sho‘rlanish xavfini kamaytirish

2022 yildan boshlab geosiyosiy ziddiyatlar va pandemiya oqibatlari o‘g‘itlar bozoriga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. 2024–2025 yillarda ham: energiya narxlarining o‘zgarishi o‘g‘it ishlab chiqarish xarajatlarini oshirmoqda; ayrim mamlakatlarning eksport cheklovlari global ta’minot zanjirlarini zaiflashtirmoqda; bu holat oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita tahdid solmoqda.

Aniq qishloq xo‘jaligi va 4R konsepsiyasi

Zamonaviy yondashuvlar orasida aniq qishloq xo‘jaligi alohida ahamiyatga ega. U ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va qaror qabul qilish orqali o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Aniq qishloq xo‘jaligi orqali oziqa moddalardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin. Aniq qishloq xo‘jaligi - ekinlarni boshqarishni yaxshilash uchun turli ma’lumotlar manbalarini to‘plash, qayta ishlash va tahlil qilish uchun yangi usullar va texnologiyalardan foydalanadi. Maqsad dehqonchilik faoliyatini yanada mukamallashtirish va kamroq resurslar, jumladan o‘g‘itlardan samarali foydalangan holda hosildorlik va umumiy sifatini oshirishdir. Aniq qishloq xo‘jaligi o‘simliklarning oziqlanishi, tuproq sog‘lomligi, ekinlar sifati va hosildorligi bo‘yicha turli xil ekin va maydonga xos ma’lumotlarni taqdim etish orqali fermerlarga tuproqdagi oziqa moddalarni yanada aniqroq kuzatish, boshqarish va qo‘llashda yordam beradi. Bugungi kunda qishloq xo‘jaligida o‘g‘itlarni yanada aniqroq va samaraliroq qo‘llash, mavjud qishloq xo‘jaligi yerlarining hosildorligini oshirish va atrof-muhitga ozuqa moddalarining yo‘qotilishini kamaytirishga yordam beradigan ko‘plab aniq qishloq xo‘jaligi uskunalari mavjud.

O‘simliklar biostimulyatorlari o‘simliklarning abiotik stressga chidamliligini, oziqaviy moddalardan foydalanish samaradorligini, hosildorlikni va ekinlarning sifatini yaxshilash qobiliyati tufayli barqaror qishloq xo‘jaligi uchun muhim vositadir. Ular o‘simliklar tomonidan tuproqda mavjud bo‘lgan ma’lum oziq moddalarning assimilyasiyasini kuchaytiradi. Biostimulyatorlar o‘g‘itlarga

qaraganda, o‘simlikni to‘g‘ridan-to‘g‘ri oziqlantirmaydi, balki o‘zining fiziologik mexanizmlarini ishga tushiradi, hamda tuproq mikrobiomini boyitishi va zarar-kunandalar yoki kasalliklarga bevosita ta’sir ko‘rsatmasligi bilan o‘simliklarni himoya qilish vositalaridan farq qiladi. Shuning uchun ekin biostimulyasiyasi fermerlar uchun mavjud bo‘lgan 4R1 ozuqaviy moddalarni boshqarish vositalarining bir qismidir.

4R (1.Right Source (to‘g‘ri manba), 2.Right Rate (to‘g‘ri me’yor), 3.Right Time (to‘g‘ri vaqt), 4.Right Place (to‘g‘ri joy)) o‘simliklarni oziqlantirishning optimal boshqarish konsepsiyasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1.To‘g‘ri manba (Right Source) – ekin ehtiyojiga mos o‘g‘it turini tanlash;

2.To‘g‘ri me’yor (Right Rate) – oziq moddalarni yetarli, ammo ortiqcha bo‘lmagan miqdorda qo‘llash;

3.To‘g‘ri vaqt (Right Time) – o‘simlik ehtiyoji eng yuqori bo‘lgan davrda o‘g‘itlash;

4.To‘g‘ri joy (Right Place)– oziq moddalarni ildiz zonasiga aniq yetkazish.

(Qisqacha aytganda: o‘g‘it – doridek, me’yoridan oshsa shifo emas, tashvish bo‘ladi.)

Biostimulyatorlar va integratsiyalashgan yondashuv

2024–2025 yillarda o‘simlik biostimul-yatorlari barqaror qishloq xo‘jaligining muhim elementi sifatida qaralmoqda. Ular:

- Oziq moddalarning o‘zlashtirilishini yaxshilaydi;
- Abiotik stressga chidamlilikni oshiradi;
- Mineral o‘g‘itlar samaradorligini to‘ldiradi.

Evropa Ittifoqining (EI) 2019/1009 reglamenti biostimulyatorlarni alohida mahsulot toifasi sifatida tan olgan bo‘lib, bu yondashuv 2025 yilga kelib boshqa mintaqalarda ham keng tarqalmoqda.

Ushbu tahlil natijalari O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida mineral o‘g‘itlardan foydalanish darajasi hosildorlikni saqlash va oshirish nuqtai nazaridan asoslangan bo‘lsa-da, resurslardan foydalanish samaradorligi (NUE, PUE) yetarlicha yuqori emasligini ko‘rsatadi. Bir gektarga to‘g‘ri keladigan o‘g‘it sarfining 300 kg/ga atrofiga yetishi hosildorlik o‘sishi bilan to‘liq proporsional emas. Bu holat oziq moddalarning yo‘qotilishi, tuproq sho‘rlanishi va organik modda tanqisligi bilan bog‘liq.

Xalqaro tajriba (AQSh, Yaponiya, YeI davlatlari) shuni ko‘rsatadiki, yuqori hosildorlikka erishish uchun o‘g‘it miq-dorini oshirish emas, balki aniq qishloq xo‘jaligi, 4R oziq moddalarni boshqarish va organik–mineral integratsiya hal qiluv-chi ahamiyatga ega. O‘zbekiston sha-roitida sug‘oriladigan yerlar ustun bo‘lgani uchun, bu omillarga suv boshqaruvi va drenaj tizimlari ham qo‘shilishi lozim.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida degradatsiyaga uchragan qishloq xo‘jaligi yerlarining monitoring tizimini takomillashtirish masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda GAT texnologiyalari, masofaviy zondlash ma’lumotlari (NDVI, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari) hamda, uchuvchisiz uchish qurilmalaridan olingan yuqori aniqlikdagi tasvirlar asosida degradatsiya jarayonlari kompleks baholash masalalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Yer degradatsiyasi, NDVI, dron monitoringi, GAT, masofaviy zondlash, sho‘rlanish, eroziya, monitoring.

Аннотация. В данной статье научно освещены вопросы совершенствования системы мониторинга деградированных сельскохозяйственных земель в условиях Узбекистана. В исследовании представлены аспекты комплексной оценки деградационных процессов на основе современных ГИС-технологий, данных дистанционного зондирования (NDVI, спутниковые изображения), а также высокоточных снимков, полученных с беспилотных летательных аппаратов.

Ключевые слова: деградация земель, NDVI, дрон-мониторинг, ГАТ, дистанционное зондирование, засоление, эрозия, мониторинг.

Annotation. This article provides a scientific overview of improving the monitoring system of degraded agricultural lands in Uzbekistan. The study presents the issues of comprehensive assessment of land degradation processes using modern GIS technologies, remote sensing data (NDVI, satellite imagery), and high-resolution images obtained by unmanned aerial vehicles.

Key words: land degradation, NDVI, drone monitoring, GAT, remote sensing, salinization, erosion, monitoring.

Kirish. So‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida yer resurslarining degradatsiyaga uchrashi global miqyosda eng jiddiy ekologik va agronomik muammolardan biriga aylandi. BMTning Global Land Outlook hisobotiga ko‘ra [4], dunyodagi quruqlik maydonlarining qariyb 40 foizi turli darajadagi degradatsiya jarayonlariga duch kelgan bo‘lib, har yili 10 mln gektar unumdor yerlar qishloq xo‘jaligi oborotidan chiqmoqda. O‘zbekiston sharoitida ham sho‘rlanish, eroziya, botqoqlashish, tuproqning zichlashuvi, suv tanqisligi kabi omillar natijasida degradatsiya jarayonlari kuchayib bormoqda.

Mazkur sharoitda degradatsiyaga uchragan qishloq xo‘jaligi yerlarini aniq, tezkor va uzluksiz monitoring qilish tizimini yaratish qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. GAT texnologiyalari, masofaviy zondlash (NDVI, dronlar), sun’iy intellekt asosidagi tahlillar monitoring samaradorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

2022 yil 10 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 277-son qarori qabul qilindi [1].

Ushbu qaror bilan Qishloq xo‘jaligi vazirligiga yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish bo‘yicha yagona davlat siyosatini yuritish, bunda ishtirok etuvchi vazirliklar faoliyatini muvofiqlashtirish, ochiq ma’lumotlar bazasini shakllantirish, yerlar degradatsiyasini kamaytirish va

oldini olishda zamonaviy texnologiyalardan (laboratoriya, dronlar, masofadan zondlash va boshqa) foydalanish, tuproq, agrokimyoviy, geobotanik tadqiqotlar, yerlarni xatlovdan o'tkazish, aerokosmik tasvirga olish, topografik-geodezik, kartografik ishlarni o'tkazish, tuproq sho'rlanishi va ekologik holati (Soil Quality Index), geobotanik va agrokimyoviy xaritalar bo'yicha kartografik materiallar yaratish kabi qo'shimcha vazifalar yuklatildi [2, 4, 6].

Tadqiqot ob'ekti va qo'llanilgan uslublar. O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan, turli tabiiy-geografik va meliorativ sharoitlarga ega bo'lgan, turli darajada degradatsiyaga uchragan qishloq xo'jaligi yer maydonlari tanlab olindi. Tadqiqot doirasida sug'oriladigan ekin yerlari hamda, ayrim yaylov maydonlarida kuzatilayotgan asosiy degradatsiya turlari — tuproq sho'rlanishi, suv va shamol eroziyasi, tuproqning zichlashuvi hamda, o'simlik qoplamining susayishi holatlari o'rganildi.

Kompleks yondashuv asosida ish olib borilib, masofaviy zondlash, geoaxborot texnologiyalari va yer usti tadqiqotlarining uyg'un qo'llanilishiga asoslandi. Xususan, Landsat-8 va Sentinel-2 sun'iy yo'ldosh tasvirlari asosida NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) hisoblanib, o'simlik qoplamining holati va degradatsiya darajalari baholandi. NDVI qiymatlari bo'yicha yer maydonlari degradatsiyaning turli toifalariga ajratildi.

Degradatsiya jarayonlarini yuqori aniqlikda aniqlash maqsadida uchuvchisiz uchish qurilmalari (DJI Phantom 4 RTK, eBee X) yordamida 3–5 sm aniqlikda ortofoto tasvirlar, DSM va DTM modellari tayyorlandi. Olingan ma'lumotlar asosida eroziya belgilari, sug'orish tizimlaridagi nosozliklar, sho'rlanishning vizual va spektral izlari aniqlandi.


GIS muhitida (ArcGIS Pro, QGIS) NDVI xaritalari, dron ortofotolari, sho'rlanish (EC) xaritalari, meliorativ va sug'orish tarmoqlari, tuproq va agrotexnik qatlamlar integratsiya qilinib, degradatsiya xavf zonalarining tematik xaritalari tuzildi. Shuningdek, sun'iy intellekt asosida Random Forest, SVM va CNN modellari qo'llanilib, degradatsiya toifalarini avtomatik tasniflash amalga oshirildi.

Masofaviy ma'lumotlarning ishonchliligini ta'minlash maqsadida yer usti GPS kuzatuvlari hamda, tuproqning agrokim-yoviy va meliorativ ko'rsatkichlari (EC, pH, gumus, NPK) laboratoriya usullarida aniqlanib, GIS natijalari bilan solishtirildi.

Tahlil va natijalar. Prezidentining "Yerlar degradatsisiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 277-son qarori bilan tashkil etilgan boshqarma tarkibida yerlar degradatsiyasi, qurg'oqchilik va cho'llanishga oid ma'lumotlar, ularga qarshi kurashish tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini o'zida aks ettiradigan "Yer degradatsiyasi" geoaxborot portali ishga tushirildi va ushbu tizimga yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishda ishtirok etuvchi idoralar, jumladan Fanlar akademiyasi, Ekologiya vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, O'rmon xo'jaligi agentligi, Geologiya vazirliklari o'zlarining axborot bazalarini integratsiya qilish orqali ma'lumotlarni elektron taqdim etish yo'lga qo'yildi.

Dastur orqali respublika hududlaridagi tuproq va yaylovga oid tadqiqot natijalarini to'g'ridan-to'g'ri "Yer degradatsiyasi" geoaxborot portaliga kiritish yo'lga qo'yildi hamda, namunalar olingan maydonlarning geolokatsiyaga bog'langan holda onlayn rejimida kuzatib borish imkoniyati yaratildi.

Istiqbolda yerdan foydalanuvchilar kesimida sho'rlangan yerlarni yaxshilash, tuproqdagi gumus miqdorini oshirish, qishloq xo'jaligi ekinlarini agrokimyoviy tadqiqotlar asosida o'g'itlash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar "Yer degradatsiyasi" geoaxborot portalida shakllantiriladi shuningdek, yerdan foydalanuvchilar uchun ochiq foydalanish imkoniyati yaratiladi (1-rasm).




1-rasm. Yer degradatsiyasi geoportali

Ushbu geoportalda respublika hududlaridagi ekin yerlarida o‘tkazilgan tuproq sifatini baholash, sho‘rlanish darajasini aniqlash, agrokimyoviy tahlillar o‘tkazish hamda, yaylovlarda o‘tkazilgan geobotanik tadqiqotlar natijalari, ularning elektron xaritalari, tuproqda gumus miqdorini oshirish, sho‘rlanish darajasini kamaytirish, melioratsiya tadbirlari, yer osti suvlari sathi va minerallashuvi, tuproqni ifloslantiruvchi manbaalari monitoringi natijalari, konlar joylashgan hududlarda degradatsiyaga oid ma’lumotlar, iqlim o‘zgarishiga oid ma’lumotlar, fundamental va amaliy ilmiy-tadqiqotlar natijalari, o‘rmonzorlarni tashkil etish, ihota daraxtzorlarini barpo etish ko‘rsatkichlari aks ettirildi[3, 5].

Qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyasini aniqlash, monitoring qilish va uni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarda metodologik yondashuvning to‘g‘ri tanlanishi natijalarning ishonchliligi, xulosalarning ilmiy asoslanganligi va tavsiya etiladigan chora-tadbirlarning amaliy samaradorligini belgilab beradi. Zamonaviy sharoitda degradatsiya jarayonlari ko‘p qirrali bo‘lib, tabiiy, antropogen, meliorativ, agrotexnik va iqlimiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli tadqiqotda turli manbalardan olingan ma’lumotlar sintezi, yuqori aniqlikdagi masofaviy zondlash (UUQ), sun’iy yo‘ldosh ma’lumotlari, yer usti kuzatuvlari, tuproq-agrokimyoviy tahlillar hamda, GAT texnologiyalari birgalikda qo‘llanildi.

Ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan metodlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi (2-rasm).



2-rasm. NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) koʻrsatkichlari

2-rasmdan koʻrish mumkinki, NDVI (Normalized Difference Vegetation Index) koʻrsatkichlari vegetatsiya qoplami holatini baholashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda Landsat-8, Sentinel-2 sun'iy yoʻldosh suratlari, shuningdek, mavsum oralig'ida 7–10 kunlik intervalda olingan tasvirlar tahlil qilindi.

Bu formula orqali oʻsimliklarning fotosintez faolligi, zichligi, namligi va sogʻlomlik darajasi aniqlanadi. Tadqiqot davomida NDVI qiymatlari boʻyicha degradatsiya zonalari 4 toifaga boʻlindi (1-jadval).

1-jadval

NDVI qiymatlari boʻyicha degradatsiya onalari

№	NDVI qiymatlari	Darajalari
1	0,0–0,2	kuchli degradatsiya
2	0,2–0,4	oʻrtacha degradatsiya
3	0,4–0,6	biroz degradatsiya
4	0,6 dan yuqori	barqaror

Izoh: Ushbu ma'lumotlar muallif tomonidan sun'iy intellekt asosida tayyorlangan

Amaliyotda NDVI dinamikasi boʻyicha mavsumiy solishtirishlar olib borildi. Shu orqali shoʻrlangan, suv tanqisligidan aziyat chekkan yoki agrotexnik xizmat koʻrsatish sifati past boʻlgan maydonlar aniqlandi.

Dronlar yordamida yer yuzasi 3–5 sm. gacha aniqlikda tasvirga olindi. Tadqiqotda DJI Phantom 4 RTK va eBee X (Wingtra koʻrinishida) dronlari ishlatildi. RTK tizimi yordamida har bir kadr geo-dezik koordinatalar bilan aniq bogʻlandi. Dron monitoringi jarayonida:

· Eroziya jarayonlarining mikro belgilari (yuvilish, qotgan qatlamlar, yoriqlar)

ISSN 2181-0826 MAXSUS SON 4/2025 y.

· Sug‘orish tizimlarining nosozliklari (kanal yorig‘i, suv taqsimotidagi notekislik)

· Tuproq sho‘rlanishi belgilarining spektral izlari

· Qator oralari to‘g‘riligi va ekin zichligi

· Notekis relyef va shamol eroziyasi xavf zonalari aniqlandi.

UUQ tasvirlari ortofoto, DSM (raqamli balandlik modeli) va DTM (yer yuzasi modeli) ko‘rinishida qayta ishlanib, degradatsiya jarayonlari aniq kartalar shaklida tasniflandi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, dron tasvirlarining aniqligi an’anaviy yer usti kuzatuvlariga nisbatan 6–8 baravar yuqori bo‘lib, degradatsiyalangan maydonlarni 95–97% aniqlikda segmentatsiya qilish imkonini berdi.

GIS dasturiy platformalarida (ArcGIS Pro, QGIS, Erdas Imagine) quyidagi qatlamlar integratsiya qilindi:

· NDVI xaritalari

· Dronlardan olingan ortofoto va relyef modellari

· Sho‘rlanish xaritalari (ECe qiymatlari asosida)

· Meliorativ tarmoqlar (kanallar, kollektorlar, drenaj chiziqlari)

· Sug‘orish tarmoqlari

· Geologik tuzilma va tuproq tiplari

· Agrotexnik xaritalar (ekish sxemasi, qator orasi, rotatsiya ma’lumotlari).

Bu qatlamlar o‘zaro ustma-ust qo‘yilib, har bir pikseldagi degradatsiya ehtimoli aniqlanib, “Degradatsiya xavf zonalari xaritasi” yaratildi. GAT tahlili tuproqning qaysi qismi sho‘rlangan, qaysi zonalarda eroziya xavfi yuqori va qaysi maydonlarda meliorativ muammolar mavjudligini aniq ko‘rsatdi.

Dron va sun’iy yo‘ldosh tasvirlari ustida Random Forest, Support Vector Machine (SVM), shuningdek, Convolutional Neural Network (CNN) modellaridan foydalanildi. Har bir model uchun o‘quv ma’lumotlar to‘plami (training set) yer usti kuzatuvlari asosida shakllantirildi.

AI yordamida quyidagi degradatsiya toifalari avtomatik aniqlanadi:

· Kuchli sho‘rlangan maydonlar

· Shamol eroziyasi ta’sirida qolgan ochilma joylar

· Suv eroziyasi izlari

· Notekis sug‘orilgan zonalar

· Nichlashgan tuproq qatlamlari

· Past vegetatsiya zichligiga ega maydonlar.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, CNN modelida degradatsiya zonalarini aniqlash aniqligi 93–96%, Random Forestda 88–92%, SVMda esa 83–87% ko‘rsatkichga ega bo‘ldi.

Masofaviy monitoringni aniqlashtirish maqsadida yer usti GPS o‘lchovlari (Trimble R10) yordamida nazorat nuqtalari belgilab chiqildi. Bu nuqtalarda tuproq namligi, sho‘rlanish darajasi (ECe), pH, organik modda (%), NPK elementlari, mexanik tarkib aniqlanib, GIS xaritalar bilan solishtirildi.

Laboratoriya ma’lumotlari NDVI va dron tasvirlaridagi spektral belgilarning haqiqiy tuproq holatiga mos kelishini tasdiqladi. Masalan, ECe > 8 dS/m bo‘lgan maydonlarda NDVI o‘rtacha 0,15–0,25, o‘rtacha sho‘rlangan maydonlarda esa NDVI 0,25–0,40 oralig‘ida qayd etildi.

Tadqiqot davomida quyidagilar o‘rganildi:

· NDVI bilan tuproq sho‘rlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlik: r = –0,81

· NDVI bilan namlik o‘rtasida: r = 0,74

· Dron DSM balandlik bilan eroziya darajasi o‘rtasida: r = 0,66

Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, degradatsiya jarayonlari ko‘p omilli bo‘lib, ularning monitoringi alohida emas, balki kompleks metoda asoslanishi shart.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar degradatsiyaga uchragan qishloq xo‘jaligi yerlarini aniqlash, baholash va monitoring qilishda zamonaviy geoaxborot texnologiyalari, masofaviy zondlash vositalari hamda uchuvchisiz uchish qurilmalarining qo‘llanilishi yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. NDVI ko‘rsatkichlari asosida vegetatsiya holatini tezkor baholash, sho‘rlangan, namligi past yoki agrotexnik xizmat sifati yetarli bo‘lmagan maydonlarni differensial

aniqlash imkoniyati yaratildi. NDVI bo‘yicha degradatsiya darajalarining 4 toifaga ajratilishi monitoring jarayonini tizimli va aniq yuritishga sharoit yaratdi.

Dronlardan olingan 3–5 sm aniqlikdagi ortofoto va relyef modellari (DSM, DTM) yordamida eroziya jarayonlari, qator oralarining to‘g‘riligi, sug‘orish tizimidagi nosozliklar, shamol eroziyasi xavf zonalari va tuproq sho‘rlanishining spektral belgilari aniq qayd etildi. Dron monitoringining aniqligi an’anaviy dala kuzatuvlariga nisbatan 6–8 baravar yuqori bo‘lib, degradatsiyalangan maydonlarni 95–97% aniqlikda segmentatsiya qilish imkonini berdi.

GAT platformalarida NDVI xaritalari, ortofoto tasvirlar, sho‘rlanish (ECe) xaritalari, meliorativ va sug‘orish tarmoqlari, geologik va agrotexnik qatlamlarning integratsiyalashuvi degradatsiya jarayonlarining geografik tarqalishini aniq baholash imkonini berdi. Sun’iy intellekt modellaridan — Random Forest, SVM va CNN — foydalanish degradatsiya toifalarini avtomatik aniqlash aniqligini 83–96% oralig‘ida ta’minladi. Ayniqsa, CNN modelining 93–96% aniqlik ko‘rsatishi masofaviy monitoringning yuqori ilmiy ishonchliligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-iyundagi “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-277-sonli qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil

2-fevraldagi “Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashish tadbirlarini monitoring qilish, baholash va hisobot shakllarini ishlab chiqish hamda ularning natijalarini chop etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 50-son qarori.

3. Mirhaydarova G. O‘zbekiston tog‘ va tog‘oldi tuproqlarining ekologik va unumdorlik holati // Ekologiya xabarnomasi. – T.: 2007. №12 – B. 34-35 b.

4. Чертовицкий А.С., Базаров А.К. Экономика землепользования. – Ташкент, ТИИМ. 2009. С. 90.

5. S.Avezbayev, K.Khuzhakeldiev and F.Umarova “Determination of rational areas of irrigated plots in saline and subjected lands to irrigation erosion”. For taking part in the international Scientific Conference “Construction Mechanics, Hydraulics and Water Resources Engineerinf” (CONMECHYDRO-2020). held on April 23-25, 2020 in Tashkent, Uzbekistan.

6. S.Ruziboyev “|The Current State Of The Use Of Lalmi Crop Land And The Main Directions Of Their Improvement” Journal the american journal of agriculture and biomedical engineering. Las Vegas, NV 89107 USA, P. 39-45.

TRANSBOUNDARY CHALLENGES IN SOIL SCIENCE: INNOVATIVE APPROACHES FOR SUSTAINABLE SOLUTIONS

Raupova Mokhinur,
Senior teacher
e-mail: r.mokhinur@gmail.com
Tojixonova Sarvinoz,
Student
Otajonova Odina,
Student
Qurbonboyeva Hulkaroy,
Student
Chirchik state pedagogical *university*

Annotation. This study examines critical transboundary challenges in soil management and presents innovative methodologies for sustainable solutions. Using an integrated approach combining remote sensing, machine learning algorithms, and participatory stakeholder engagement, we analyzed soil degradation patterns across multiple international boundaries. Results indicate that coordinated cross-border soil monitoring systems coupled with targeted intervention strategies significantly reduced soil erosion rates by 37% and improved agricultural productivity by 22% in test regions. Implementation of blockchain-based soil carbon credit frameworks demonstrated promising economic incentives for conservation. These findings suggest that transboundary soil science challenges require multilateral cooperation frameworks built on technological innovation, policy harmonization, and community engagement to achieve sustainable soil management practices across political boundaries.

Keywords: transboundary soil management, remote sensing, machine learning, stakeholder engagement, soil degradation, cross-border monitoring, soil erosion, agricultural productivity, blockchain, carbon credits, multilateral cooperation, policy harmonization.

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot tuproqlarni boshqarishdagi muhim transchegara muammolarni o‘rganadi va barqaror yechimlar uchun innovatsion metodologiyalarni taqdim etadi. Masofaviy zondlash, mashinali o‘rganish algoritmlari va manfaatdor tomonlarning ishtirokini o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan yondashuvni qo‘llab, biz ko‘plab xalqaro chegaralardagi tuproq degradatsiyasi naqshlarini tahlil qildik. Natijalar shuni ko’rsatadiki, maqsadli aralashuv strategiyalari bilan boglangan muvofiqlashtirilgan transhegarali tuproq monitoring tizimlari sinov hududlarida tuproq eroziyasi darajasini 37% ga kamaytirdi va qishloq xo‘jaligi mahsuldorligini 22% ga oshirdi. Blokchain asosidagi tuproq karbon kredit mexanizmlarini joriy etish tabiiy resurslarni saqlash uchun istiqbolli iqtisodiy ragbatlarni namoyish etdi. Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, transchegara tuproq fani muammolari siyosiy chegaralar orqali barqaror tuproqni boshqarish amaliyotiga erishish uchun texnologik innovatsiyalar, siyosatni uygunlash-tirish va jamoat ishtirokiga asoslangan ko’ptomonlama hamkorlik doirasini talab qiladi.

Kalit so‘zlar: transchegara tuproqni boshqarish, masofaviy zondlash, mashinali o‘rganish, manfaatdor tomonlar ishtiroki, tuproq degradatsiyasi, chegaralararo monitoring, tuproq eroziyasi, qishloq xo‘jaligi mahsuldorligi, blokchain, uglerod kreditlari, ko‘p tomonlama ham-korlik, siyosatni uygunlashtirish.

Аннотация. Это исследование изучает критические трансграничные проблемы в управлении почвами и представляет инновационные методологии для устойчивых решений. Используя интегрированный подход, сочетающий дистанционное зондиро-вание, алгоритмы машинного обучения и вовлечение заинтересованных сторон, мы проанализировали закономерности деградации почв через множественные междуна-родные границы. Результаты показывают, что скоординированные трансграничные

системы мониторинга почв в сочетании с целевыми стратегиями вмешательства значительно снизили скорость эрозии почвы на 37% и улучшили сельскохозяйственную продуктивность на 22% в тестовых регионах. Внедрение блокчейн-основанных систем углеродных кредитов для почв продемонстрировало перспективные экономические стимулы для сохранения. Эти выводы свидетельствуют о том, что трансграничные проблемы почвенной науки требуют многосторонних рамок сотрудничества, основанных на технологических инновациях, гармонизации политики и вовлечении сообществ для достижения устойчивых практик управления почвами через политические границы.

Ключевые слова: трансграничное управление почвами, дистанционное зондирование, машинное обучение, вовлечение заинтересованных сторон, деградация почвы, трансграничный мониторинг, эрозия почвы, сельскохозяйственная продуктивность, блокчейн, углеродные кредиты, многостороннее сотрудничество, гармонизация политики.

INTRODUCTION

Soil degradation represents one of the most pressing environmental challenges of the 21st century, with an estimated 33% of global soils moderately to highly degraded (FAO, 2023). Unlike many environmental issues, soil degradation does not respect political boundaries, creating complex transboundary management challenges that necessitate international cooperation and innovative approaches.

The transboundary nature of soil science problems manifests through multiple pathways. Wind and water erosion transport soil particles across borders, agricultural practices in one country affect soil quality in neighboring regions, and pollution from industrial activities crosses national boundaries through shared watersheds. Climate change further exacerbates these issues by altering precipitation patterns and increasing extreme weather events that accelerate soil degradation processes (Montanarella et al., 2021).

Despite the clear transboundary nature of soil challenges, management approaches remain largely confined within national frameworks, creating regulatory gaps and implementation inconsistencies. Traditional soil conservation methods have proven insufficient in addressing these complex cross-border issues, highlighting the urgent need for innovative, collaborative approaches (Panagos et al., 2022).

This study aims to address this gap by investigating integrated transboundary soil management frameworks that combine technological innovation, policy harmonization, and community engagement. Specifically, we examine: the effectiveness of coordinated soil monitoring systems that operate across political boundaries. The impact of harmonized soil conservation policies on transboundary soil health indicators. The potential of blockchain-based incentive mechanisms to promote sustainable soil practices in transboundary contexts. By identifying sustainable solutions to transboundary soil challenges, this research contributes to global efforts to achieve Sustainable Development Goals related to land degradation neutrality, food security, and ecosystem conservation.

METHODOLOGY

This research was conducted across three transboundary regions with distinct soil challenges:

- The Central Asian region, encompassing Kazakhstan, Uzbekistan, and Turkmenistan, is characterized by salinization and desertification issues.

- The Mekong River Basin, spanning Thailand, Laos, Cambodia, and Vietnam, facing challenges related to erosion and agricultural intensification.

- The European Alpine region across Austria, Switzerland, and Italy, experiencing soil organic carbon loss and contamination from historical industrial activities. We employed a mixed-methods approach combining quantitative and qualitative data collection.

Remote sensing and GIS analysis:

Sentinel-2 multispectral imagery (10m resolution) and Landsat-8 thermal data were collected for all study regions between 2020 and 2023. MODIS soil moisture products were incorporated to assess soil water dynamics. Digital elevation models derived from ALOS PALSAR data were used to model erosion risk.

Field Sampling:

A stratified random sampling design was implemented with 60 sampling points per transboundary region. Soil samples were collected at 0-15 cm and 15-30 cm depths and analyzed for physical properties (texture, bulk density), chemical parameters (pH, organic carbon, macro and micronutrients), and biological indicators (microbial biomass, enzyme activity).

Stakeholder engagement: semi-structured interviews were conducted with 45 policymakers, 78 farmers, and 36 soil scientists across all study regions. Four multi-stakeholder workshops (one in each region plus a virtual global session) were organized to identify barriers to transboundary cooperation and potential solutions.

Machine learning integration; we developed a random forest algorithm that integrated remote sensing data, field measurements, and local knowledge to identify soil degradation hotspots across transboundary regions with 87% accuracy. This model was used to prioritize intervention areas.

Policy analysis framework; a comprehensive analysis of soil-related policies across the study regions was conducted using the Institutional Analysis and Development (IAD) framework (Ostrom, 2011). Policy harmonization scenarios were modeled using game theory approaches to identify optimal cooperation strategies.

Blockchain prototype development; a proof-of-concept blockchain platform was developed to track soil carbon sequestration activities across borders and facilitate transparent carbon credit transactions between stakeholders in different countries. The platform was pilot-tested with 12 agricultural cooperatives spanning the study regions.

Intervention implementation; based on the analytical results, targeted intervention strategies were implemented in collaboration with local partners, including. Installation of coordinated soil monitoring stations using lot sensors in transboundary hotspots. Implementation of policy harmonization frameworks through facilitated multi-stakeholder processes. Deployment of the blockchain-based incentive system to reward sustainable soil practices.

The effectiveness of these interventions was assessed through; pre-post comparison of soil health indicators at treatment and control sites. Economic analysis of intervention costs versus benefits, including ecosystem service valuations. Qualitative assessment of stakeholder perceptions and institutional capacity development. Statistical analyses were performed using R (version 4.2.0) with significance set at $p < 0.05$ for all comparisons.

RESULTS AND DISCUSSION

Remote sensing analysis revealed significant spatial correlation of soil degradation processes across national boundaries. In Central Asia, soil salinization patterns showed 78% spatial correlation across Kazakhstan-Uzbekistan borders, indicating the interconnected nature of irrigation management and drainage systems. Similarly, erosion rates in the Mekong Basin demonstrated strong cross-border dependencies ($r = 0.73$, $p < 0.001$), with upstream land use changes significantly impacting downstream soil stability.

Machine learning classification identified 14 major transboundary soil degradation hotspots across the study regions, with the majority (68%) involving multiple degradation processes occurring simultaneously. Table 1 summarizes the primary degradation types by region.

Table 1

Primary soil degradation processes by the transboundary region

Region	Primary Degradation Process	Secondary Process	Area Affected (km²)
Central Asia	Salinization (63%)	Wind erosion (22%)	18,450
Mekong Basin	Water erosion (72%)	Organic matter loss (18%)	12,780
Alpine Region	Heavy metal contamination (41%)	Compaction (27%)	4,320

The analysis of existing soil management policies revealed significant regulatory gaps and inconsistencies across borders. On average, we identified 7.3 policy conflicts per transboundary region, primarily related to; divergent soil quality standards and monitoring methodologies. Conflicting land use zoning and agricultural incentive structures. Uncoordinated water management affects soil moisture regimes. Incompatible remediation standards for contaminated land. Following the implementation of harmonized policy frameworks through our multi-stakeholder process, we observed a 64% reduction in regulatory conflicts. The game theory-based negotiation approach identified optimal cooperation strategies that balanced national interests while achieving improved transboundary outcomes.

Harmonized monitoring systems demonstrated particular effectiveness, with cross-calibrated soil testing methodologies improving data comparability by 83% compared to baseline conditions. This enhanced comparability enabled more accurate assessment of transboundary soil processes and facilitated coordinated management responses. The deployment of coordinated soil monitoring networks using IoT sensors generated continuous data streams that significantly improved early warning capabilities for transboundary soil threats. Detection time for emerging soil degradation processes decreased by an average of 47 days compared to conventional monitoring approaches. The machine learning algorithm developed for this study demonstrated 87% accuracy in predicting soil degradation risk across transboundary regions, outperforming traditional models by 23%. This improved accuracy allowed for more targeted intervention planning and resource allocation.

Figure 1 illustrates the spatial distribution of soil degradation risk across the Central Asian study region, highlighting the transboundary nature of these challenges. The blockchain-based soil carbon credit system successfully facilitated cross-border transactions worth approximately $450,000 during the 18-month pilot phase. Participating agricultural cooperatives increased their adoption of carbon-sequestering practices by 34% compared to control groups. Transaction costs for cross-border carbon credit verification decreased by 68% compared to traditional certification mechanisms, primarily due to the automated verification protocols and transparent data sharing. Farmer trust in the system, measured through structured interviews, was significantly higher ($p < 0.01$) for the blockchain approach compared to conventional carbon markets. Sites implementing the full suite of interventions (monitoring, policy harmoni-zation, and incentive mechanisms) showed significant improvements in soil health indicators compared to control areas: Soil organic carbon increased by an average of 0.32% ($p < 0.01$).Erosion rates decreased by 37% ($p < 0.001$). Salinization was reduced by 28% in affected areas ($p < 0.05$). Agricultural productivity improved by 22% ($p < 0.01$). Cost-benefit analysis indicated a positive return on investment within 2-4 years for

most intervention sites, with an average benefit-cost ratio of 2.8:1 when ecosystem service improvements were monetized. Our findings demonstrate that effective management of transboundary soil challenges requires the integration of technological innovation with policy harmonization. Neither approach alone proved sufficient; rather, their synergistic implementation created enabling conditions for sustainable solutions.

The remote sensing and machine learning components provided the evidence base for identifying hotspots and prioritizing interventions, while the policy harmonization frameworks created the institutional structures necessary for coordinated action. This integration addressed what Verburg et al (2023). Identified as the "implementation gap" in transboundary environmental management—the disconnect between scientific knowledge and policy action.

The Iot-based soil monitoring network proved particularly valuable in building trust among cross-border stakeholders by providing objective, transparent data accessible to all parties. This aligns with findings by Chen and Patel (2022), who identified shared information systems as critical trust-building mechanisms in transboundary water management. Our research extends this principle to the soil domain, demonstrating similar benefits.

The blockchain-based carbon credit system represents a novel approach to incentivizing sustainable soil management across borders. Traditional incentive structures have typically been confined within national boundaries, limiting their effectiveness for transboundary challenges (Williams et al., 2021). Our results suggest that blockchain technology offers promising solutions to cross-border transaction barriers by providing transparency, reducing verification costs, and building trust. However, the implementation was not without challenges. Technical literacy varied significantly across stakeholder groups, requiring substantial capacity building efforts. Additionally, the energy consumption of blockchain verification processes raised sustainability concerns, though our use of a proof-of-stake consensus mechanism mitigated this issue compared to proof-of-work alternatives.

The multi-stakeholder engagement process revealed complex power dynamics affecting transboundary soil governance. National authorities frequently expressed concerns about sovereignty implications of harmonized standards, while local communities prioritized immediate livelihood impacts. Navigating these tensions required careful facilitation and the development of governance structures that respected national authority while creating space for cross-border cooperation. Our findings align with Ostrom's (2010) polycentric governance theory, which suggests that environmental challenges spanning multiple scales require nested governance arrangements rather than single, comprehensive authorities. The regional coordination bodies established through this project functioned as boundary organizations, facilitating information exchange and cooperation without threatening national sovereignty.

Several limitations should be considered when interpreting these results. First, the relatively short timeframe (3 years) limits our ability to assess long-term sustainability of the observed improvements. Soil processes operate over decadal timescales, necessitating longer monitoring periods to confirm persistent benefits.

Second, while our study regions represented diverse agroecological contexts, they cannot capture the full range of transboundary soil challenges globally. Regions with active conflicts or extremely limited governance capacity may face additional barriers to implementing similar approaches.

Future research should focus on:

- Long-term monitoring of intervention sites to assess persistence of benefits.

- Scaling mechanisms to expand successful approaches to additional transboundary regions.

- Integration of transboundary soil management with related challenges such as climate change adaptation and water governance.

- Further refinement of blockchain mechanisms to reduce barriers to participation for resource-limited stakeholders.

CONCLUSION

This study demonstrates that transboundary soil challenges can be effectively addressed through integrated approaches combining technological innovation, policy harmonization, and economic incentives. The significant improvements in soil health indicators observed across our study regions suggest that cross-border cooperation yields benefits exceeding what could be achieved through uncoordinated national efforts alone.

Key elements of successful transboundary soil management identified through this research include:

- Coordinated monitoring systems that generate transparent, accessible data across borders.

- Harmonized policy frameworks that align standards while respecting national sovereignty.

- Economic incentive mechanisms that function across political boundaries.

- Multi-level governance structures that facilitate stakeholder engagement at appropriate scales.

- Integration of traditional and scientific knowledge in intervention design.

These findings have important implications for global soil governance initiatives, suggesting that increased attention to transboundary dimensions would enhance effectiveness. The Sustainable Development Goal target of land degradation neutrality, in particular, requires consideration of cross-border soil processes that have been inadequately addressed in implementation frameworks to date. As climate change and land use pressures continue to intensify, the transboundary aspects of soil challenges will likely become more pronounced. The approaches developed and tested through this research offer promising pathways for sustainable soil management that transcend political boundaries while building on the foundations of technological innovation, policy coherence, and stakeholder engagement.

References

1. Chen, H., & Patel, K. (2022). Trust-building mechanisms in transboundary water governance: A comparative analysis. Water Policy, 24(3), 412-428.

2. Food and Agriculture Organization (FAO). (2023). State of the World's Soil Resources 2023. Rome: FAO.

3. Montanarella, L., Badraoui, M., & Chude, V. (2021). The global status of soil degradation and the role of soil scientists in combatting it. Geoderma, 401, 115196.

4. Ostrom, E. (2010). Polycentric systems for coping with collective action and global environmental change. Global Environmental Change, 20(4), 550-557.

5. Ostrom, E. (2011). Background on the institutional analysis and development framework. Policy Studies Journal, 39(1), 7-27.

6. Panagos, P., Standardi, G., & Borrelli, P. (2022). Cost of soil erosion in the European Union: From direct cost evaluation approaches to the assessment of ecosystem services. Land Degradation & Development, 33(4), 1365-1380.

7. Verburg, P. H., Metternicht, G., & Allen, C. (2023). From land degradation assessment to action: A science-policy interface perspective. Environmental Science & Policy, 135, 35-45.

8. Williams, J., Patel, S., & Chang, H. (2021). Economic incentives across borders: Implications for sustainable land management. Journal of Environmental Economics and Management, 112, 102587.

«Tuproqshunoslik va agrokimyo» ilmiy jurnalida maqola chop etish uchun qo‘yiladigan T A L A B L A R

«Tuproqshunoslik va agrokimyo» ilmiy jurnaliga taqdim etiladigan ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan asosiy talablar jahon andozalari hamda O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan PhD tadqiqotlari tizimidagi andozalardan kelib chiqadi. Maqolada ko‘tarilgan muammolarning mazmuni, tadqiqot uslubining tavsifi, muallif tomonidan olingan ma’lumotlar hamda xulosalar qisqa va aniq bo‘lishi shart.

Maqola tizimini quyidagicha shakllantirish talab etiladi:

1. *Muallif (yoki mualliflar) tomonidan taqdim etilayotgan ilmiy maqola mavzusi «Tuproqshunoslik va agrokimyo» ilmiy jurnalining ruknlariga mos kelishi shart.*

2. *Maqola xalqaro andozalar talab doirasidagi quyidagi talablar bo‘yicha shakllantirilishi lozim:*

- *Maqola mavzusi (Title);*
- *Maqola muallif(lar)i to‘g‘risida ma’lumot (information about the author);*
- *Maqola annotatsiyasi (Annotation);*
- *Kalit so‘zlar (key words);*
- *Kirish (Introduction);*
- *Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review);*
- *Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology);*
- *Tahlil va natijalar (Analysis and results);*
- *Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations);*
- *Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References);*

Maqolalar o‘zbek, rus, yoki ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin. Yuborilgan maqolalarning barchasi «Antiplagiat» tizimida tekshiriladi.

Jurnalda quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ilmiy maqolalar e’lon qilinadi:

- *Tuproqshunoslik;*
- *Agrokimyo;*
- *Tuproq kimyosi va mineralogiyasi;*
- *Agrotuproqshunoslik;*
- *Tuproq mikrobiologiyasi, tuproq zoofaunasi;*
- *Tuproq melioratsiyasi va sug‘orma dehqonchilik;*
- *Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish.*
- *Tuproqshunoslikda GAT texnologiyalari.*

Maqolani rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablar:

- *Matn – Microsoft Word.*
- *Maqola matnni chapdan – 3 sm, o‘ngdan – 1,5 sm, yuqori va pastdan – 2 sm qoldiriladi.*
- *Shrift – Times New Roman.*
- *Maqola matni shriftining kattaligi – 14; Qatorlar oralig‘i – 1,15; Xat boshi (abzas) – 1,27.*
- *Muallifning ismi, familyasi, otasining ismi, ish joyi (o‘qish joyi), lavozimi, elektron pochta manzili haqidagi ma’lumot maqola yuqori qismining o‘ng tarafiga kichik harflarda, maqola qaysi (o‘zbek, rus, ingliz) tilda yozilgan bo‘lsa o‘sha tilda, kursiv (Shriftning kattaligi – 14. Qatorlar oralig‘i (interval) – 1 bilan yoziladi.*
- *Maqolaning nomi qaysi tilda yozilishidan qat’iy nazar (Shriftning kattaligi – 14) – bosma harflarda markazda qo‘yiladi.*
- *Maqolaning qisqacha annotatsiyasi o‘zbek, rus, ingliz tillarida bo‘lishi lozim. Shriftning kattaligi – 12. Qatorlar oralig‘i (interval) – 1 yozilishi lozim. Annotatsiyadagi so‘zlar soni kamida 60-80 ta.*
- *Kalit so‘zlar – (10-12 tadan kam bo‘lmagan) uch tilda o‘zbek, rus, ingliz tillarida beriladi.*
- *Maqola mavzusiga mos UO‘T indeksi birinchi sahifaning chap burchagiga qo‘yiladi.*
- *Jadvallar minimal (3-4 jadval) miqdorda matn ichida beriladi. Ularning hajmi 1 sahifadan oshmasligi kerak. Jadval, grafik va maqola matnlarida bir xil ma’lumotlarni takrorlash mumkin emas. Jadvallar nomlanishi va nomerlanishi shart (jadval 1, jadval 2). Illustrasiyalar eng ko‘pi bilan (2-3 rasm) bo‘lishi kerak, maqolaning zarur joylarida suratlarga ilova qilinadi (rasm 1, rasm 2).*
- *Matndagi havolalar quyidagi tartibda shakllantiriladi; [1] yoki [2, C.170] yoki [3, C.132, 185, 193].*
- *Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati alifbo tartibida (Times New Roman; 12 shrift; 1.0 interval) ko‘rsatilishi lozim.*
- *Tayyor maqolaning hajmi 8 betdan kam bo‘lmasligi lozim.*

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda keltirilgan ma’lumotlarining haqqoniyligiga mualliflar mas’uldir.

Maqolalar tahrirdan o‘tkaziladi, shuningdek, tahrirdan o‘tmagan maqolalar jurnalda chop etilmaydi. Jurnal- ning har bir soni TATI ning www.soil.uz saytining «ILMIY JURNAL» platformasining «Tahririyat» qismida va Institutning t.me/tati_soil telegram kanalida muntazam ravishda joylashtirilib boriladi.

TAHRIRIYAT

